


A. XOLLIEV, X. ARTIQOV

JAHON TARIXI

(YANGI DAVR. OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI)



A.Xolliev

X.Artigov

Yaponiya XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

Xitoy XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

Indiston XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

Uzun XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

Uzbekiston XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

“Jahon tarixi (Yangi davr. Osiyo va Afrika mamlakatlari)”

(Ma'ruzalar to'plami)

Toshkent - 2014

© A. G. Xolliev

**Tuzuvchilar : t.f.n., dots. A. G. Xolliev
o'qituvchi X. Artiqov**

**Taqrizchilar : t.f.n., dots. F. Ismatullaev
t.f.n. O.A. Maxmudov**

Mas'ul muharrir : t.f.n., dots. D.Urakov

**Ma'ruzalar to'plami O'zMU Tarix fakulteti o'quv-uslubiy
kengashining 2014 yil 18 martda bo'lib o'tgan majlisi qarori (bayonnom
№ 8) bilan nashrga tavsiya etildi.**

© A. G. Xolliev

MUNDARIJA

1. Yaponiya XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.
2. Xitoy XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.
3. Hindiston XVII asr o'rtalari- XX boshida.
4. Eron XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.
5. Afg'oniston XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.
6. Usmoniylar imperiyasi XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.
7. Koreya XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.
8. Arab mamlakatlari XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

1 mavzu. Yaponiya XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

XVII asrda Yaponiya agrar munosabatlarining taraqqiyoti o'ziga xos baland cho'qqigacha chiqdi. Bu davrda Yaponiyada rivojlangan iqtisodiy tizimning tayanchlaridan biri dehqon xo'jaligi edi. Dehqonlardagi xo'jalik yuritishga ishtiyok balandligi katta ahamiyat kasb etdi (xosilning 4/10 er egasiga, 6/10 qismi dehqonga berilishi qishloq xo'jaligidagi ma'lum yutuklarni ta'minladi, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga olib keldi.) Mineral o'g'itlarning yangi turlari qo'llana boshlandi, sug'orish yo'li bilan dehqonchilik qilishga o'tildi.

Shu paytda zadoganlar «Qilich ovini» boshlab yuborishdi (dehqonlar qurollarini tortib olib qo'yish).

Dehqonlarni syogunat harbiy tizimidan to'liq chiqarib yuborilishi samuraylar qatlamiga aholining ustidan hukmronlikni kuchaytirish imkoniyatini yaratib berdi. Xideyosi, ichki urushlarning yuzaga kelishini avvaldan bilib, hokimiyat markazini mustahkamlash maqsadida boshqarishning oliy organini to'zib qo'ygan edi. 5 tayrodan (bosh vazirlar) iborat oliy organga Tokugava Ieyasu, Maeda Tosiie, Uesugi Kagekatsu, Mori Terumoto va Ukita Xideie kirgan edi.

Birok, ikki yildan so'ng Tokugava Ieyasu, vorisiga xayrixohlikni yig'ishtirib, harbiy haraqlarni boshlab yubordi. 1600 yilda Sekigaxara yaqinidagi jangda g'alabani qo'lga kiritdi. Bu unga qarshi bo'lgan birlashgan knyazlar koalitsiyasi ustidan g'alaba bo'ldi. Shu vaqtdan Tokugava xonadoni butun hokimimiyatni o'z qo'lida jamul-jam qildi. Xonadon boshligi o'ziga meros bo'lib o'tuvchi syogun – bosh qo'mondon (to'liq unvon: taysyogun – buyuk sarkarda) unvonini berish bilan Yaponiyada hukmdorlar sulolasining tamal toshini qo'ydi.

XVII asr boshida Yaponiyada 260 ga yaqin yirik va kichik knyazliklar mavjud bo'lib, mamlakat aholisi 18 mln. kishini tashkil etgan. Aholining deyarli 80% qishloq xo'jaligida band bo'lgan. Butun hokimiyatni o'z qo'lida jamlagan Tokugava xonadoni asta-sekin barcha knyazliklarni ham o'z nazoratiga ola boshladi.

Syogunat tomonidan o'rnatilgan si – no – ko – syo ijtimoiy ierarxiya “si”- samuraylar, “no”- dehqonlar, “ko”- hunarmandlar, “syo” - savdogarlardan iborat edi. Samuraylar qatlami ham o'z navbatida, bir xil bo'lmasdan, uning yuqori qismi dvoryanlik vakillari bo'lib syogun va uning atrofida gilaridan iborat edi. Eski poytaxt Kiotoda yashagan Mikado faqatgina diniy va ma'naviy marosimlarnigina bajarar, amaliy hokimiyat esa syogun qo'lida edi. Mikado atrofida gilar asilzodalar bo'lib, ularning qo'lida erlar mavjud emasdi. Ularni kuge deb atashardi. Ularda iqtisodiy va siyosiy qudrat bo'lmagan. Shunday qilib, Yaponiyaning siyosiy, harbiy-ma'muriy va mafkuraviy mexanizmi tarkibiy xususiyatlari bilan ikki hokimiyatchilikni tashkil qilardi: Syogun qo'lida haqiqiy hokimiyatga ega edi, hukmron imperator esa «jonli xudo» deyilib, podishohlik qilardi-yu, ammo davlatni idora qilmasdi.

Jamiyatning ma'muriy-xo'jalik asosini knyazliklar tashkil qilardi. Mulkdor knyazlar qo'l ostidagi erlardan olinadigan daromadga - guruch miqdoriga qarab toifalarga bo'linardilar. Usha paytda mamlakatda 11 mln. koku xosi olinardi (1 koku=180,4 l. yoki 160 kg.). Shu xosilning 4 mln. kokusi Tokugava xonadoniga qarashli erlarda etishtirilardi. Bu paytda qo'llarida ekinzor erlari bo'lgan samuraylar

soni qiskarib borardi. O'zaro urushlar davridan yirik knyazlar (daymyo) len shaklida erlarga ega bo'lgan samuraylarni qasrlar ko'chirar, ularga maosh sifatida guruch berishardi. Yaponiyadagi erlar davlat erlari va xususiy (knyazlarning, ibodatxonalar va monastirlarning) erlariga bo'linardi. Xususiy erlarga vorislik joriy etilgan edi. Erdan foydalanishning asosiy shakli ijara edi. Davlat erlaridan foydalanganda esa natural renta to'lanar, goho esa uning o'rniga pul to'lanardi.

Tokugava Yaponiyasining juda ko'p shaharlari bo'lib, ular hunarmandchilik va savdo markazlari edi: Edo, Osaka, Kioto, Nag'oya, Nagasaki, Xokata. Butun hokimiyat qo'lga o'tishi bilanoq Tokugava imperator poytaxti bo'lgan Kiotodan ancha olisda Kanto vodiysining sharqida o'zining poytaxti - Edo shahrini barpo eta boshladi.

Tokugava farmoniga ko'ra poytaxt qurilishiga zarur mablag'larning sezilarli qismi knyazlarga yuklantilgan bo'lib, u erda ishlab berish knyazlar qo'l ostidagi dehqonlarga barchina sifatida majburiyat edi. Tokugava ham, xuddi Xideyosi kabi, chet elliklar bilan aloqasiz ish bitira olmasdi. Faqat chet elliklarning texnik bilimlari va Evropa qurolidan foydalanishga intilardi. Chet elliklarning mamlakatda o'mashib qolishga intilishlari turlicha kechdi. Ular xristianlikni qabul qilgan knyazlar yordamida davlat boshqaruv apparatiga kirib borishga intilishardi.

Tokugava hukumati mamlakatda messionerlik faoliyatni taqiqladi va bir necha xristianlarni qatl qildi. 1614 yilda o'zga erlardan keltirilgan dinlarni taqiqlash haqida farmon chiqdi.

1636 yili o'lim jazosi ostida yaponlarga mamlakatni tark etish taqiqlandi. Shuningdek uzoqqa suzadigan kemalar qurish taqiqlandi. 1637 yili Simabarada (Nagasaki yonida) maxalliy daymyolar siquvidan norozi bo'lgan dehqonlar qo'zg'oloni bo'ldi. Bu qo'zg'olon, Kyusyuda katoliklik keng tarqalganligi tufayli, o'ziga xos diniy ko'rinish kasb etdi. Qo'zg'olonchilar qurolni missionerlardan olishardi. Ammo Tokugava golland kemalari yordamida bu qo'zg'oloni bostirishga muvaffaq bo'ldi.

Endi syogun chet elliklarga qarshi bir necha farmonlar chiqardi. 1638 yilda barcha portugaliyaliklar Yaponiyadan chiqarib yuborildi, ispaniyaliklar ilgariroq tazyiqqa uchragandilar. Faqatgina qo'zg'oloni bostirishda yordam bergan gollandlarga qolishga ruxsat etildi.

Nagasakiga Xitoy va Koreyadan kelgan kemalarga bir yilda faqat ikki marotabagina kirishga ruxsat berildi. Syogunlar tartibotini mustahkamlanishiga diniy institutlarning faol aralashuvi yordam berdi. Mamlakatning «yopilishi»dan so'ng barcha buddizm ibodatxonalari faoliyati nazorat ostiga olindi. Bu ibodatxonalar xristianlikka qarshi kurash shiori ostida butun aholi ustidan nazorat olib borishga majbur edilar. Xar bir yapon kishisi maxsus guvohnomalar va unda qaysi ibodatxona nuzurida turishi ko'rsatilardi. Shunday guvohnomasini yo'qotgan kishi «qonundan tashqari» hisoblanardi.

Tokugava sulolasi davrida sinto va buddizmning sinkretizmi yuqori cho'qqigacha chiqdi. Bu ikki din ibodatxonalarining yagona vaqf erlari bo'lardi. Ibodatxonalarda bu ikki budda va boddixatlar o'rnatilardi.

Bu davrda Yaponiyada buddizm mavqei Chju Si yo'nalishidagi konfutsiylikning (davlatning rasmiy mafkurasiga aylangan) yoyilishi ta'sirida emirilib borardi. Bu esa syogun vakillariga xalqni itoatda ushlab turishning axloqiy dasturi sifatida juda qo'l kelardi. XVIII asrning 60-yillarda ko'pgina knyazliklarda budda ibodatxonalari berkitildi, roxib (monaxlar) ni dalalarda ishlashga majbur qilishdi. Mamlakatda buddizm o'z mavqeini yo'qota boshladi.

Tokugava Ieyasu samuraylarni bir necha toifalarga bo'lib yubordi. Kuge - Kioto saroyiga yaqin aristokratiya (zodagonlar) bo'lib, ular eng oliy toifa samuraylar deb hisoblanardi. Buke - harbiylar xonadonlari bo'lib, mamlakatdagi harbiy dvoryanlar tabaqasining ko'pchiligini tashkil etardi. Buke zamindor mulkdor dvoryanlarga (daymyo) va oddiy hamda odatda ersiz dvoryanlarga (busi) bo'linardi. Tokugava Ieyasu qolganlarni Sekigaxara jangidagi pozitsiyasiga qarab ikki toifaga bo'lib chiqkan edi: fuday - daymyo va todzama - daymyo. Fuday - bu syogunning bevosita vassallari edi. Boshqaruv apparati fuday daymyolardan shakllantirilardi. Todzama daymyolar esa ta'qibga uchragan samuraylar guruhi bo'lib, ular davlat boshqaruvida yuqori lavozimlar egallay olmas. Todzamaning qudrati va ta'sirini zaiflashtirgan omil ularning erlarini tortib olinishi va qayta taqsimlanishi hamda sankinkotay (garovga olish) bo'ldi.

Sinkinkotay tizimi syogun Iemitsu tomonidan 1634 yilda joriy etilgan edi, lekin uning boshlanish davri Xideyosi hukmronlik qilgan davrga taaluqlidir. U barcha daymyolar oilalarini knyazliklarda emas, doimiy nazorat ostida syogun qarorgohida yashashga majbur qildi.

Syogun va zamindor knyazlarning bevosita vassallari xotamoto, ya'ni harbiy samuraylikning eng past tabaqasi hisoblanardi. Ularning eri bo'lmas, oylik maosh sifatida guruch olishardi. Ular syogun qo'shiniga olinardilar, davlat aygokchilari va nozirilarini tashkil qilardilar. Metsuke (nazoratchilar) alohida mavqega ega bo'lib, syogun manfaatchilarga salbiy tasir qiluvchi holatlarni aniqlashardi.

Osoyishtalik davri oddiy samuraylarga katta ta'sir etdi. Nizomga ko'ra samuraylar harbiy ishdan boshqa soha bilan shugullanishga haqi yo'q edi. Daymyolarga esa bunchalik ko'p qo'shinnig hojati yo'q edi. Bunday sharoitda samuraylar roninlarga aylanishdi, o'kituvchilik, shifokorlik, rassomchilik va boshqa kasblarni egalashdi.

XVII asr oxiri va XVIII asrning boshi mamlakatdagi umumiy iqtisodiy vaziyat yomonlashdi. Samuraylar yuqori qismining hayot darajasi bilan oddiy xalq hayoti o'rtasidagi farq kattalasha bordi. Dehqonlarga solinadigan soliqlar miqdorini ortishi dehqonlar ahvolini og'irlashtirdi. Tokugava hukmronligi davrida 1163 ta dehqonlar g'alayoni qayd etilgan.

Tokugava davrining dastlabki davrida dehqonlar soliq va boshqa jarimalarga qarshi jamoa chiqishlarini uyushtirdilar. Odatda ular daymyoga petitsiya topshirish, unda yalinib yolvorishar yozilgan bo'lardi. Shu imltimosnomalarni topshirish ham og'ir jinoyat hisoblanib, o'lim bilan jazolanardi.

Shahar aholisi Tokugava tabaqa tizimining eng pastidan joy olgan edi: hunarmandlar, syo-savdogarlar. Shahar aholisining yuridik haq - huquqlari qolgan

tabaqalardan ozroq bo'lib, faqatgina yirik savdogarlar va hunarmandlarning jamiyatidagi iqtisodiy kuch sifatida yuksala bordi.

Savdogarlikning asosiy markazlari - Edo, Osaka, Kioto, Sakai, Nagasaki shaharlari edi. Yirik savdogarlik gildiyalari (kabunakama) va hunarmandlarining tsexlari (dza) Osaka shahrini tijorat faoliyatining bosh markaziga aylantirdi. Uni mamlakat oshxonasi yoki (daydokoro) deb atashardi. Bu erda mollar savdosining bosh bozori, guruch birjasi, ulgurji baliq sotish birjasi, sabzavot bozori bo'lgan. Qiymatining o'lcham birligi guruch hisoblandsada, sekin-asta uning o'rinini (ekvivalenti) pul egallardi. Knyazliklar o'zlarining tor xarakterini yo'qotdi. U yoki bu mollarni ishlab chiqarishga (asoslangan) ixtisoslashgan rayonlar paydo bo'la boshladi. Bu esa umum millat bozorining paydo bo'lishiga olib keldi. Savdo sarmoyasi, ayrim rayonlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga yordam bergan holda, asta - sekin hunarmandchilik sanoatiga kirib kela boshladi. Manufakturalar paydo bo'ldi.

Hukumat esa savdogarlardan kreditlar olar, kam hollarda ularning qo'llarida boyliklar to'planib qolishiga qarshilik qilardi.

Hunarmandlar faoliyati ham qat'iy cheklashlarga uchradi va ular doimiy nazoratda bo'ldilar. Ular kasb sohasi bo'yicha tsexlar (dza) tashkillashar, ularda aniq ierarxiya va shu tsexda shugullanish vorislik huquqi joriy etilgan edi. Hukumat tsexlarga ayrim imtiyozlar berar va ularning kasbiy monopoliyalarini himoya qilardi. Shu bilan birga, tsexlardan to'lovlar manbai sifatida foydalanar edi. Hukumat tsexlarga doimiy ta'sir o'tkazib, ishlab chiqarish va sotish ustidan nazorat olib borardi.

Yaponiyaning tashqi olamdan uzoq davom etgan yakkalanishi hech qachon to'liq bo'lmagan. Syogunat tomonidan aloqalar cheklangan tarzda Gollandiya va Xitoy savdogarlari bilan bo'lib turdi. Shu bilan birga syogun xonadoni va imperator ayonlari maxsus ruxsatga ega kemalarni Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlariga savdo qilish uchun jo'natib turardilar.

XVIII asr boshidan Yaponiyaga Tinch okeani qirg'oqlariga Rossiyaning chiqayotganligi haqida xabarlar etib kelardi. Shuningdek, Rossiya bu rayonlarni o'zlashtirayotgani haqidagi xabarlar tarqaldi. XVIII asrning birinchi o'n yilliklarida ruslar Sharqiy Sibirni o'z erlariga qo'shib oldilar. Oxota dengiziga chiqdilar. V.Poyarkov, A.Atlasov, E.Xabarov ekspeditsiyalari geografik kashfiyotlar qildi. Rus saritasiga Tatar bo'g'ozi va Saxalin oroli tushirildi. 1697 yilda Rossiyaga Kamchatka qo'shib olindi. XVIII asrning birinchi choragida Shantar va Quril orollarini o'rganish, tadqiq qilish boshlandi.

1739 yil iyunida M.Shpanberg va V. Valton ekspeditsiyasi birinchi bor Xitoy orolining shimoli-sharqiga etib keldi va Edzo orolining sharqiy qirg'og'iga boshdi.

Janubiy Kuril orollariga Yaponiya tomonidan uyushtirilgan birinchi ekspeditsiyalar XVIII asrning 30-yillariga taaluqlidir.

Taniqli yapon geografi va tadqiqotchisi Mogami Tokunay o'z vatandoshlari ichida birinchilardan bo'lib Iturup va Urup orollarida bo'ldi (1786 yili). XVIII

asrning II yarimida rossiyaliklarning birinchi kuchib kelganlari Paramushir, Shumushir, Simushir, Urup, Iturup orollarida yashay boshlagan.

1792-1793 yillarda Laksman ekspeditsiyasi Rossiyadan Nagasakiga bitta rus kemalasining bir yilda bir marotaba kirishiga yozma ruxsatnoma bilan kaytdi. Bu katta muvafakkiyat bo'lib, ruslarga gollandiyaliklar bilan bir xil imtiyoz berardi. Lekin ruslar bu imtiyozdan deyarli un yil foydalanishmadi. 1804 yilda Nagasakiga Rezanov keldi, lekin unga muzokaralar olib borishga ham raddiya berildi. V.Golovnin 1809-1813 yillardagi ekspeditsiya natijasida yapon asirligida uch yil qolib ketdi.

Dehqonlar va boshqa ijtimoiy qatlamlarning g'alayonlari, shaharlardagi «guruch isyonlari» shunday bir ijtimoiy kuch ediki, u syogunat tartibotini izdan chiqardi va nihoyat XIX asr boshida chuqur siyosiy inqirozni yuzaga keltirdi.

1837 yili Osio Xeyxatiro boshchiligida hokimiyatga qarshi qo'zg'olon Osakada bo'lib o'tdi. Osio - shahar korovullari boshligi lavozimini egallari edi. 1837 yilgi ocharchilikdan chayqovchilar guruchning narxini oshirish maqsadida foydalanishdi. Osio syogunat amaldorlariga boy savdogarlarni jazolash talabi bilan murojaat qildi. Bu talabiga rad javobini olgan Osio bor mol-mulkini sotib, pulga murojaat qildi. Bu talabiga rad javobini olgan Osio bor mol-mulkini sotib, pulga guruch sotib oldi va shahar aholisiga tarkatib berdi. 1837 yil 17 fevralda Sesu, Kavat, Xarima, Idzumi viloyatlarida qo'zg'olonchilar boylarning omborlarini qo'lga olib, undagi guruchni ochlarga bo'lib berdilar. Yong'inar va qo'zg'olonlar boshlandi. Lekin qo'zg'olon bostirildi. Qo'zg'olon siyosiy talablarni o'z oldiga kuymagan edi. Osio shu paytda mavjud tartibotini tanqid qildi, xalqni syogunatni ag'darish va faqat imperator hokimiyatligini qayta tiklashga chaqirdi. Qishloq va shahardagi isyonlarning o'sib borishi butun Yaponiyaga yoyildi. 1837 yilgi qo'zg'olon natijasida syogunat eski tartiblarini qayta qo'rib chiqib, 1830-1843 yillarda bir qator islohotlar o'tkazdi. Islohotlar dabdabali, kimmatbaxo taqinchoqlarni, bezaqli uylarni, tantanalar va bayram yurishlarini, chekishni «kamtarona turmushi tarzini» va axloqni buzuvchi holatlar sifatida taqiqlardi.

1841 yili monopol gildiyalarni tarkatib yuborish haqida farmon e'lon qilindi (savdo va sudxo'rlik yo'qolishidagi gildiyalarini). Erkin savdoga o'tishni anglatuvchi bu farmon nafaqat narxlarni tushishiga olib kelib qolmay, aksincha bozor holatini boshqarib bo'lmaydigan qilib qo'ydi. Natijada savdogar va sudxo'rlarning norozilik va islohotlarni bekor qilinishiga olib keldi. Bu esa kabunakama (1851) ni yo'qotish haqidagi faromni bekor qilishiga olib keldi. Daymyolar orasida ham kurash avjiga chiqdi. Todzama knyazlar Tokugava xonadoniga qarshi birlashishdi. Imperator va uning atrofidagilar ularning bayrog'iga aylanishdi. Ularning oldidagi vazifalari «qonuniy» imperatorlik hokimiyatni qayta tiklash edi. Todzama-knyazlar mamlakatning sharqi va g'arbi vakillari edi (Satsuma, Tyosyu, Tosa, Xidzen).

1843 yili AQSH kongressi prezidentga Yaponiya bilan savdo aloqalarini o'rnatish uchun vakolat berdi. 1853 yil 8 mart kuni Uruga buxtasiga kommodor Perri eskadri kirdi. Eskadra kemalardagi to'plarni qirg'oqqa qarab qo'yishgan edi. Perri prezidentning xatini, shuningdek, Amerikaning so'nggi mashinalari modellarini syogunat vakillariga topshirdi. Javob berish 1854 yilga ko'chirildi. Syogunat poytaxti Edo shahrining mudofaasini tashkil etish uchun yordam so'rab gollandiyaliklarga va

maslahat uchun imperatorga murojaat qildi. Perri bir yildan so'ng qaytib keldi va harbiy kuchni namoyish etdi. 1854 yil 31 martda Kanagavada (lokagama) birinchi yapon-amerika shartnomasiga imzo chekildidi. Bu shartnomaga ko'ra Amerika kemalari Simoda (Idzu yarimoroli) va Xakodate bandargohlariga oziq-ovqat, suv, kumir va boshqa mollar olish uchun kirish huquqiga ega bo'ldilar. Shartnoma savdoga daxldor bo'lmaganligi uchun amerikaliklar yangi shartnoma to'zishni talab qildilar.

1854 yil 14 oktyabrda Angliya-Yaponiya shartnomasi tuzildi, lekin u ham Kanagava shartnomasini mazmunan takrorlardi. 1853 yil 21 avgustda admiral Putyatinning rus missiyasi Nagasakiga keldi. Maqsad - tinchlik yo'li bilan savdo aloqalarini o'rnatish, shuningdek, Saxalin va Kuril orollarini Rossiya mulki deb tan olinishi edi. Muzokaralar cho'zilib ketdi va natijasiz tugadi.

1855 yil 7 fevralda nihoyat Simodada Rossiya va Yaponiya o'rtasida shartnoma imzolandi. Kuril orollarining deyarli hammasi Rossiyaga qarashli deb hisoblandi. Saxalin haqidagi masala echilmay qoldi. Yaponlar uni ruslarga qarashli deb tan olishdan bosh tortdilar. Rossiya va Angliya bilan tuzilgan shartnomalarga ko'ra bu mamlakatlarning kemalari uchun Nagasaki bandargohi ochildi.

1854-1859 yillarda teng huquqli bo'lmagan shartnomalarning bir turkumi imzolandi. Ushbu davr «Ansey shartnomalari» davri deb nomlanadi.

XIX asr o'rtalarida uni iktisodiyotiga katta o'zgarishlar olib keldi. XIX asrning 60 yillarida yangi portlarining ochilishi tashqi sotuvda muhim o'zgarishlarga olib keldi. Yaponiyaning asosiy eksportlari ipak, choy, paxta, baliq va dengiz mahsulotlari tashkil qilgan bo'lgan. Importda xar-xil ishlab chiqarish sanoat mollari asosan Angliya va Amerika mahsulotlarini tashkil qilardi.

Shundoq ham iqtisodiy tanglikni boshidan kechirayotgan yaponlarning tsex hamamandchiligiga uy ishlab chiqarish sanoatida va manufakturaning boshqa ko'rinishlariga zarba berdi. Lekin yaxshi tarafi iqtisodiy jihatdan rivojlangan AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya bilan hamkorliklar o'zining yutuklarini ko'rsata boshladi. Ayniqsa zamonaviy ishlab-chiqarish sanoatini kirib kelishi iktisodiyotni rivojlantirishga xizmat qila boshladi.

1868 yili ellikdan ortiq og'ir sanoat va yuzdan ortiq engil sanoat ishlab chiqarish korxonalarini qurildi. Bu qurilishlar texnikasi xorijlik davlatlarga tegishli bo'lib metallurgiya, kemasozlik ishlarida va qayta-ishlab chiqarish sohalarida muhim rol o'ynaydigan bo'ldi. Ayniqsa davlatga bo'ysunuvchi va mustaqil knyazliklarning paxta va qurollar sotib olish kuchaydi. Keyinchalik Yaponiyaning jahon xo'jalik talabiga qo'shilish ketishi uning mollari bo'lgan ehtiyojini oshirib yubordi. Buning natijasida zodagon er egalari, knyazlar qo'lida pul to'planib yanada kuchayib ular bostirib olib ketdi, dehqonlar ahvoli esa xar doimgidek og'ir ahvolda edi.

Eng ko'p bo'yigan savdogarlar bo'lar xorijlik ishbilamonlar bo'lib ular teng huquqli bo'lmagan shartnomalardan (Anseyeki) foydalanib tillani juda arzon narxda sotib olishardi. Undan tushadigan foyda 140% edi. Shuning uchun oltinning chiqib kelishini qattiq nazorat qilish uchun bandlaru yangi choralar qo'llashga majbur bo'ldi. Iktisodiyotda spekulasiyaning kuchayib ketishi oqibatida asosiy mehnatni bajaradigan aholi qatami bilan samuraylarning pastki vakillarining ahvoli

og'irlashdi. Ko'plab aholining poytaxtga kuchib ketishi oqibatida ishsizlikning soni ko'payib ketishiga olib keldi. Xorijliklarga qarshi va maxalliy xomiya qarshi kuchayib borishi iqtisodiy tanglik bilan bog'lash mumkin. 1849 yil Xirosimada, 1853 yili Okuriku, 1858-1861 Osakada katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi.

Yaponiyada 60-yillardan boshlab siyosiy inqirozning kuchayishi ko'zga tashlanadi. Mamlakatning turli hududlarida chet elliklarga qarshi stixiyali chiqishlar ko'paydi.

1862 yilda Satsuma knyazligida ingliz Richardson o'ldirildi. Bu hodisadan foydalangan inglizlar vakili yapon hukumatidan 100 ming funt sterlingdan ortiq tovon to'lashni talab qildi. Bu esa xalq ommasi noroziligini yanada kuchaytirdi. Shaharlarda chet elliklarni boykot qilishga da'vat etuvchi varaqalar tarqatila boshlandi.

Butun Yaponiya bo'ylab dehqonlar qo'zg'olonlari va shaharliklarning g'alayonlari to'xtamadi. Syogunatga muxolifatda bo'lgan samuraylarning faoliyati ham faollashdi. Ular syogunning knyazlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari tizimini o'zgartirishni talab qilib chiqdilar. Syogun zodagon zamindorlarning muxolifatini tinchlantirish uchun daymyolar oilasini Edoda garovga olinganlar sifatida ushlab turishdan iborat tartibni bekor qilishga va kelgusida muhim davlat ishlarini hal qilishga knyazlarni ham jalb qilishga va'da berdi.

Syogun 1863 yilda imperator bilan uchrashish uchun Kiotoga kelganda kuch bilan qo'lga olindi va u imperatorning chet elliklarni haydab yuborish to'g'risidagi farmonini tasdiqlashga majbur bo'ldi. Syogun chet elliklarga qarshi kurashga boshchilik qilishga va'da berdi. Syogun hukumati 1863 yil iyulda chet el vakillariga yapon portlarini yopilishi to'g'risidagi notani topshirdi. "Chet el bosqinchilarini quvib yuborish" to'g'risidagi qarorni bajarishga kirishgan Simonosekining (Tesyu knyazligining poytaxti) sohil batareyalari u erga kelgan chet el kemalarini o'qqa tutdi.

Lekin syogun hukumati o'z imtiyozlarini mustahkamlash va kengaytirishni talab qilayotgan chet elliklarga qarshi kurashni avj olib ketishini istamas edi. 1863 yil avgustida ingliz eskadrası Richardsonning o'limi uchun qatag'on qilish bahonasida Satsuma knyazligining markazi Kagosima shahrini to'plardan o'qqa tutib, vayron qildi.

Syogun va uning hukumatining omma ichidagi obro'si tushib ketdi. Imperator poytaxti bo'lgan Kioto amalda Tesyu knyazligidan kelgan samuraylar otryadlari qo'lida bo'lib, ular chet elliklarga qarshi qat'iy kurash olib borish tarafdorlari edilar. Ular imperatorni qo'lga olishga va uni chet elliklarga va syogunatga qarshi rasmiy ravishda urush e'lon qilishga majbur qilmoqchi bo'ldilar. Syogun Tesyu knyazligiga qarshi kurashish uchun chet elliklardan yordam so'radi. Ingliz-fransuz-golland-amerika harbiy kemalari Simonoseki fortlarini bombardimon qildilar, syogun qo'shinlari hujumga o'tib, Tesyu hokimyatini taslim bo'lishga majbur qildilar.

Syogun chet davlatlar tomonidan ko'rsatilgan yordam uchun ularga qo'shimcha yon berishlarni amalga oshirishga majbur bo'ldi. Chet davlatlardan keltiriladigan mollar uchun bojlar yanada kamaytirildi, Angliya va Fransiyaga o's

missiyalarini qo'riqlash uchun Yaponiya hududiga o'z harbiy otryadlarini olib kelishga ruxsat berildi.

Mamlakatning janubida joylashgan Satsuma, Tesyu, Tosa va Xidzen knyazliklari syogunga qarshi qaratilgan muxolifatning harbiy-siyosiy markazlari edilar. Ular o'zlarining geografik joylashuvlariga ko'ra hamma vaqt syogun hokimyatidan nisbatan mustaqil holda siyosat olib borardilar. Janubdagi bu 4 knyazlik birlashib, kuchli ittifoq tuzdilar va syogunatni yo'q qilishni hamda imperator hokimyatini tiklashni talab qilib chiqdilar. Ularning harbiy ortyadlari yana Kiotoni egallab oldi.

1867 yilda imperator taxtiga 15 yoshli Mutsixito o'tirdi, amalda uning nomidan janub knyazlari ish olib borardilar. 1867 yil oxirida syogunga muxolifatda bo'lgan kuchlar vakillari yangi imperator nomidan memorandum tuzib, uni syogunga topshirdilar. Unda syogun Tokugavalar tomonidan noqonuniy tortib olingan hokimyatni imperatorga qaytarilishi talab qilingan edi. Syogun o'z dushmanlarining kuchini hisobga olib, bu talabni qabul qilishga majbur bo'ldi. Lekin u o'ziga sodiq qo'shinlarni to'plab, qurolli kurashga tayyorlana boshladi. Tez orada urush harakatlari boshlanib ketdi. Lekin 1868 yil yanvarida syogun qo'shinlari Kioto yaqinida tor-mor qilindi, fevralda syogun poytaxti Edo taslim bo'ldi. Shundan keyin shimoli-sharqdagi knyazliklar qo'shinlari imperator armiyasiga qarshi kurashni davom ettirdilar, lekin noyabrda ular ham mag'lubiyatga uchradilar. Syogun floti ham mag'lubiyatga uchradi. Syogunat uzil-kesil tugatildi.

Imperator Mutsuxitoning hukmronlik qilgan davri Meydzi davri - "Ma'rifatli boshqaruv" davri deb nom oldi. 1868 yil yanvarda shahzoda Arisugava boshchiligida imperatorning birinchi hukumati tuzildi, unda burjuacha islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lgan janub knyazlari etakchilik qilardi. Natijada 60-yillar oxiri - 70-yillar boshida bir qator islohotlar amalga oshirildi.

Eng avvalo mamlakatni alohida knyazliklardan iborat tarqoqligiga barham berildi. 1869 yilda Satsuma, Tesyu, Tosa va Xidzen knyazlari imperator hokimyati tiklanishi munosabati bilan o'zlarining o'z knyazliklaridagi huquqlarini imperatorga berishlarini e'lon qildilar. Boshqa knyazlar ham shunday bayonot berishga majbur bo'ldilar. Dastlab knyazlar o'z knyazliklarida vorisiy gubernator sifatida qoldirildilar va ularga mahalliy daromadning o'ndan bir qismi beriladigan bo'ldi. 1871 yilda knyazliklarni batamom tugatish va Yaponiyani prefekturalarga ajratish to'g'risida farmon chiqarildi. Sobiq knyazlar hukumatdan yuqori miqdorda umrbod pensiya olingan bo'ldilar.

Samuraylar qo'shini doimiy armiyaga aylantirildi. 1871 yilda bevosita hukumatga bo'ysunuvchi imperator gvardiyasini tashkil qilish to'g'risida dekret chiqarildi. 1872 yilda umumiy harbiy majburiyat asosida qurolli kuchlarni tashkil qilish to'g'risida dekret chiqarildi. Lekin armiyadagi rahbarlik lavozimlari samuray klannalari qo'lida edi.

Imperator hukumati tabaqaviy imtiyozlarni bekor qilganligini va hamma fuqarolarning huquqda tengligini e'lon qildi. Tsex tizimi va tsex reglamentatsiyasini bekor qilish, tekki bojlarni tugatish, savdo erkinligi va harakat erkinligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Eski qonunlar qayta ko'rib chiqilib, butun mamlakat va

barcha fuqarolar uchun bir xil bo'lgan qonunlar qabul qilindi. Yangi shakldagi umumiy sudlar joriy qilindi.

Yangi hokimiyatning eng muhim islohotlaridan biri bu qishloq, xo'jaligi islohotlari hisoblanardi. 1872 yildan erni sotish erkinligi e'lon qilindi. Er monopoliyasi bekor qilindi.

Savdo va sanoatning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida yagona valyuta – iena joriy etildi.

Edo uzoq vaqtlar davomida Yaponiyaning siyosiy markazi bo'lib kelganligi sababli imperator poytaxti Kiotodan Edoga ko'chirildi va Edoning nomi Tokio («Sharqiy poytaxt») deb o'zgartirildi.

Ta'lim sohasida islohotlar amalga oshirildi, yangi o'rta maktablar, Tokio universiteti ochildi. Yaponlarni bilim olish uchun chet ellarga yuborish rag'batlantirildi.

Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishiga katta to'rтки bo'ldi. Endi samuraylar nafaqat boshqaruvda balki oddiy siyosiy-ijtimoiy boshqaruvda ham o'mini juda qiyinlik bilan topa boshladi. Eskichaga kaytish, islohotlarga qarshi kurashi samuraylar xarakterini belgilab berdi.

Islohotlar harbiy dvoryanlarning imtiyozli tabaqasi bo'lgan samuraylarning manfaatlariga zid edi. Yirik er egalari – knyazlar o'z huquqlaridan imperator uchun voz kechganliklari uchun katta pul mukofotlari olgan edilar, lekin oddiy samuraylarning ahvoli yomonlashdi. Samuraylarning ko'pchiligi doimiy daromadga ega bo'lmay qoldi, ularning ko'pchiligi o'zlarining ilgari imtiyozli mavqelarining yo'qotishlaridan norozi edilar.

70-yillarda samuraylarning bir qator isyonlari bo'lib o'tdi. Ularga harbiy vazir Saygo Takamori boshchilik qildi. Ayniqsa 1877 yildagi samuraylar qo'zg'oloni ancha uzoq davom etdi. Hukumat qo'shinlari bu qo'zg'olonni ham bostirdilar, uning rahbari Saygo o'zini o'ldirdi.

XIX asrning 80 yillari Yaponiya iktisodiyoti tez suratlarda rivojlana boshladi. O'tkazilgan islohotlardan so'ng yaqin o'n yilligida 500 dan ortiq, ishlab chiqarish sanoat korxonalari ko'payib ishlab turardi. Hukumat korxonalarini shaxslarga berishni ma'qul ko'rdi. Usha paytlardan boshlab Mitsui, Mitsubishi, Furukava, Yasuda, Asano, Kawasaki firmalar iktisodiyotda muhim rol uynashni boshladi.

XIX asrning 80 yillarida xalq o'z huquqini talab qilib chiqishlari ko'paydi. Yaponiyada ana shunday sharoitda dastlabki partiyalar tashkil topdi. 1881-yil oktyabrda «Parlamentni ta'sis qilish ligasi» asosida «Konstitutsion – liberal partiya» (Dziyuto) tashkil topdi.

1882-yilda ikkinchi siyosiy partiya – «Islohotlar va taraqqiyot konstitutsion partiyasi» (Kaysinto) tashkil topdi.

Hukumat bu partiyalarga qarshi turish uchun «Imperator konstitutsion partiyasi»ni (Teysyeto) tashkil etdi.

1882-1884-yillarda «Xalq huquqlari uchun harakat»ning so'l qanoti o'z faoliyatini yanada kuchaytirdi. Bir qator joylarda qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi, lekin bu qo'zg'olonlar bostirildi.

1889-yilda Yaponiya Germaniya, Rossiya va AQSH bilan yangi savdo bitimlarini tuzdi, unda teng huquqli bo'lmagan bitimlarning bir qator cheklashlari bekor qilindi. Lekin Yaponiya faqat 1911 yilga kelibgina teng huquqli bo'lmagan bitimlardan xalos bo'la oldi.

Demokratik harakatning yangidan ko'tarilishidan qo'rqib qolgan imperator hukumati konstitutsiyani qabul qilishga majbur bo'ldi. Hukumat chet davlatlar konstitutsiyalarini o'rganish uchun o'z vakillarini Evropaga va AQSHga yuborgan edi. Prussiya konstitutsiyasi asosida 1889-yilda Yaponiya konstitutsiyasi ishlab chiqilib, qabul qilindi.

Yaponiyaning bu konstitutsiyasi 1946-yilgacha amalda bo'ldi. Konstitutsiya imperatorga juda katta vakolatlar berdi, uning shaxsi «muqaddas va daxlsiz» deb e'lon qilindi. Imperator qonunlarni tasdiqlash, parlamentni chaqirish va tarqatib yuborish, barcha fuqaro va harbiy amaldorlarni ishga tayinlash va ozod qilish, urush e'lon qilish va sulh tuzish vakolatiga ega edi. Imperator oliy bosh qo'mondon hisoblanardi.

Konstitutsiyada ikki palatali parlament tuzish e'lon qilindi. Yuqori palata – perlar palatasi va quyi palata – vakillar palatasi. 25 yoshga to'lgan erkak aholi mulk va o'troqlik senzi asosida saylovlarda qatnashish huquqiga ega bo'ldi.

Parlament davlat byudjetini tasdiqlash va qonun chiqarish huquqiga ega edi, lekin hukumat parlament oldida emas, imperator oldida javobgar edi.

Yaponlar 1874-yilda yapon xizmatiga kirgan amerikalik general Lejandra boshchiligida Xitoyning Tayvan oroliga qo'shin tushirdilar. Lekin Tayvan aholisining qattiq qarshiligi va Yaponiyaning Xitoyga qarshi katta urushga tayyor emasligi yaponlarning chekinishiga sabab bo'ldi.

Yapon hukumati Saxalin va Kuril orollariga ham da'vo qilib chiqdi. U Janubiy Saxalinni Yaponiyaga qo'shib olishga harakat qildi.

1875-yilda rus-yapon bitimi tuzilib, unga ko'ra Yaponiyaning Saxalinga bo'lgan da'vosidan voz kechgani evaziga unga Kuril orollari beriladigan bo'ldi. Rus hukumati bu vaqtda Yaqin Sharqda va O'rta Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirishni asosiy vazifasi deb bilib, bu yon berishni amalga oshirdi.

Yaponiya 1876-yilda urush boshlash tahdidi bilan Koreyaga teng huquqli bo'lmagan bitimni qabul qildirdi. Shu vaqtdan boshlab yaponlarning Koreyaga kirib kelishi boshlandi.

Yaponiya Koreyani bosib olishga va Xitoyga qarshi urushga tayyorlandi. Xalqaro vaziyat ham Yaponiyaning Koreya va Xitoyga hujum qilishi uchun qulay edi. Endilikda, AQSH bilan bir qatorda, Angliya ham Yaponiyani Rossiyaga qarshi kurashda o'z ittifoqchisi sifatida ko'rardi. Yaponiyaning Xitoyga hujum qilishidan 2 hafta oldin Angliya Yaponiya bilan ilgari tuzilgan teng hkqqli bo'lmagan bitimlarni bekor qilib, yangi bitim tuzdi. Bu voqea Angliyani Yaponiyaning siyosatini qo'llab-quvvatlashini ko'rsatar edi.

1894 yil yozida yapon-xitoy urushi boshlanib ketdi. Urush Xitoydagi Tsin sulolasining mamlakatni mudofaa qilish ishlarini tashkil etishga layoqatsizligini va shuning harbiy jihatdan qo'loqligini ko'rsatdi. 1895 yil bahoriga kelib Lyaodun yarimoroli, Veyxayvey yaponlar tomonidan bosib olinib, poytaxt Pekin xavf ostida

qoldi. 1895 yil 17 aprelda Yaponiyaning Simonoseki shahrida sulh shartnomasi tuzildi. Unda: 1) Koreyaning Xitoydan mustaqilligi; 2) Tayvan, Peskador orollarini va Lyaodun yarimorolining Yaponiyaga berilishi; 3) Xitoy tomonidan 300 mln. ien kontributsiya to'lanishi; 4) Xitoyning bir qator portlarini yapon savdosi uchun ochib qo'yish; 5) Veyxayveyning yaponlar tomonidan vaqtincha okkupatsiya qilinishi; 6) xitoyliklar tomonidan qamoqqa olingan yapon josuslarini ozod qilish shartlari qo'yildi. Xitoy hukumati bu shartlarni qabul qilishga majbur bo'ldi. Rossiya, Germaniya va Fransiyaning aralashuvi natijasida Yaponiya Lyaodun yarim orolidan voz kechishga va uning o'rniga qo'shimcha tovon puli olish bilan kifoyalanishga majbur bo'ldi. (60 mln. ien). Shu vaqtdan boshlab Yaponiya Rossiyaga qarshi urushga tayyorlana boshladi.

Bu urush Yaponiyada bir qator sanoat tarmoqlarini rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Bu esa o'z navbatida Yaponiya tashqi savdosining kengayishiga olib keldi.

1901-yilda Yaponiyada hokimiyatga general Katsuraning hukumati keldi. Bu hukumat Rossiyaga qarshi urushga tayyorlanish va urush boshlash vazifasini qo'ydi. Urushning tezlashishida ingliz-yapon ittifoqi muhim rol o'ynadi.

1902-yil 30-yanvarda Londonda ingliz-yapon ittifoqi to'g'risidagi bitim imzolandi. Bu bitim eng avvalo Rossiyaga qarshi qaratilgan edi. Bitimda bu ikki davlatdan birortasiga ikkita davlat hujum qilgudek bo'lsa, ikkinchi davlat o'z ittifoqchisiga harbiy yordam ko'rsatishi belgilab qo'yildi.

1903-yil oxirlarida Yaponiya Bosh shtabi boshlig'i Oyama Yaponiya urushga to'la tayyor ekanligini ma'lum qildi. Matbuotda Rossiyaga qarshi targ'ibot avj olib ketdi.

Ana shunday sharoitda Koreya va Manchuriyadagi ta'sir hududlarini belgilab olish yuzasidan boshlangan rus-yapon muzokaralari barbod bo'lishi oldindan belgilab qo'yilgan edi. Yaponiya hukumati o'zining Peterburgdagi vakiliga ruslarga hech qanday yon bermaslik to'g'risida topshiriq berdi. 1904-yil 6 fevralda Yaponiya muzokaralarni to'xtatib qo'ydi. 2 kundan keyin admiral Togoning eskadrasi urush e'lon qilmasdan Port-Arturdagi rus flotiga hujum qildi. Faqat 1904-yil 10 fevralda Yaponiya Rossiyaga rasmiy ravishda urush e'lon qildi.

Urushning asosiy harbiy operatsiyalari Lyaodun yarim orolida va Mukden qo'ltig'ida bo'lib o'tdi. Rus qo'mondonligining beparvoligi, noshudligi katta yo'qotishlarga olib keldi. 1904-yil 13 aprelda rus flotining flagman kemasi "Petropavlovsk" rus floti qo'mondoni admiral Makarov bilan birgalikda minaga uchrab, halok bo'ldi. Natijada kuchlar nisbati yaponlar foydasiga o'zgardi. 20 aprelda yaponlar Port-Arturni qamal qilishga kirishdilar. Yaponlarning Port-Arturdagi talafoti o'lganlar va yarador bo'lganlar bilan birgalikda 100 ming kishiga etdi. Port-Artur 1905-yil 2 yanvarda yaponlarga topshirildi.

1905-yilning mart oyida rus-yapon urushining quruqlikdagi eng katta jangi Mukden jangi bo'lib o'tdi. Yapon qo'mondonligi rus qo'shinlarini qurshab olish rejasini amalga oshira olmadi. Lekin rus qo'mondonligi yana xatoga yo'l qo'yib, chekinishga buyruq berdi. Natijada rus qo'shinlari Mukden jangida mag'lubiyatga uchradi. 1905-yil 28-mayda Boltiq dengizidan Uzoq Sharqqa tashlangan rus floti

Tsusima yonida tor-mor etildi. Rossiya uchun sharmandali bo'lgan bu urush ana shunday yakunlandi.

Lekin urushda g'alabaga erishgan Yaponiyaning ham ahvoli og'ir edi. Urush oxiriga kelib Yaponiyaning urush xarajatlari 2 mlrd. iendan oshib ketgan edi, urushda o'lgan va yarador bo'lganlar soni 700 ming kishini tashkil qilardi. Yaponiya urushning yangi qurbonlarini, yangi xarajatlarni ko'tara olmas edi. Yaponiyaning hukmron doiralari tezlik bilan sulh tuzishni istar edilar, chunki urushning cho'zilishi Yaponiya uchun halokatli oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin edi.

Yaponiya hukumatining iltimosi bilan AQSH prezidenti Teodor Ruzvelt Yaponiya bilan Rossiya o'rtasidagi sulh muzokaralarida vositachi bo'lish taqlifi bilan chiqdi. 1905-yil avgustda Portsmutda sulh muzokaralari boshlandi.

Yaponiya hukumatining Rossiya oldiga qo'ygan asosiy talabi Saxalinni berish va kontributsiya to'lash talablaridan iborat edi. Yaponiya hukumati ruslar bu shartlarga rozi bo'lmasalar ham sulh bitimini tuzishga tayyor edi. Yapon delegatsiyasining boshlig'i, Yaponiya tashqi ishlar vaziri Komura rus hukumati bu talablarni bajarmasa, muzokaralarni to'xtatib, Portsmutdan ketishini bildirdi. Bundan xabar topgan yapon hukumati telegraf orqali Komuradan ruslarga yon berishni, agar ruslar yuqoridagi talablarga rozi bo'lmasalar ham sulh bitimini imzolashni talab qildi. Lekin AQSH prezidenti Ruzveltning aralashuvi natijasida rus podshosi Nikolay II Saxalin orolining janubiy qismini yaponlarga berishga rozi bo'ldi.

1905-yil 5 sentyabrda Portsmut sulh bitimi imzolandi. U Yaponiyaning Koreya ustidan amaldagi protektoratini o'rnatdi. Bitimga ko'ra Kvantun ijaraga olingan viloyati, Port-Artur va Xitoy Sharqiy Temir Yo'lining (XSHTY) sharqiy tarmog'i Yaponiyaga berildi. Yaponiya Saxalin orolining yarmini qo'lga kiritdi va rus suvlarida baliq ovlash huquqiga ega bo'ldi.

Rus-yapon urushi natijasida Koreya va Manchuriya ustidan Yaponiya hukmronligi o'rnatildi.

1905-yil noyabrda Yaponiya Koreyaning tashqi siyosati ustidan rasmiy ravishda o'z nazoratini o'rnatdi. 1905-yil dekabrda knyaz Ito Yaponiyaning Koreyadagi rezidenti qilib tayinlandi. 1910-yilda Koreya davlati mustaqil davlat sifatida tugatildi.

Urushdan keyin Yaponiya sanoati tez rivojlandi, ayniqsa engil sanoat tez rivojlanib bordi. 1913-yilga kelib sanoat ishchilari 1 million kishiga etdi.

Rus-yapon urushidan keyin Yaponiyaning xalqaro mavqei kuchaydi. Shu bilan birga buyuk davlatlarning Yaponiyaga munosabatida ham o'zgarish yuz berdi. Ayniqsa Angliya va AQSHning Yaponiyaga bo'lgan avvalgi xayrihohlik mavqelari o'zgarib, ular Uzoq Sharqda Rossiyaga nisbatan Yaponiya o'zlari uchun xavfli raqib sifatidagi tushunib etdilar. AQSHda 1907-yilda yapon muhojirlariga nisbatan cheklash siyosatini amalga oshiruvchi qonun loyihasi ishlab chiqilgach, amerika-yapon munosabatlarini yanada murakkablashdi.

Rossiya Uzoq Sharqdagi urushda mag'lubiyatga uchrab, zaiflashgach, xalqaro maydonda Angliya-Germaniya ziddiyatlari birinchi o'ringa chiqdi va Angliyaning mag'lubiyatga yapon ittifoqiga qiziqishi pasaydi. Natijada 1902-yilda tuzilgan va 1905-yilda qayta ko'rib chiqilgan Angliya-Yaponiya ittifoqchilik bitimiga o'zgartirishlar

kiritildi. Bunda agar Yaponiya AQSH bilan urush holatida bo'ladigan bo'lsa, Angliyaning Yaponiyaga harbiy yordamga kelmasligi ko'zda tutilgan edi.

Shu bilan birga Yaponiyaning Rossiya bilan munosabatlari yaxshilanib bordi. 1907-yilda bu ikki davlat o'rtasida bitim tuzilib, unda Manchjuriyadagi ta'sir hududlarini taqsimlab olishga erishildi. 1910, 1912-yillarda tuzilgan rus-yapon bitimlarida bu ikki davlatning Uzoq Sharqdagi ta'sir zonalari va bir-birlarining oldidagi majburiyatlari belgilab olindi.

Birinchi jahon urushi Yaponiyaga o'ziga xos ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtga kelib Yaponiyaning AQSH va Angliya bilan bo'lgan munosabatlari ancha yomonlashgan edi. Lekin Yaponiya Angliya bilan bo'lgan ittifoqchilik aloqalarini uzishga va Germaniya tomoniga o'tishga cho'chirdi. Chunki Yaponiya harbiy nuqtai nazardan Germaniyaning o'zidan ancha uzoqdaligi sababli Antanta davlatlariga dushman bo'lishni hohlamasdi. Aksincha Germaniyaning Uzoq Sharqdagi qo'shinining kamligi va kuchsizligini hisobga olib, Yaponiya o'zini Angliyaga hayrihoh qilib ko'rsatishga va nemislarning Tinch okeanidagi qo'shinlariga qarshi urush ochishga harakat qildi.

Yaponiya, 1914 yil 15 avgustda Germaniya oldiga ultimatum qo'yib, Germaniyaning Shandundagi ijaraga olingan Szyaochjou hududini o'ziga berilishini talab qildi. bu ultimatumga javob ololmagach, Yaponiya 1914 yil 23 avgustda rasmiy ravishda Germaniyaga urush e'lon qildi.

Yaponlar 1914 yil 2 sentyabrda Shandunga uncha katta bo'lmagan ekspeditsion qo'shin yubordilar. Yaponlar, Sindaoni qamal qilib, 7 noyabrda bu qal'ani qo'lga kiritdilar. Shu bilan birga, yaponlar Tinch okeanidagi bir qator orollarni ham bosib oldilar. Sindaoning bosib olinishi bilan amalda Yaponiya qurolli kuchlarining birinchi jahon urushidagi ishtiroki tugadi.

Yaponiya birinchi jahon urushida o'lgan va yarador bo'lganlarni hisobga olganda 2 ming kishi yo'qotdi, bu urushda ishtirok etgan boshqa mamlakatlarga nisbatan juda kam edi.

Yaponiya Tsindaoni bosib olgach, Xitoyni asoratga solishga harakat qildi. Yapon hukumati 1915 yil 18 yanvarda Xitoyni siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan bo'ysundirishni o'z ichiga olgan "21 talab" deb atalgan dastumi ilgari surdi.

"21 talab" dasturi 5 guruhdan tashkil topgan edi. Birinchi guruh talablari Yaponiyaning Shandun ustidan hukmronligini mustahkamlashi kerak edi. Ikkinchi guruh Shimoli-Sharqiy Xitoy va Ichki Mo'g'ulistonga tegishli edi. Yaponiya Port-Artur va Dalniyni, Janubiy Manchjuriya temir yo'li va Andun-Mukden temir yo'llarini asr oxirigacha ijaraga berilishini, erlarni ijaraga olishda, savdo va sanoat ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanishda, konlardan foydalanishda alohida imtiyozlar berilishini talab qildi. Uchinchi guruhda yaponlar o'sha vaqtda Xitoyda yagona bo'lgan Xanepin metallurgiya kombinatini yapon-xitoy qo'shma korxonasiga aylantirilishini va bu bilan Xitoy milliy sanoatining asosiy bazalaridan birini yaponlar qo'lga o'tishini ko'zlagan edilar. To'rtinchi guruh Xitoy qirg'og'idagi orollarni va gavanlarni uchinchi bir davlatga ijaraga bermaslik talabini ilgari surgan edi. Beshinchi guruh talablari juda og'ir bo'lib, u Xitoy hukumati tarkibiga yaponlarning siyosiy, moliyaviy va harbiy maslahatchilarini kiritilishini, bir qator hududlarda

yapon-xitoy qo'shma politsiyasini tashkil qilishni, yapon-xitoy harbiy qo'shma zavodlarini qurishni, Xitoy tomondan 50 foizdan kam bo'lmagan miqdorda yapon qurol-yarog'larini sotib olishni belgilab qo'ygan edi.

Yapon hukmron doiralari Xitoyda yaponlarga qarshi ommaviy harakatining kuchayib borishi va Rossiya, Angliya hamda AQSHning beshinchi guruh talablariga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganligini hisobga olib, uning katta qismidan voz kechishga majbur bo'ldi va uni "istaklar" deb e'lon qildi. 1915 yil 9 mayda Yuan Shikay yaponlarning 4 guruh talablari qabul qilinganligini e'lon qildi.

Birinchi jahon urushi Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yaponiya qulay vaziyatdan foydalanib Tinch okeani havzasi bozorlarida mustahkam o'rnatib oldi. Yaponiya birinchi marta tashqi savdoda katta ijobiy nisbatga ega bo'ldi. Urush yillarida sanoatga qo'yilgan sarmoya ikki baravardan ko'proq o'sdi.

Urush yillarida yapon og'ir sanoati, birinchi navbatda kemasozlik juda tez rivojlandi. Kemasozlikning rivojlanishi sanoatning boshqa tarmoqlarining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida mashinasozlik, elektr sanoati, ximiya sanoati va boshqa bir qator tarmoqlar sezilarli darajada rivojlandi.

Yapon sanoat korxonalarining dividendlari misli ko'rilmagan darajada o'sib, 70 va hatto 120 foizni tashkil etdi. Yaponiyaning oltin zahiralari ham ko'payib, 2 mlrd ienga etdi.

Urush Yaponiyani sarmoya chiqaruvchi davlatga aylantirdi. Xitoyga chiqarilgan 600 mln. iening 220 millioni urush davrida kiritilgan edi.

2 mavzu. Xitoy XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

XVII asrning 30-40-yillarida Xitoy davlati chuqur tushkunlikni boshdan kechirmokda edi. Soliqlarning ko'payishi dexqonlarning ersizlanishi, savdo-sudxo'rlik asoratining kuchayishi, amaldorlarning sotqinligi Xitoy tarixida uzoq davom etgan 1628-1644-yillardagi qo'zg'olonni keltirib chiqardi.

40-yillar boshida qo'zg'olon yangidan yuksala boshladi. Qo'zg'olonida 2 ta markaz bo'lib, biri Xubey va Shensi viloyatlarida joylashgan bo'lsa, ikkinchisi Sichuan viloyatida joylashgan edi. Birinchi guruhdagi qo'zg'olonchilarga qishloqdagi dehqon oilasidan chiqqan sobiq cho'pon va pochta kureri Li Szichen (1606-1645), ikkinchi guruhga esa sobiq askar Chjan Syanchjun (1606-1647) boshchilik qilardi.

Qo'zg'olonchilar o'zlarining doimiy qurolli kuchlariga, hokimyat boshqaruv organlariga ega edilar. Ularning asosiy talablari hukmron Min sulolasini ag'darib tashlash, og'ir soliq zulmini yo'q qilishdan iborat edi.

1644-yil 25 aprelda Li Szichen boshliq dehqonlar armiyasi mamlakat poytaxti Pekinni egalladi. Imperator Chju Yu-Szyan o'z joniga qasd qilib, halok bo'ldi. Li Szichen imperator deb e'lon qilindi. Minlar sulolasining hukmronligi tugatildi.

Qo'zg'olonchilar Pekinni egallaganidan keyin mamlakatda tinchlik o'rnatishga harakat qildilar. Qamoqlardagi mahbuslar ozod qilindi, o'z

shafqatsizliklari bilan nom chiqargan sobiq amaldorlar sud qilindi. Shu bilan birga Li Szichen boshliq yangi sulola bir qator qiyinchiliklarga duch keldi. Qo'shin va davlat apparatini saqlash uchun mablag' kerak edi, bu mablag'ni esa faqat aholidan soliq olish yo'li bilan topish mumkin edi. Shuning uchun ham yangi hokimiyat yaqindagina bekor qilingan soliq va majburiyatlarni qayta tiklaganligini e'lon qilishga majbur bo'ldi. Bu esa hokimiyatni mustahkamligini xavf ostiga qo'ydi va aholiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yana bir katta xavf Xitoyga shimoldagi Manjurlar armiyasi tomonidan paydo bo'lgan edi. Xitoyning shimolida yashovchi manjur qabilalari birlashib, XVII asr boshlarida Nurxatsi boshchiligida o'z davlatini tuzdilar. Nurxatsining o'g'li va vorisi Abaxayxon hukmronligi davrida Tsin (sof, yorqin (chistoe,svetloe)) davlati tuzilganligi e'lon qilindi.

Manjurlar davlati armiyasi otliklardan tashkil topgan bo'lib, u 8 ta bayroqqa (armiyaga) birlashgan edi, shuning uchun ham «8 bayroqli armiya» nomini olgan edi. Xitoyga hujum qilish arafasida manjurlar armiyasida 200 mingga yaqin askar bor edi.

Xitoydagi Min sulolasining harbiy qo'mondonlaridan biri U Sanguy qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda manjurlardan yordam so'rashga, keyinchalik esa mamlakatda o'z hukmronligini o'rnatishga intiladi. Shu maqsadda u 1644 yil bahorida manjur qo'shinlari bilan birgalikda Xitoyni bosib olishga kirishadi, bu bosqinchilik deyarli 40 yil davom etib, 1683 yilda yakunlanadi. 1644 yil may oyida Buyuk Xitoy devori (Shanxayguan) yonida Li Szichen qo'shinlari bilan manjurlar va U Sanguy qo'shinlari o'rtasida katta jang bo'ladi. Qo'zg'olonchilar armiyasi mag'lubiyatga uchrab, Pekinni tashlab ketishga majbur bo'ladilar. Manjurlar Pekinga kirgach, Abaxayxonning o'g'illaridan birini Xitoyning hukmdori deb e'lon qildilar. Shu vaqtdan boshlab Xitoyda 267 yil davom etgan manjurlarning Tsin sulolasining hukmronligi boshlandi (1644-1911).

Manjurlar bilan bo'lgan keyingi janglarda qo'zg'olon rahbarlari Li Szichen (1645) va Chjan Syanchjun (1647) halok bo'ladi. Lekin ularning qo'shinlari tarqalib ketmadi. Yangi rahbarlar etishib chiqdi. Manjurlar Shimoliy Xitoyni egallaganidan keyin Xitoyning markaziy va janubiy viloyatlarida keng xalq ommasining juda qattiq qarshiligiga duch keldilar. 1645 yil bahorida Yanchjou shahri uchun juda qattiq janglar bo'ldi. Yuz kun davomida askarlar va shahar aholisi bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Manjurlar shaharni qo'lga kiritgach, 10 kun davomida uni taladilar va 800 mingdan ortiq odamni qirib tashladilar.

Manjurlar Yanchjouni vayron qilgach, Pekindan keyin Xitoyning ikkinchi siyosiy markazi bo'lgan Nankinga qarab yurdilar. Nankin mudofaasiga rahbarlik qilayotgan amaldorlar shaharda ko'p sonli askarlar borligiga qaramay dushmanga jangsiz taslim bo'lib, shaharni topshirdilar.

Manjurlarga qarshi kurash olib borayotgan kuchlarning yagona rejasi, rahbarligi yo'qligi, bu kuchlar o'rtasidagi ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar ularni mag'lubiyatga olib keldi. Natijada 1647 yilga kelib manjurlarning Xitoyni bosib olishining birinchi bosqichi yakunlandi. 1644-1647-yillar davomida Tsin qo'shinlari shimoliy va markaziy Xitoyni, shuningdek janubiy Xitoyning asosiy hududlarini egallab oldilar. Lekin ular bosib olingan hududlarda mustahkam o'rnatish qola olmadilar. 1648 yildan boshlab ko'pchilik viloyatlarda qurolli qo'zg'olonlar

boshlanib ketdi. Bu qo'zg'olonlarni bostirish 1650 yilgacha davom etdi va bu davrni manjurlarning Xitoyni bosib olishining 2-davri deb hisoblash mumkin.

Xitoyning bir qator asosiy hududlarida manjurlar hukmronligi qayta tiklangach ham qarshilik ko'rsatish harakati to'xtamadi. Li Dingo boshliq dehqonlar otryadi 1662 yilgacha kurash olib bordi.

Janubiy-sharqiy Xitoyda savdogar oilasidan chiqqan Chjen Chengun kuchli flot tashkil qilib, 50-yillar davomida manjurlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Manjurlar unga qarshi kurashish uchun kuchli flot tashkil qildilar va sohil bo'yida yashovchi aholini qit'a ichkarisiga ko'chirib yuborib, Chjen Chengunni aholi madadidan mahrum qildilar. Yuzaga kelgan bunday holatda Chjen o'z qo'shinini kemalarga yuklab, ilgari gollandlar tomonidan egallab olingan Tayvanga jo'nab ketishga majbur bo'ladi. 1662 yilda Chjen Chengun gollandlarni Tayvandan haydab chiqarib, bu erda manjurlarga qarshi kurashayotgan davlat tashkil qildi. Bu voqeani manjurlar tomonidan Xitoyni bo'ysundirishining 3-bosqichining yakuni deb hisoblash mumkin (1650-1662).

Chjen Chengun tomonidan Tayvanda tashkil qilingan davlat, harbiy-siyosiy jihatdan kuchli davlat bo'lib, 1683 yilgacha faoliyat ko'rsatdi.

Chjen hukmronligi davrida orol iqtisodiyotini ko'tarishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi, yangi erlarni o'zlashtirish, baliqchilik va boshqa sohalarni rivojlantirish rag'batlantirildi.

Bir vaqtlar o'z vataniga xoinlik qilib, manjurlarga Xitoyni bosib olishga yordam bergan xitoylik harbiy sarkardalarning qo'zg'oloni manjurlarga qarshi kurashni yangidan boshlashga so'nggi urinish bo'ldi. Bu qo'zg'olon tepasida Xitoyning janubiy hududlarida o'z hokimiyatini o'rnatishga qaror qilgan U Sanguy turardi. Bu kurash 1681 yilgacha davom etib qo'zg'olonchilarning mag'lubiyati bilan yakunlandi.

Shu vaqtdan boshlab manjurlarga qarshi kurashning asosiy tayanchi Tayvan bo'lib qoldi. Manjurlar tomonidan barcha qo'zg'olonlar bostirilgach, Tayvanda hokimiyat tepasiga kelgan xitoyliklar guruhi Tsin hukumatiga taslim bo'lishga qaror qilishdi. Orolga manjur qo'shinlari kiritildi va bu bilan Xitoyni bosib olishning oxirgi, 4-bosqichi yakunlandi (1662-1683).

XVII asr o'rtalarida mamlakat ichkarisida ichki nizolar va o'nyilliklar davom etgan xalq qo'zg'olonlari natijasida Min hokimiyatining kuchsizlanib qolishi Xitoyning mag'lubiyatga uchrashining asosiy sababi edi. Manjurlarga qarshi kurashda Xitoy yagona kuch bo'lib birlasha olmadi, Xitoy hukmron doiralari vakillarining bir qismi esa xoinlik yo'liga o'tib, bosqinchilarni qo'llab-quvvatladi. Manjur hukmdorlarining Xitoyda olib borgan ustamonlik siyosatini ham mag'lubiyat sabablaridan biri deb hisoblash bo'ladi. Shimoliy Xitoyda ular tomonidan erlarni musodara qilish mahalliy aholi tomonidan qattiq qarshilikka uchragach, ular agrar munosabatlarga uncha aralashmadilar va avvalgi er egalarning huquqlarini tan oldilar. Qo'riq va egallanmagan erlarni ekish rag'batlantirildi, Tsin saroyi Minlar tomonidan joriy qilingan ba'zi bir eng og'ir soliq va majburiyatlarni bekor qildi. Bu tadbirlar yangi hokimiyat bilan mamlakat aholisi o'rtasidagi ziddiyatlarni uncha yumshatdi.

Tsin Xitoyi siyosiy tizimida mustabid hukmdor (bog'dixon) cheklanmagan hokimiyatga ega edi. Xitoy an'analariga ko'ra u osmon farzandi bo'lib, osmon bilan odamlar o'rtasida turuvchi muqaddas shaxs hisoblanardi.

Bog'dixonlar qonunchilik hokimiyatini 2 ta maslahat muassasi: imperator kotibiyati va harbiy kengashga asoslanib amalga oshirardi. Kotibiyat manjurlar va xitoylik maslahatchilarning teng sonidan tashkil topgan edi. Harbiy kengashda esa manjurlar ko'pchilik edi. Shu yo'l bilan Xitoyni bosib olish vaqtida 700 ming kishidan iborat bo'lgan manjurlar XVII asrning 2-yarmida 150 million aholi ustidan o'z hukmronligini o'rnatdilar. Manjurlar hokimiyati 6 ta boshqaruv idoralari yordamida amalga oshardi, bularga amaldorlar idorasi, soliqlar, marosimlar (seremoniya), sud, harbiy ish va jamoatchilik ishlari idoralari kirardi.

Mamlakat ma'muriy jihatdan 18 ta provinsiyaga bo'lingan bo'lib, ularni gubernatorlar boshqarardi. Ba'zan bir necha provinsiya hokimlikka birlashib, unga hokim rahbarlik qilardi. Har bir provinsiya 10 ta viloyatga bo'linib, 180 ta viloyat tashkil qilingan edi. Viloyatlar o'z navbatida uezdlarga bo'linib, XVIII asrda ularning soni 1,5 mingga etgan edi. Uezdlar katta-kichikligiga qarab, uning ma'muriyati 200 kishidan 2000 kishigacha etardi. Qishloq joylarida har 10 hovli (xo'jalik) jamoaga birlashgan bo'lib, ular bir-biri uchun javobgar edilar va unga oqsoqol rahbarlik qilardi. XVIII asr oxiriga kelib deyarli 300 mln. aholiga ega bo'lgan Tsin davlatini 27 ming amaldor, shu jumladan 20 ming fuqaro va 7 ming harbiy amaldor boshqarardi. Olimlik darajasini olish, shu jumladan amaldor bo'lish uchun Xitoy aholisi 3 bosqichli imtihondan (uezd, provinsiya va poytaxt) o'tishi kerak edi. Tsin sulolasi davrida ana shunday birinchi imtihon 1679 yilda bo'lib o'tdi.

Xitoyda davlat boshqaruvining asosiy me'yorlari qonunlar to'plami yordamida belgilanar edi, lekin bu qonunlar amaldorlarning o'zboshimchaligini va sotqinligini bartaraf qila olmas edi.

Tsin jamiyatining ijtimoiy tarkibi o'zidan oldingi davrlarga nisbatan uncha o'zgarmadi. Faqat bu erda aholining manjurlardan iborat yangi imtiyozli qatlami tashkil topdi. Aholining teng huquqli guruhiga shenshilar (amaldorlik va olimlik darajasi uchun imtihon topshirganlar), er egalari (nunlar), hunarmandlar (chunlar), savdogarlar (shanlar) kirardi.

Manjurlarning Tsin sulolasi Xitoyi o'ziga bo'ysundirgach, Xitoyga qo'shni bo'lgan davlatlarni bosib olishga kirishdi. Ular Koreya va sharqiy Mo'g'ulistonga o'z ta'sirlarini o'tkazdilar.

1691 yilda Xalxe (Shimoliy Mo'g'uliston) Tsin davlati tarkibiga qo'shib olindi. Jung'orlar davlati 1755 yilda o'z mustaqilligini yo'qotib, Tsin davlatiga bo'ysundi. 1757-1759 yillardagi urushdan keyin Qashg'or (SHarkiy Turkiston) ham mag'lubiyatga uchradi. Qashg'or bilan Jung'oriya yangi provinsiya sifatida Tsin hokimiyatiga qo'shib olindi va Sintszyan («Yangi chegar») deb ataldi.

1750 yildan Tibet ham Xitoyga qaram bo'ldi.

1768 yilda Tsin hukmdorlarining Hindi-Xitoyga qilgan yurishlari muvaffaqiyatsiz chikdi. Shu yili xitoyliklar Birmada qattiq mag'lubiyatga uchradilar. Birma faqat nomigagina Xitoyning syuzerenitetini tan oldi.

1788-1789 yillarda Xitoy Vetnamga qarshi yurish qilib, qisqa vaqtga uni

egallab turdi, lekin keyinchalik mag'lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo'ldi.

XVIII asrda olib borilgan bosqinchilik siyosati va urushlar natijasida Tsin davlatining hududi ancha kengaydi. Lekin shu bilan birga bu urushlar mamlakat xazinasi bo'shab qolishiga, iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keldi.

Tsin xukumati dastlabki davrda xitoy xalqining chiqishlarini bostirishda G'arb davlatlari yordam beradi degan fikr bilan evropalik missionerlarning Xitoyga kirib kelishlariga hayrixoxlik bilan qaradilar. Tsin hukumati chet el kemalarining Guanchjou (Kanton), Syamen, Ninbo, Dinxay portlariga kirishga va u erda savdo qilishlariga ruxsat berdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan portugal, fransuz va ingliz savdogarlari Pekinga kirib kela boshladilar. Xitoyga ko'plab xristian missionerlari kelib, xristianlikni targ'ib qila boshladilar. Imperator Kansi hukmronligi davrida ular imperator saroyiga ham o'z ta'sirlarini o'tkazgan edilar. Bir qancha missionerlar imperator maslahatchisiga aylanib, ularga diplomatik topshiriqlar yuklatilgan edi.

Chet ellik missionerlarning faoliyati xalq ommasi noroziligini kuchaytirdi. Ikkinchi tomondan hukmron doiralarda ichida ham uzoq Evropadan kelishi mumkin bo'lgan mavhum, noma'lum xavf-xatarlar ham qo'rquvni yuzaga keltirayotgan edi. Manjurlar o'z hokimiyatlarini mustahkamlab olishgach, ularning evropaliklarga bo'lgan munosabatlari o'zgardi. Manjurlar 1716 yilda chet elliklarning Xitoyga kirib kelishini cheklavchi dastlabki tadbirlarni amalga oshirdilar. Imperator Yunchjen 1724 yilda 300 ta xristian cherkovini yopish haqida farmon chiqardi va deyarli barcha xristian missionerlari Portugaliyaning Makao mustamlakasiga chiqarib yuborildi. 1757 yilda imperator Syanlun Kantondan (Guanchjou) tashqari barcha portlarda chet elliklarning savdo qilishini taqiqlab qo'ydi. Evropaliklarning faktoriyalari yo'q qilindi va chet elliklarning Xitoyga kelishi taqiqlandi.

Shu davrdan boshlab Tsin hukumati Xitoyi G'arbdan yakkalab qo'yish siyosatini olib bora boshladi. Evropaliklarga Xitoyga kelish ta'qiqlandi. Ularning kemalariga faqat Guanchjouga kelishga ruxsat qilindi, bu erda ular hokimiyat vakillari nazorati ostida faqat "Gunxan" (Evropa adabiyotlarida "Koxong") kompaniyasi bilan savdo qilishlari mumkin edi. Ularning Guanchjouda mahalliy aholi bilan muloqotda bo'lishlari taqiqlandi. Xitoy hukumati tomonidan maxsus ajratilgan savdogarlar ularni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlardilar, portugallar bu savdogarlarni kompradorlar deb ataganlar.

Tsin hukumati mamlakatni yopib qo'yish siyosati ular hukmronligini mustahkamlaydi deb o'ylandi. Xitoy hukmdorlari Evropa davlatlari umuman Xitoy yegindidagi boshqa davlatlarning taraqqiyoti haqida ham juda yuzaki tasavvurga ega edilar.

Xitoy bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro munosabatlar manjurlar bosqinidan shun o'ralgan edi. Min sulolasining imperatorlaridan biri rus savdogarlariga o'z mulklar bilan Xitoyga kelishiga ruxsat qilgan edi.

XVII asrda rus sayyohlari Tinch okeani sohillariga etib borishgach, rus hukumati Xitoy bilan doimiy siyosiy va iqtisodiy munosabatlar o'rnatishga harakat qildi. 1684 yilda F.I.Baykov boshchiligidagi rus elchilari Pekinga bordilar. Bir

qancha vaqtdan keyin yana yangi elchilar yuborildi, ular orasida 1675-1676 yillarda Nikolay Spafariy boshchiligidagi elchilik missiyasi ancha muvaffaqiyatlarga erishdi.

Lekin tsinlarning rus davlatining Uzoq Sharqdagi mulklariga qarshi qaratilgan siyosati bu ikki davlat o'rtasida iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatilishini qiyinlashtirdi. Manjurlar bir necha marta Albazin voevodligiga hujum qilishib, Albazin qal'asini qamal qildilar va buzib tashladilar. Lekin kazaklar manjurlar hujumini qaytarib, qal'ani qayta tikladilar. Albazinni navbatdagi qamal qilinishi davrida imperator Kansi 1686 yilda rus hukumatiga ikki davlat mulklari chegaralarini belgilash bo'yicha muzokaralar boshlashni taklif etdi.

1689 yilda Nerchinskda boshlangan rus-xitoy muzokaralari Rossiya uchun noqulay vaziyatda o'tdi. 17 ming kishilik manjur qo'shini shaharni o'rab oldi va hujum qilish bilan tahdid soldi. Nerchinsk shartnomasiga ko'ra rus hukumati Amur bo'yining bir qismini – Albazin voevodaligini Xitoyga berishga majbur bo'ldi. Tsin hukumati Albazin hududiga aholi ko'chirib keltirmaslik va bu erda harbiy istehkomlar qurmaslikga va'da berdi. Shartnoma ikki davlat o'rtasida muntazam savdo aloqalari o'rnatilishini ko'zda tutardi.

Pyotr I rus-xitoy munosabatlarini yaxshilash va kengaytirishga harakat qildi. 1715 yilda Pekinda rus diniy missiyasi tashkil etildi, u Rossiyada Xitoy to'g'risidagi ilmiy bilimlarning yoyilishiga yordam berdi.

Tsinlar tomonidan Shimoliy Mo'g'ulistonning bosib olinishi bu hududda Rossiya va Xitoy mulklari chegaralarini belgilash masalasini keltirib chiqardi. Shu maqsadda 1728 yilda tuzilgan Kyaxta bitimiga ko'ra bir qator hududlar yana Xitoyga o'tdi. Bu shartnomada ham rus-xitoy savdosini rivojlantirish to'g'risidagi moddalar bor edi. 200 nafar rus savdogarlariga Pekinga borish va u erda savdo faktoriyalari qurishga ruxsat berildi. Xitoy tilini o'rganish maqsadida 6 nafar o'quvchi Xitoyga yuborildi. 1731 yilda Xitoy elchilari Moskvaga keldilar.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Xitoy dehqonlari va mazlum xalqlarning bir qator qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi.

1786 yilda Tayvanda "Triada" maxfiy tashkiloti rahbarligida katta qo'zg'olon bo'lib o'tdi. 1796 yilda "Oq nilufar" tashkiloti boshchiligidagi Shimoliy Xitoyda yanada kattaroq qo'zg'olon boshlanib, bir necha yilga cho'zildi. Bog'dixon armiyasi bu qo'zg'olonni faqat 1802 yilga kelib bostira oldi. Shu yillarda Janubi-G'arbiy Xitoyda yashovchi xalqlarning ham bir qancha yirik qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. 1813 yilda Shimoliy Xitoyni manjurlarga qarshi qaratilgan yirik qo'zg'olon qamrab oldi.

Bu qo'zg'olonlar mahalliy tavsifga ega bo'lib, yomon tashkil etilgan edi va mag'lubiyat bilan tugardi.

XIX asr boshiga kelib Xitoy chuqur inqirozni boshdan kechirayotgan edi. Xalq ommasining noroziligi to'xtovsiz o'sib bormoqda edi. Dehqonlarning kurashi Tsin tartiboti asoslarini xavf ostiga qo'yimoqda edi.

Lekin evropaliklarning kirib kelishi Xitoy jamiyatining tabiiy taraqqiyotini buzib yubordi.

Angliyaning xukmron doiralari Hindistonni mustamlakaga aylantirish jarayonini yakunlash arafasida Xitoyni ham mustamlakaga aylantirish masalasini

ilgari surdilar. Ular Xitoyni o'z-o'zini yakkalash siyosatini bekor qilish, Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatish va u bilan cheklanmagan savdo-sotiq olib borishga intildilar. Inglizlar qanday qilib bo'lsada Xitoyni "ochish" -ga intildilar.

Angliya hukumati, Xitoy hukumatiga tazyiq o'tkazish maqsadida, 1793 yilda bir necha harbiy kemalardan iborat maxsus missiyani Xitoyga yubordi. Angliya o'zining harbiy va sanoat qudratini namoyish etish uchun Xitoy imperatoriga zamonaviy qurol-yarog'lar va turli xil mexanizmlarning namunalari yubordi. Ingliz missiyasiga lord Makartney rahbarlik qilardi.

Makartney Xitoy imperatoridan ingliz savdogarlarini Xitoy portlarida savdo qilishlari va Pekinda ingliz savdo omborlarini qurishlari, Xitoyning biror orolini Angliya bazasi qurish uchun so'rab olishi, ingliz mollariga bojlarni kamaytirilishiga erishishi, Xitoy bilan Angliya hukumatlari o'rtasida bevosita diplomatik aloqalar o'rnatish masalalarini hal qilishi kerak edi. Lekin bu dastur o'sha paytda amalga oshmadi. Xitoyliklar inglizlar missiyasini tantanali suratda kutib oldi, lekin ular inglizlar missiyasini Xitoyning vassal davlatlari diplomatik missiyalari bilan bir qatorda ko'rishlarini ta'kidlab o'tdilar. Xitoy hukumati inglizlar kemalariga "Angliya mamlakatidan sovg'a olib keluvchilar" deb yozilgan bayroqlarni osib qo'ydi. Inglizlar missiyasi Xitoyga kelganidan keyin bir necha kun o'tib Xitoy tomoni Makartneyni vassal davlatlar elchilari poytaxtda faqat bir necha kun turishlari mumkinligi, ular o'z sovg'a-salomlari va tabriklarini topshirishgach, o'z uylariga ketishlari kerakligi haqida ogohlantirishdi. Angliya missiyasi jo'nab ketishidan oldin bog'dixon Syanlun Makartneyga Angliya qiroli Georg III nomiga yozilgan rasmiy farmonni topshirdi. Unda Xitoy hukmdorlari Angliya bilan bo'ladigan aloqalarni kengaytirish taklifini qat'iy rad etib, chet elliklarning Xitoyga kelishiga ruxsat bermadilar.

Inglizlar bu davrda dunyoda ustivorlik qilish uchun Fransiyaga qarshi kurash olib borayotgan va Hindiston xalqlariga qarshi urushlari bilan band bo'lib, Xitoyga qarshi harbiy kuch ishlatishdan o'zlarini tiydilar, lekin Xitoyni "ochish" uchun harakatni to'xtatmadilar. XIX asr boshlarida inglizlar bir vaqtlar portugallar bosib olgan Xitoyning Aomen (Makao) portini bosib olishga uch marotaba harakat qildilar. 1816 yilda Angliya hukumatining yangi favqulodda vakili Amxerst ilgari Makartney missiyasiga yuklatilgan vazifalar bilan yana Xitoyga yuborildi, lekin bu missiya faoliyati ham natijasiz tugadi.

Inglizlar Hindistonda afyun etishtiruvchi Bengaliyani bosib olgach, Ost-Indiya kompaniyasi ingliz hukumatidan 1773 yilda afyun savdosiga monopoli huquqini oldi va afyuni Xitoyga keltirib sota boshladi. Shu vaqtdan boshlab Hindistondan afyun olib kelish Xitoy xalqini talash va zaharlash vositasiga aylandi.

Bengal dehqonlari majburiy ravishda etishtiradigan afyun savdosi juda daromadli ish edi. Xitoyga afyun sotishdan keladigan daromad Angliya hukumatining Hindistondagi jami daromadining 7/1 qismini tashkil qilardi. Xitoyga keltirilayotgan afyun miqdorining yildan yilga ko'payib borishi bu erdan katta miqdordagi kumush pullarning tashib ketilishiga olib keldi.

XIX asrning 20-yillaridan Xitoyga afyun olib kelish keskin o'sdi. Agar 1815-1819 yillar davomida har yili o'rtacha 4420 quti afyun olib kelingan bo'lsa, (1 qutida

taxminan 60 kg afyun bo'lgan), 1835-1838 yillarda har yili 35445 qutidan olib kelingan. Britaniya Hindistonining afyun savdosidan olgan daromadi 66 yil davomida (1773-1839) 70 marta o'sdi va 1835-1839 yillarda o'rtacha yillik summasi 5,2 mln kumush lyanni (kumush lyan=37,301 gr. kumush) tashkil etdi, ya'ni 200 ming kg. kumushga teng bo'ldi. 1795-1838 yillar davomida Xitoyga 450 ming qutidan ko'proq yoki 27 mln kg. afyun keltirildi.

Xitoyda 1800 yilda afyun bilan savdo qilish rasmiy jihatdan ta'qiqlangan bo'lsa ham, ingliz va amerikalik savdogarlar davlat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, afyun bilan kontrabanda savdosini avj oldirib yuborgan edilar.

Lekin davlat amaldorlari ichida imperatordan afyunni istemol qilish va u bilan savdo qilishni ta'qiqlashni talab qiluvchi guruhlar ham bor edi. Shunday guruhlardan birining rahbari Lin Tszesyuy edi. U 1838 yilda afyun bilan savdo qilishning asosiy markazi Guanchjouga (Guandun provinsiyasi) saroy vakili qilib yuborildi. U bu erda bir qator qat'iy tadbirlarni amalga oshirdi (chet elliklar bilan savdo qilishni ta'qiqlash va ingliz savdogarlarining faktoriyalarini qamal qilish) hamda ingliz va amerikalik savdogarlardan 20 ming quti afyunni tortib olib, yo'q qilib tashladi.

Lin Tszesyuyning qat'iy harakatlarini Guandun aholisi qo'llab-quvvatladi. Boshqa provinsiyalarda ham afyunni ta'qiqlash uchun harakat kuchaydi. Angliya hukumati bu voqeadan Xitoyga qarshi urush boshlash uchun foydalandi. 1839 yil noyabrda dengizda to'qnashuvlar bo'lib o'tdi, inglizlarning harbiy kemalari Xitoy kemalariga hujum qildilar.

Lin Tszesyuy hukmron doiralarning boshqa vakillaridan farq qilgan holda chet ellik bosqinchilarga jiddiy qarshilik ko'rsatishga tayyorlanish kerakligini tushunardi. U baliqchilar, dengizchilar, hunarmandlar, dehqonlardan bosqinchilarga qarshi quruqlikda va dengizda kurash olib borish uchun ko'ngillilar otryadlarini tuzdi. 1839 yil kuzida ingliz dengizchilari bilan bilan bir qator to'qnashuvlarda bu otryadlar bosqinchilarga muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsata olishi ma'lum bo'ldi. Lekin hukmron doiralar Lin Tszesyuyini qo'llab-quvvatlamadilar. Imperator uning ko'plab buyruqlarini bekor qildi. Hukmron doiralardagi taslimchilar inglizlar bilan til birlashtirishga intildilar.

Angliya gazetlari Xitoy hukumatining kontrabanda savdosiga qarshi qaratilgan qonuniy kurashini Britaniya fuqarolari ustidan qilingan zo'ravonlik deb e'lon qildilar va xitoyliklarni qattiq jazolashga chaqirdilar, keyin esa Angliya hukumati Xitoy hukumatiga yo'q qilingan afyun uchun tovon to'lash, ingliz fuqarolarini "xo'rlangani" uchun kechirim so'rash, kelgusida Xitoydagi ingliz fuqarolariga hurmat bilan qarash to'g'risida kafolat berish, Janubiy Xitoydagi orollardan birini baza qurish uchun Angliyaga abadiy berish kabi talablarni qo'ydi.

Angliya hukumati urush olib bormasdan turib bu talablarni bajartirish mumkin emasligini bilardi. 1840 yil iyunida inglizlarning bir necha o'n kemandan iborat harbiy eskadrasi Xitoy suvlariga kirib keldi. Kemalarning bir qismi Guanchjouni qamal qildi, bir qismi esa Yantszi daryosi bo'ylab yuqoriga qarab suzib ketdi. Iyul oyida ingliz desanti Shanxaydan uncha uzoqda bo'lmagan Chjoushan orolini egallab, tinch aholini talay boshladi. Shu tariqa ingliz mustamlakachilari urush e'lon qilmasdan turib birinchi ingliz-xitoy urushini yoki birinchi "afyun" urushini

boshlab yubordilar. Urushda ishtirok etmagan Fransiya va AQSH ham Angliyani qo'llab-quvvatladi. AQSH ham o'z harbiy eskadrasini Xitoy suvlariga yubordi.

Angliya kemalari Guanchjou va Syamenni qamal qildilar. Ingliz desantchilari Chjoushan orolidagi Dinxay shahrini qo'lga kiritdilar. Shundan keyin Lin Tszesyuy vazifasidan olinib, Sintszyanga surgun qilindi, Guanchjouga esa inglizlarga taslim bo'lish tarafdori bo'lgan Tsi Shan yuborildi. U Angliya talablarini qabul qilinishini bildirdi, lekin bog'dixon shartnomani tasdiqlamadi, Tsi Shan qamoqqa olinib, mol-mulki musodera qilindi. Ingliz hukumati ham ko'rsatilgan yon berishlarga rozi bo'lmay Xitoyga yana yangi qo'shinlarni olib keldi.

Urush harakatlari yangidan boshlangach, 1841 yilda ingliz qo'shinlari Guanchjou tevarak atrofini bosib oldilar, keyinchalik Syamen va Ninboni bosib oldilar. 1842 yil iyulda inglizlar Usun va Shanxayni egalladilar. Keyinchalik Yantszi orqali suzib borib, qattiq janglardan so'ng Chjenszyanni egallab, Janubiy viloyatlarni poytaxt bilan bog'lovchi yo'lni kesib qo'yidilar. Tsin hukumati taslim bo'ldi.

Xitoy mag'lubiyatining asosiy sababi uning harbiy va iqtisodiy jihatdan Angliyadan orqada qolganligi edi. Bu urushda Xitoy tomonidan o'lgan va yarador bo'lgan askarlar soni 20 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, inglizlar faqat 520 kishi yo'qotdilar. Xitoyning hukmdorlari butun mamlakat miqyosida yagona mudofaani tashkil eta olmadilar. Har bir shaharda uncha katta bo'lmagan garnizonlar bir-birlaridan ajralgan holda jang olib bordilar. "Dengiz orti varvarlari"ga mensimay qarash ruhida tarbiyalangan manjur harbiy sarkardalari jang maydonida qo'shinga rahbarlik qilishga no'noq bo'lib chiqdilar, ular o'z-o'zini o'ldirishni sharmandali mag'lubiyatni yuvish yo'li deb qabul qildilar. Bog'dixon jangchilari mag'lubiyatga uchrab, o'zini o'ldirgan komandirlar oilasiga katta mukofotlar berdi.

1842 yil 29 avgustda Angliyaning «Kornvallis» kemasida Nankin shartnomasi deb nomlagan shartnoma imzolandi.

Nankin shartnomasi Xitoyning yangi tarixida teng huquqli bo'lmagan birinchi shartnoma edi. Xitoyning 5 ta porti - Guanchjou, Syamen, Fuchjou, Ninbo, Shanxay inglizlarning savdo qilishi va ko'chib kelishi uchun ochib qo'yildi, bu erlarda inglizlar o'z konsulliklarini ochish huquqini oldilar. "Koxong" monopoli kompaniyasi tarqatib yuborildi. Gonkong (Syangan) oroli inglizlar qo'l ostiga o'tdi. Xitoy Angliyaga 21 mln. dollar tovon to'lash majburiyatini oldi, bojxona mustaqilligidan mahrum bo'ldi, keltirilgan mollar uchun boj miqdori mol qiymatining 5% idan oshmasligi kerak edi.

1843 yilda Angliya Xitoyga «5ta portda savdo qilish to'g'risida qo'shimcha bitimni qabul qildirib, unda Britaniya fuqarolari uchun eksterritoriallik huquqi joriy qildi, ya'ni Britaniya fuqarolari Xitoy qonunlarini buzganligi uchun ularni Xitoy sudi sud qilishga huquqi yo'q edi. Ochib qo'yilgan portlarda chet elliklar manzilgohlari (izimi) (settlementlar) tashkil qilinib, u erda chet elliklar to'la hukmron edilar. Bitimda Xitoyda afyun bilan savdo qilish to'g'risida hech qanday so'z bo'lmasada, Lin Tszesyuy tomonidan yo'q qilingan afyun qiymatini qoplash uchun mamlakatga katta miqdorda afyun olib kelish boshlandi.

Xitoyning mag'lubiyatga uchraganidan foydalanib, AQSH va Fransiya ham unga teng huquqli bo'lmagan shartnomalarni qabul qildirishga intildilar. 1844 yil 3

iyulda Xitoy-AQSH, 1844 yil 24 oktyabrda Xitoy-Fransiya shartnomalari imzolandi va bu davlatlar ham Angliya ega bo'lgan imtiyozlarga ega bo'ldilar.

Birinchi afyun urushi va teng huquqli bo'lmagan shartnomalar tuzish natijasida Xitoy Evropa va Amerika mollari sotiladigan bozorga va kapitalistik davlatlar uchun arzon xom ashyo manbaiga aylana bordi.

Birinchi "afyun" urushi Xitoy taraqqiyotida muhim chegara bo'ldi. Xitoy qurol kuchi yordamida chet el sarmoyalari kirishi uchun ochib qo'yildi. Angliya, Fransiya va AQSH Xitoyda dastlabki eng muhim siyosiy va iqtisodiy mavqelarni qo'lga kiritdilar. Xitoy hududining bir qismi – Syangan oroli ingliz mustamlakasiga aylandi (Gonkong). Nankin shartnomalari Xitoy xalqining milliy mustaqilligi va suverenitetini kamsitilishiga yo'l ochib berdi.

Afyun urushi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz yanada chuqurlashdi. Xitoyga afyun keltirish ko'payib, 1851 yilda 55,6 ming qutiga etdi va shu tufayli juda katta miqdordagi kumush chet ellarga olib ketilardi. Natijada Xitoyda pul tizimi izdan chiqdi. Harbiy xarajatlar va tovon to'lash davlat xazinasini bo'shatib qo'ydi. Natijada aholidan yangi soliqlar olina boshlandi. Bu esa ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirdi.

1843 yilda dehqon o'g'li, qishloq o'qituvchisi Xun Syusyuan (1814-1864) Guansida «Samoviy hukmdorga ta'zim jamiyati» («Bayshandixuey») degan tashkilot tuzdi. Uning Fen Yunshan, Yan Syutsin, Syao Chaoguy kabi maslakdoshlari bor edi. Bu jamiyat adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Xun Syusyuan 1850 yilda Tsinlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish payti keldi deb hisoblab, Guansi viloyatida qo'zg'olonni boshladi. Qo'zg'olonida dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, qullar ishtirok etdi.

«Bayshandixuey» jamiyati a'zolari o'z mulklarini sotib, jamiyatning umumiy xazinasiga jamiyat a'zolari uchun kerak bo'lgan mollarni sotib olardilar va mollar jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanardi. Qo'zg'olonchilar harbiy tashkilotga birlashgan bo'lib, qattiq intizom o'rnatilgan edi. Xotin-qizlar alohida guruh bo'lib yashardilar va ayollar bilan erkaklarning muloqot o'rnatishlari ta'qiqlab qo'yilgan edi. Qo'zg'olon ishtirokchilari sochlarini o'stirib, boshiga qizil bog'ich bog'lab qo'yardilar.

Tsin sulolasi hukmdorlarining qo'zg'olonni bostirishga bo'lgan urinishlari natijasiz tugadi. Shundan keyin 1851 yil 11 yanvarda, Xun Syutsyuanning tug'ilgan kunida Tszintyanda Tsinlarga qarshi «Buyuk farovonlik samoviy davlati -Taypin tyango» qurish uchun qo'zg'olon boshlanganligi rasmiy e'lon qilindi. Kurashning dastlabki davrlarida qo'zg'olonchilarning maqsadlari Xitoyni manjurlar zulmidan ozod qilish va er egalari zulmini yo'q qilishdan iborat edi.

Taypinlar armiyasida intizom yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. 1851 yil kuzida taypinlar Yunan shahrini va Guansi provinsiyasining katta qismini qo'lga kiritdilar. Qo'zg'olonchilar bu erda Taypin tyango davlati tuzilganligini e'lon qildilar. Xun Syutsyuan «Samoviy hukmdor» («Tyanvan») unvonini oldi. Bu erda taypinlar hukumati tashkil etildi. Xun Syutsyuanning 5 ta yaqin safdoshi van (knyaz) unvonini oldi. Yan Syutsin (Sharq knyazi) harbiy qo'mondonlik va hukumat apparatiga rahbar bo'ldi. Qo'zg'olonchilar davlat nomidan kelib chiqib, taypinlar deb atala boshlandi.

1853 yilda taypinlar Yantszi daryosi va uning sohili bilan yurish qilib, Uxanni egalladilar, bu vaqtda ularning umumiy soni 500 ming kishiga etdi.

1853 yil 19 martda taypinlar qo'shini Nankinni shturm bilan oldilar va u Tyantszin («Samo poytaxti») nomi bilan Taypin tyangoning poytaxtiga aylandi.

1853 yilda taypinlar hukumati «samoviy davlatning er tizimi» to'g'risida hujjat e'lon qildi. Unga ko'ra er oiladagi jon boshiga qarab teng taqsimlanishi kerak edi. Bu hujjatda Taypinlar davlatining harbiy jamoaga asoslangan turmush kechirish tartibi belgilab berilgan edi.

Har bir 25 oila birlashib, ma'muriy xo'jalik, harbiy va diniy birliklarning quyi tashkiloti - lyanni, ya'ni lyansima rahbarlik qiladigan vzvodni tashkil qildilar.

Bu hujjatda taypinlarning harbiy tashkiloti asoslari ham belgilab berilgan edi. Har bir oila 1 jangchi berishi kerak edi. Urushdan tashqari vaqtlarda jangchilar xo'jalik ishlari bilan shug'ullanganlar. 4 ta vzvod yuzlikni, 5 ta yuzlik batalonni, 5 ta batalon polkni, 5 polk esa 13156 jangchini va shuncha oilani birlashtirgan korpusni tashkil qildilar.

Qo'shinda qattiq tartib o'rnatilgan bo'lib, afyun chekish, spirtli ichimliklar ichish, qimor o'ynash ta'qiqlangan edi. Korpus komandiri ayni vaqtda fuqarolar hokimiyatining oliy boshlig'i va sudya hisoblanardi.

Lekin taypinlar er islohotini amalga oshira olmadilar. Shunga qaramasdan taypinlar davlati hududida dehqonlar ahvoli ancha yaxshilandi (ijara haqi, soliqlar ancha kamaytirildi, ba'zi erlarda dehqonlar zodagon er egalari erlarini tortib oldilar).

Taypinlar tomonidan o'tkazilgan yana bir ijobiy tadbir - bu xotin-qizlarning erkaklar bilan teng huquqli bo'lishidir. Xotin-qizlar erkaklar bilan teng miqdorda chek eri olish, amaldorlik uchun imtihon topshirish huquqiga ega bo'ldilar, fohishalik qilish, kelinlarni sotib olish yoki sotish, oyoqni bog'lab qo'yish kabilar taqiqlandi.

Taypinlar jismoniy azob berishni man etdilar, ochiq sud o'tkaziladigan bo'ldi. Taypinlar umumiy tenglik o'rnatishga intilib, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho narsalarni yo'q qildilar. Boy odamlarni ham boshqalar bilan teng mehnat qilishga majbur qildilar. Yalqovlik jinoyat sifatida jazolanardi.

Taypinlar davlatining davlat tuzilishi monarxiyaga asoslangan bo'lib, vanlar, xou va shunga o'xshash 11 darajadagi amaldorlardan iborat jamiyat oqsuyaklarining yangi ierarxiyasi tashkil topdi.

Taypinlar Nankinni qo'lga kiritgach, Tsinlar sulolasini ag'darib tashlash uchun kurashni davom ettirdilar. Shu maqsadda ularning Shimoliy va G'arbiy yurishlari bo'lib o'tdi.

Shimoliy yurish 1853 yil mayida boshlandi. Taypinlar qo'shini harbiy harakatlar olib borish orqali Anxoy, Xenan, Shansini egalladilar va sentyabr oxirida Chjili provinsiyasiga kirib bordilar. 1853 yil oktyabrda taypinlar qo'shini Shimoliy Xitoyning eng yirik markazi bo'lgan Tyantszin shahriga etib keldilar, lekin bu shaharni qo'lga kiritamadilar. Chunki taypinlar qo'shini Shimol yurishi davrida katta yo'qotishlarga duchor bo'lgan edi. Taypinlar janubliklar uchun xos bo'lmagan g'ash sovug'ida chekinishga majbur bo'ldilar. Taypinlarga yordam berish uchun Tsinlardan yuborilgan armiya 1854 yil may oyida Shandunda mag'lubiyatga

uchradi. O'z bazalaridan ajralib qolgan va hamma tomondan dushman qo'shinlari bilan o'rab olingan taypinlar otryadlari 2 yil davomida qahramonlarcha qarshilik ko'rsatdilar, lekin kuchlar nisbati teng bo'lmaganligi sababli dushman tomonidan qirib tashlandi. Taypin tyango rahbarlari Pekin uchun bo'ladigan yurish qiyinchiliklariga etarli baho bermagan, bu yurish uchun etarli qo'shin va zarur zaxiralarni ajratmagan edi. Natijada Shimol yurishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Qo'zg'olonchilar Tyantszin shahrini ham, Pekin shahrini ham qo'lga kiritmadilar.

1853 yil may oyida boshlangan G'arbiy yurishda esa taypinlar Anxoy, Tszyansi, Xubey provinsiyalarini Tsinlar hokimiyatidan ozod qildilar, shuningdek 1853 yil boshida hukumat qo'shini tomonidan bosib olingan Uchan ham taypinlar qo'l ostiga o'tdi. Yantszining o'rta oqimidagi hududlarda yana taypinlar hokimiyati o'rnatildi.

1853-1856 yillar davomida taypinlar hukumat qo'shinlariga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordilar va Markaziy Xitoyda o'mashib oldilar. Bu vaqtga kelib taypinlar davlati hududi yuz minglab kvadrat kilometrlarga etib, aholisi o'n millionlarni tashkil qilardi.

1856-yildan boshlab Taypinlar lagerida ichki kurash kuchaydi. Bu vaqtga kelib taypinlar davlatining boshlig'i Xun Syutsyuan faoliyatdan chetlashdi. Taypinlarning xalq ichidan chiqqan ko'pgina rahbarlari janglarda halok bo'lgan edi. Xun Syutsyuanning tirik qolgan safdoshlari o'rtasida yakdillik yo'q edi. Amalda taypinlar armiyasi va hukumatiga rahbarlik qilayotgan va demokratik tendensiyalar tarafdori bo'lgan Yan Syutsinga qarshi zamindorlardan chiqqan va davlatdagi rahbarlikni o'z qo'lga olishga intilgan mansabparast Vey Chanxuey boshchiligida kuchli guruh tashkil topgan edi. Yan Syutsin qo'lida katta hokimiyat to'planganidan noroziligi kuchaygan Xun Syutsyuanning roziligi bilan Vey Chanxuey 1856 yil sentyabrda Yan Syutsinga qarshi fitna uyushtirib, Yan Syutsinni va uning bir necha ming tarafdorlarini o'ldirdi.

Vey Chanxuey bir qancha vaqt Nankinda hokimiyatni qo'lga oldi, lekin taypinlarning yana bir sarkardasi Shi Dakay unga qarshi chiqdi. Taypinlar rahbariyati ichidagi keyingi kurashlar Vey Chanxueyning o'limiga olib keldi va Nankinda Shi Dakay hukumati o'rnatildi. Shi Dakay bilan Xun Syutsyuan o'rtasidagi munosabatlar yomonlashdi. Keyinchalik Shi Dakay Xun Syutsyuan bilan bo'lgan munosabatlarni uzdi va 1857 yil yozida taypinlar armiyasining asosiy kuchlarini o'zi bilan olib, Xitoyning janubi-g'arbidagi provinsiyalarga jo'nab ketdi. Bu erda dehqonlar qo'zg'olonlari davom etayoigan bo'lib, Shi Dakay shu erda o'z tarafdorlarini ko'paytirish va yangi baza tashkil qilishni rejalashtirgan edi. Lekin uning bu rejaları amalga oshmadi. Shi Dakayning otryadi 1863 yilda Sichuanda Tsin qo'shinlari tomonidan tor-mor etildi, Shi Dakay asir olinib, qatl etildi.

Ichki kurash taypinlar lagerini juda zaiflashtirdi. Taypinlar davlatida knyazlarning yangi tabaqasi – vanlar shakllandi, 1856 yildagi davlat to'ntarishidan keyin vanlarning soni 200 dan oshib ketdi, ular boyib, turli yo'llar orqali dehqonlarni asoratga sola boshladilar. Taypinlar davlati rahbarlarining bir qismi davlatdagi dastlabki demokratik tamoyillarni yo'q qila boshladilar. 1857 yilda taypinlar davlatidagi harbiy va siyosiy hokimiyat Xun Syutsyuanning qarindosh-urug'lari va

yurtdoshlari qo'lga o'tdi, ularning ko'pchiligi inqilobiy islohotlar tarafdorlari emas edilar. Taypinlarning ichki siyosatida konservativ tamoyillar kuchayib bordi. Van unvoniga ega bo'lgan taypinlar rahbarlari tobora boyib, xalq ommasidan tobora uzoqlasha boshladilar. Bularning barchasi taypinlar davlati asoslarini emira boshladi. Dastlabki davrda Taypinlar armiyasidagi har bir zobit va askarlarning Xitoy xalqi ozodligi ishiga sodiqlikga asoslangan intizom pasayib ketdi. Armiyaning jangovarlik qobiliyati pasayib, talonchilik va xoinlik ko'paydi. Yuqoridagi voqealar Taypinlar davlatini juda kuchsizlantirib qo'ydi, natijada qo'zg'olonning pasayish davri boshlandi. Manjur hukumati armiyasi yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib taypinlarga qarshi hujumga o'tdi.

Angliya, Fransiya va AQSH hukumatlari Xitoyga dastlabki teng huquqli bo'lmagan bitimlarni qabul qildirilishi bilan qanoatlanib qolmadilar va Xitoyning bunday "ochilishi"ni etarli emas deb hisoblardilar. Bu davlatlar savdogarlari faqat 5 ta ochiq portda savdo qilishlari mumkin edi. Tsin hukumati Pekinga G'arab davlatlari elchilarini kelishlarini rad etdi. Xitoyning rasmiy hujjatlarida hali ham evropaliklar va amerikaliklar avvalgidek "varvarlar" deb nomlanardilar. G'arb davlatlari esa, eng avvalo Angliya Xitoy bozorini to'la egallab olishni, mamlakatning ichki hududlariga kirib borishni va eng asosiysi Xitoy hukumatini o'z ta'siri ostiga olishni istardi.

Chet elliklar Xitoyda boshlanib ketgan fuqarolar urushidan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishni ko'zladilar. Angliya, Fransiya va AQSH dastlabki davrda taypinlarga qarshi chiqmadilar. Jumladan Angliya siyosatchilari bu urush tufayli Xitoy turli sululalar boshchiligidagi ikki imperiyaga ajralib ketadi deb o'ylagan edilar. Lekin Xitoyda dehqonlar urushi davom etayotgani va taypinlar davlati Xitoy suvereniteti va mustaqilligini himoya qilib chiqayotganligi yaqqol namoyon bo'lgach Angliya, Fransiya va AQSH Xitoyga qarshi intervensiya yo'lga o'tdilar. Bu davlatlarning qurolli kuchlari dastlab taypinlar davlatidan tashqaridagi xalq qo'zg'olonlarini bostirishda qatnashdi.

1854-1855 yillarda fransuz askarlari Shanxaydagi qo'zg'olonlarni bostirishda, ingliz floti va askarlari esa Guandundagi xalq qo'zg'olonlarini bostirishda ishtirok etdilar.

G'arb davlatlari 1854 yilda butun Xitoy bo'ylab cheklanmagan savdoga ruxsat berish, chet el elchilarini Pekinga kiritish, afyun savdosiga rasmiy ruxsat berilishini talab qildilar.

1856-yil dekabrda ingliz eskadresi Guanchjouni bombardimon qildi, bu bilan Xitoyga qarshi ikkinchi "afyun" urushi boshlandi. Shahar atrofida 5 mingga yaqin uy-joylar yoqib yuborildi. Ingliz flotining qaroqchilik hujumlari 1857 yilda ham davom etdi. Guanchjou fortlarini bombardimon qilishda AQSHning "Portsmut" harbiy kemasi ham ishtirok etdi.

Angliyaning hukmron doiralari Xitoyga rasmiy ravishda urush e'lon qilib, bu erda qo'shimcha harbiy kuchlarni yubordilar. Tez orada Fransiya ham urushda ishtirok eta boshladi. AQSH hukumati rasmiy ravishda urushda ishtirok etmasada, o'z harbiy kemalarini Xitoy suvlariga yuborib, harbiy harakatlarda ishtirok etdi.

1857 yil dekabrda bosqinchilar Xitoy hukumatidan yangi bitimlar tuzishni talab qildilar. Bu talab rad etilgach, ingliz va fransuz qo'shinlari Guanchjou shahrini egallab, unga o't qo'yib, vayron qildilar.

Bu hujum Xitoy xalqining qattiq qarshiligiga duch keldi. Birinchi "afyun" urushida bo'lgani kabi, Guandun aholisi partizan otryadlarini tuzib, ingliz faktoriyalariga o't qo'ydi, ingliz savdogarlarini o'ldirdi.

1858 yilda urush harakatlari shimolga, Bayxe daryosi havzalariga ko'chdi. Ingliz-fransuz kemalarida keltirilgan qo'shin may oyida Dagu va Tyantszinni bosib olib, bevosita Pekinga xavf sola boshladilar. Tsin hukumati sulh tuzish yuzasidan muzokaralarni boshladi.

1858 yil iyunda Tyantszinda Xitoy bilan Angliya va Fransiya o'rtasida yangi bitimlar imzolandi. Xitoy hukumati ingliz va fransuz elchilarini Pekinda qabul qilinishiga rozilik berdi. Angliya va Fransiya fuqarolari butun Xitoy bo'ylab erkin yurish huquqiga ega bo'ldilar, ularning kemalari esa Yantszida suzish huquqiga ega bo'ldi. Shimolda, Shimoli-Sharqiy Xitoyda, Tayvan va Xaynan orollarida chet el savdosi uchun yangi portlar ochib qo'yildi. Chet el mollari uchun bojlar yanada kamaytirildi, afyun savdosiga rasmiy ravishda ruxsat berildi. Chet el missionerlari Xitoyda cheklanmagan faoliyat huquqiga ega bo'ldilar. Xitoy hukumati Angliya va Fransiya katta miqdorda kontributsiya to'lash majburiyatini oldi. Bitimning maxsus moddasi Xitoy hukumatining evropaliklarga nisbatan "varvar" so'zini ishlatishdan voz kechishini belgilab qo'ydi.

AQSH urushda rasmiy ravishda ishtirok etmagan bo'lsada, u ham Xitoy bilan shartnoma tuzib, Angliya va Fransiya qo'lga kiritgan barcha imtiyozlarga ega bo'ldi.

Tyantszin shartnomalari xorijiy davlatlarning Xitoydagi "huquqlarini" sezilarli darajada kengaytirdi. Lekin Angliya va Fransiyaning hukmron doiralari Xitoy bilan yangi to'qnashuvlarni keltirib chiqarib, undan yanada ko'proq yon berishlar va imtiyozlarni olishga harakat qildilar.

Tyantszin shartnomalari bir yildan keyin Pekinda ratifikatsiya qilinishi kerak edi. Angliya va Fransiya tomoni Pekinga borayotgan o'z vakillarini Tyantszingacha daryoda harbiy eskadra kuzatuvda borishini talab qildilar. Xitoy hukumati bu talabni rad etdi. 18 harbiy kemadan iborat ingliz-fransuz harbiy kemalari 1859 yilda Bayxe daryosi havzasiga kirib borganida Xitoy qurolli kuchlari ularga qarshi o't ochdi. Bosqinchilar 3 ta harbiy kemani yo'qotgach, o'z flotlarini Shanxayga olib ketishga majbur bo'ldilar. Bosqinchilar bu to'qnashuvdan Xitoyga qarshi yangidan hujum qilishda foydalandilar.

Angliya va Fransiya ikkiyuzlamachilik qilib, Xitoyni Tyantszin shartnomasini buzishda aybladilar. 1860 yil iyunida ingliz va fransuz qo'shinlari Shimoliy Xitoy va Lyaodun yarim oroliga kelib tushdilar. Ular avgustda Tyantszinni bosib oldilar, sentyabrda esa Pekin ostonasida 60 ming kishilik Xitoy armiyasi tor-mor etildi. Bog'dixon poytaxtni tashlab chiqdi.

Mustamlakachilar qo'shini Xitoy aholisini talab, qirg'in qildi. Ular Pekin yaqinidagi imperatorning yozgi saroyini bosib olib, uni taladilar. Bu erdagi ajoyib san'at va hunarmandchilik asarlari bosqinchilar tomonidan olib ketildi. Bosqinchilik

izlarini yo'qotish uchun imperatorning yozgi saroyi ingliz qo'mondonligining buyrug'i bilan yoqib yuborildi.

Imperator jo'nab ketganidan keyin poytaxtda qolgan shahzoda Gun ingliz-fransuz qo'shinlarining Pekinga kirishlariga ruxsat berdi. 1860 yil oktyabrda Angliya va Fransiya Xitoy bilan Tyantszin bitimlari shartlarini tasdiqlovchi Pekin konventsiyasini tuzdilar. Chet el savdosi uchun qo'shimcha ravishda Tyantszin ochib qo'yildi. Xitoy Tszyulun (Koulun) yarim orolini Angliya mustamlakasi (Gonkongni tarkibiy qismi) sifatida tan oldi. Xitoy 16,7 mln. lyan miqdorda kontributsiya to'lash majburiyatini oldi, bu kontributsiya to'languncha ittifoqchilar qo'shini Xitoy hududida qoladigan bo'ldi. Chet el kapitalistlari asoratli kontraktlar asosida xitoylik ishchilarni Amerikaga va o'z mustamlakalariga olib ketish huquqiga ega bo'ldilar.

CHor Rossiyasi ham ikkinchi "afyun" urushidan o'zining Uzoq Sharqdagi mavqeini mustahkamlashda foydalandi. Rossiya bilan Xitoy o'rtasida 1858 yilda tuzilgan Aygun shartnomasiga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi chegara Argun daryosi irmoqlaridan Amur bo'ylab o'tib uning Ussuriya daryosiga quyulish joyi deb belgilandi. Daryo bilan dengiz o'rtasidagi hudud (Ussuriya o'lkasi) kelgusida ikki davlat o'rtasidagi chegaralar aniqlanguncha ikki davlat mulki deb hisoblanadigan bo'ldi. O'sha 1858 yilda Tyantszinda rus-xitoy bitimi imzolaniib, unga ko'ra Xitoyning bir qator portlari rus kemalari uchun ochib qo'yildi. 1860 yilda Pekinda Rossiya bilan Xitoy o'rtasida qo'shimcha bitim tuzilib, ikki davlat o'rtasidagi chegaralar belgilandi, unga ko'ra Ussuriya o'lkasi Rossiya tarkibiga kirdi, shuningdek rus savdogarlari uchun Pekin va Xitoyning boshqa bir qator shaharlarida faoliyat olib borishga ruxsat berildi. Rus va Xitoy hukumatlari mamlakat poytaxtlarida o'z konsullarini tayinlash huquqiga ega bo'ldilar. Bu shartnomalar Rossiyaning Angliya, Fransiya va AQSHning Xitoydagi siyosatiga qo'shilganligidan dalolat berardi.

Tyantszin va Pekin shartnomalari shartlarini amalga oshirishga taypinlar harakati to'siq bo'lib turgan edi. G'arb davlatlari taypinlar qo'zg'olonini bostirish uchun Tsin hukumati bilan ittifoq o'rnatdilar.

Bu davrga kelib taypinlar armiyasining umumiy ahvoli yomonlashib bormoqda edi. 1861 yilda Nankin dushman tomonidan qamal qilina boshlandi.

1862 yil fevralda Shanxayda chet ellik konsullar va zobitlarning yig'ilishi bo'lib, unda taypinlarga qarshi ochiq jangga o'tishga qaror qilindi. Amerikalik avantiyurist Uord shanxaylik boylar bergan mablag' asosida taypinlarga qarshi urush olib borish uchun 8 ming kishilik yollanma guruh tashkil qildi. Fransuzlar ham isyonchilarga qarshi kurashish uchun qurolli otryadlar tashkil qildilar.

Taypinlarga qarshi urushda Angliya, Fransiya va AQSHning qurolli kuchlari ham qatnashdilar.

1863 yilga kelib Yantszining shimoliy sohillari to'raligicha Tsin armiyasi qo'lga o'tdi. Tsin qo'shinlari, chet elliklar qo'shini va Xitoy zamindorlarining qo'shinlari birlashib, Nankin qamalini tobora kuchaytira boshladilar. Nankin halokat yoqasiga kelib qoldi. Taypinlar armiyasining mohir sarkardalaridan bo'lgan Li Xuychen Xun Syutsyuanga Nankinni tashlab, qolgan qo'shin bilan kurashni davom

ettirish uchun mamlakat g'arbiga ketishni taklif qildi, lekin Xun Syutsyuan bu taklifni rad qildi.

1864 yil bahorida Nankin tashqi dunyodan batamom uzib qo'yildi. Shahar himoyachilarida o'q-dori etishmas edi, ocharchilik boshlandi. Iyun oyida Xun Syutsyuan o'z joniga qasd qildi.

1864 yil iyul oxirlarida Nankin dushman qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Ular shahar himoyachilari va tinch aholini qirg'in qilib, 100 mingga yaqin aholini o'ldirdilar.

Nankin qo'ldan ketsada taypinlarning alohida guruhlari 1866 yilgacha qarshilik ko'rsatishni davom ettirdilar. Bundan tashqari, taypinlar qo'zg'oloni ta'siri ostida Xitoyning turli hududlarida yana bir necha yillar davomida xalq qo'zg'olonlari ro'y berib turdi.

1851-1864 yillar davomida faoliyat ko'rsatgan Taypin tyango davlati ulkan hududlardagi ko'p millionli aholini qamrab olgan edi.

Taypinlar kurashining mag'lubiyatga uchrashiga xalqaro vaziyatning noqulay kelishi ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Angliya, Fransiya va AQSH taypinlar davlatiga qarshi birgalikda qurolli intervensiya tashkil qildilar.

"Afyun" urushlari va amerika-ingliz-fransuz kuchlari tomonidan taypin qo'zg'olonining bostirilishi chet el sarmoyasining Xitoyga kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratdi.

70-yillarda taypinlar qo'zg'olonini bostirishda o'zini ko'rsatgan Li Xun-CHjan mansab pillapoyalaridan tez ko'tarilib bordi. Poytaxt provinsiyasi hokimi lavozimini egallagan Li Xun-CHjan Tsin hukumatining tashqi siyosatini belgilashda asosiy rol o'ynay boshladi.

Poytaxtda, imperator saroyida "konservatorlar" va Xitoyni "o'z-o'zini kuchaytirish" siyosati tarafdorlari o'rtasidagi kurash davom etdi. 1875 yilda bog'dixon Tunchji vafot etgach, Tsi Si taxtga o'zining voyaga etmagan qarindoshi Guansuyni o'tqazdi va uning regentlik davri boshlandi. Li Xun-CHjan va uning tarafdorlari "o'z-o'zini kuchaytirish" siyosati doirasida Xitoyni Evropa texnikasini, eng avvalo harbiy texnikasini o'zlashtirish taklifi bilan chiqdilar. Armiyani qayta tuzishga harakat qilinib, chet ellardan bir necha harbiy kemalar sotib olindi.

Tsin hukumatining G'arb davlatlarga siyosiy qaramligi kuchaydi. Chet elliklarning bojxona ustidan o'natgan nazoratlari ularga Xitoy hukumatining moliyaviy faoliyatiga va tashqi ishlar vazirligi faoliyatiga aralashishiga imkon berardi.

1864-1894 yillar mobaynida chet davlatlarning Xitoy bilan bo'lgan savdo hajmi deyarli uch baravar ko'paydi. Chet elliklar Xitoyda kemachilik kompaniyalarini tashkil qildilar, temir yo'llar qurish uchun harakatlar boshlandi, xorijiy banklar o'z faoliyatlarini boshladilar. 1865 yilda inglizlarning Gonkong-Shanxay bankiga asos solindi.

1874 yilda inglizlarning Janubi-G'arbiy Xitoyni o'rganish uchun qurolli otryad kuzatuvida yuborilgan "ilmiy" ekspeditsiyasining mahalliy aholi bilan bo'lgan qurolli to'qnashuvida ingliz tarjimoni Margeri o'ldirildi. Inglizlar "Margeri ishi"dan Xitoyga yangi talablar qo'yish uchun foydalandilar va urush ochish tahdidi

bilan 1876 yilda teng huquqli bo'lmagan ingliz-xitoy konventsiyasini qabul qildirdilar. Xitoy tomoni Angliyaga tovon to'lashi va Yantszi daryosida inglizlar uchun yangi portlarni ochib qo'yishlari kerak edi.

1881 yilda Xitoy bilan Rossiya o'rtasida Peterburg shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra Xitoyning rus mulklariga tutash bo'lgan Ili o'lkasidagi kichik hudud Rossiyaga o'tdi va Sintszyanda savdo-sotiq olib borishga kelishildi.

Fransiyaning Vetnamni bosib olishi fransuz-xitoy munosabatlarini keskinlashtirdi. Fransiya Vetnamga qarshi urush olib borish bilan birga, Yunnan provinsiyasini bosib olib, o'zining Xitoydagi mavqeini kuchaytirishga intildi.

Fransiya tomoni 1884 yilda Xitoydan Vetnamni fransuzlar bosib olganligini tan olish va undan Xitoy qo'shinlarini olib chiqishni talab qilish bilan cheklanib qolmasdan, katta miqdorda kontributsiya to'lashni ham talab qildi.

1884 yil avgustida Fransiya Xitoyga qarshi urush boshladi. Fransuz qo'shinlari Tayvanga tushirilib, Penxuledao orolini bosib oldi. Bosqinchilarga qarshi xalq ommasi ham kurashga qo'shildi. Lekin Xitoy Fransiya teng kelolmadi. Li Xun-CHjan boshliq taslimchilar fransuzlar bilan kelishib olishga intildilar. Tsin hukumati o'z qo'shiniga harbiy harakatlarni to'xtatish haqida buyruq berdi.

1885 yil iyunida fransuz-xitoy sulh shartnomasi imzolandi. Xitoy hukumati Fransiyaning Vetnam ustidan protektoratini tan oldi. Fransuz savdogarlari Yunnan provinsiyasida erkin savdo qilishga ruxsat berildi. Fransiya yana bir qator imtiyozlarga ega bo'ldi.

Chet elliklarga qarashli korxonalar bilan bir qatorda 70-80-yillarda xitoyliklar tomonidan qurilgan va mashinalashgan texnikaga asoslangan dastlabki to'qimachilik, konchilik va metallurgiya korxonalar ham paydo bo'ldi. Qishloq xo'jaligiga ham tovar-pul munosabatlarining kirib kelishi kuchaydi.

Xitoyning bojxona mustaqilligining yo'qotishi, chet el mollarining hech qanday to'siqlarsiz, deyarli bojsiz kirib kelishi dastlabki Xitoy korxonalarining rivojlanishini qiyinlashtirdi.

Shunga qaramasdan sanoat ishlab chiqarishi asta-sekin rivojlanib bordi. 1861 yilda Fuchjoulik savdogarlar Angliyadan mashina-jihozlarni sotib olib, uchta choy fabrikasini ochdilar. 1863 yilda Shanxayda dastlabki mexanizatsiyalashgan guruch fabrikasi ishga tushdi. 60-yillardan boshlab Shanxay, Fuchjou va boshqa shaharlarda kemasozlik korxonalarini qurila boshlandi. 1872 yilda Xitoyning birinchi paroxod kompaniyasi tashkil qilindi, to'rt yildan keyin esa Shanxayni Baoshan bilan bog'lovchi dastlabki temir yo'l liniyasi qurildi. 1877 yilda Kaypinda ko'mir shaxtalari ish boshladi. 1882 yilda birinchi mexanizatsiyalashirilgan qog'oz fabrikasi, 1883 yilda dastlabki metall ishlovchi korxonasi, 1890 yilda birinchi yirik to'qimachilik fabrikasi ishga tushdi. 1896 yilga kelib Xitoyda zamonaviy mashinalar bilan jihozlangan 7 ta yirik to'qimachilik fabrikasi ishlab turgan edi. 1898 yilda Shanxay-Usun temir yo'li ishga tushirildi.

XIX asrning 90-yillariga kelib harbiy va iqtisodiy jihatdan kuchaygan Yaponiya Koreya, Tayvan, Manjuriyani bosib olishga intildi.

Koreyada dehqonlar urushining boshlanishi va Koreya hukumatining Xitoydan harbiy yordam so'rashi Yaponiya bilan Xitoy o'rtasida urush boshlanishiga olib keldi.

Yapon floti 1894 yil 25 iyulda urush e'lon qilmasdan turib, Koreyaga askar olib borayotgan Xitoy kemalariga hujum qildi. Iyun oyida Koreyaga tushirilgan yapon qo'shinlari 23 iyulda Koreya qiroli saroyini bosib olib, urush harakatlarini boshlab yubordilar. 29 iyulda Seulning janubida dastlabki katta jang bo'lib o'tdi. Faqat 1 avgustga kelib urush boshlanganligi rasmiy ravishda e'lon qilindi.

Yaponiya hukmron doiralari bu urush natijasida Koreyada o'z hukmronligini o'rnatish bilan cheklanib qolmasdan, Xitoy hududlarini bosib olishni ham rejalashtirgan edilar.

Xitoyning hukmron doiralari mamlakat mudofaasini tashkil eta olmadilar. Urushgacha davom etgan o'ttiz yilga yaqin olib borilgan "o'z-o'zini kuchaytirish" siyosati ham, Li Xunchjan tomonidan evropacha eng yangi qurollar bilan qurollantirilgan "yangi armiya" qo'shini tashkil qilingan bo'lsa ham, chet ellardan yangi harbiy kemalar sotib olinib, qal'alar qurilgan bo'lsada Xitoy urushga tayyor emas edi. Li Xunchjan "yangi armiya"ni o'z hukmronligini ta'minlovchi kuch deb bildirdi. Armiya va flotga ajratilgan mablag'larning katta qismi talon-taroj qilindi. Xitoyning harbiy qo'mondonligi o'zining harbiy dushmani haqida, harbiy harakatlar bo'lib o'tishi mumkin bo'lgan hududlar haqida hech nima bilmasdi. Buning ustiga urush arafasida Pekinda saroydagi guruhlar o'rtasidagi kurash keskinlashdi.

1889 yildan boshlab mamlakatni imperator Guansuy boshqara boshladi. Malika Tsi Si o'zining davlat boshqaruvidan chetlashganini ma'lum qildi. Lekin Guansuy bilan Tsi Si tarafdorlari o'rtasida hokimyat uchun kurash borardi. Imperator tarafdorlari yaponlarga qarshilik ko'rsatishni yoqlab chiqdilar. Tsi Si bilan Li Xunchjan avval boshdanoq taslimchilik mavqeida turdilar.

Harbiy harakatlar Xitoy uchun muvaffaqiyatsiz boshlandi. 1894 yil sentyabrda Li Xunchjanning odami bo'lgan iste'dodsiz general E Chjichao boshchiligidagi Xitoy qo'shinlari Pxenyon yonida katta mag'lubiyatga uchradi.

Oktyabr oyida yaponlar Yalutszyan daryosini kechib o'tib, Shimoli-Sharqiy Xitoy hududiga kirdilar. Ular quruqlikda va dengizda jang olib borib, bir qator muhim nuqtalarni qo'lga kiritdilar, noyabrda yaqinda qurib bitkazilgan Lyuyshun (Port-Artur) shahri ular qo'lga o'tdi. Yaponlar 1895 yil yanvarida muhim qal'a hisoblangan Veyxayvey (Shandun provinsiyasi) yaqiniga desant tushirdilar. Li Xunchjan shahar himoyachilariga yordam yuborish o'miga ularga taslim bo'lish haqida buyruq berdi. Yaponlar Xitoy harbiy kemalarini va katta o'ljalarni qo'lga kiritdilar.

Xitoy mag'lubiyatga uchradi. 1895 yil martida Simonosekida sulh tuzilgan bo'yicha muzokaralar boshlandi va 17 aprelda sulh bitimi imzolandi.

Tsin hukumati o'zining Koreya ustidan bo'lgan suzerenitetidan voz kechdi. Xitoy hududlari bo'lgan Lyaodun yarim oroli, Tayvan va Penxuledao (Peskador orollari) Yaponiyaga berildi. Xitoy katta miqdorda kontributsiya to'lash majburiyatini oldi, Yantszi va Buyuk ko'llar havzasida Yaponiya uchun 4 ta port ochilgan bo'lib, yapon kemalari Xitoyning ichki suvlarida suzish huquqiga ega bo'ldi.

bo'ldi. Bundan tashqari bu ikki davlat o'rtasida maxsus savdo shartnomasi tuzilib, Yaponiya ham boshqa mustamlakachi davlatlar Xitoyda ega bo'lgan barcha imtiyozlarni qo'lga kiritdi. Yaponiya Xitoyda sanoat korxonalarini qurish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Yapon-xitoy urushi Uzoq Sharqdagi vaziyatni va kuchlar nisbatini jiddiy tarzda o'zgartirib yubordi. Rossiyaning quruqlikdagi chegaralari yaqinida Yaponiyaning kuchayib borishi rus hukumatini jiddiy tashvishga solib qo'ydi. Buning ustiga rus hukumatining ham Shimoli-Sharqiy Xitoy va Koreya bo'yicha o'z rejalarini bor edi. Rus hukumati, Lyaodun yarim orolining Yaponiyaga berilishiga qarshi chiqib, Simonoseki shartnomasini qayta ko'rib chiqish taklifi bilan chiqdi. Rossiyaning uning ittifoqchisi bo'lgan Fransiya ham qo'llab-quvvatladi. Rossiyaning diplomatik faolligini Evropadan Uzoq Sharqqa ko'chirish tarafdori bo'lgan Germaniya ham ularga qo'shildi. Bu uch davlat Simonoseki shartnomasini qayta ko'rib chiqish talabi bilan Yaponiyaga murojaat qildi. Yaponiya bu uch davlatga qarshi chiqishga jar'at qilaolmadi va qo'shimcha kontributsiya olish evaziga Lyaodun yarim orolidan voz kechdi.

Xitoyning urushdagi mag'lubiyati bu erda Yaponiyadagi "Meydzi Islahotlari"dan ancha oldin e'lon qilingan "o'z-o'zini kuchaytirish" siyosatining to'la barbod bo'lganidan dalolat berardi. Urushning borishi so'nggi 25-30 yil ichida Xitoy va Yaponiya taraqqiyotining yo'llari va natijalaridagi farqlarni o'zida aks ettirdi.

Yapon-xitoy urushi bilan chet elliklarning Xitoyga qiziqishlari kuchaydi. Yaponiya Lyadoun yarim orolini qo'lga kiritishga intildi. Ingliz tadbirkorlari 1890 yildan boshlab Shanxayguandan shimolga qarab temir yo'l qurish rejasini ishlab chiqa boshladilar. Amerika monopoliyalari Guanchjou-Xankou-Pekin temir yo'lini qurish uchun kontsessiya olishga harakatni kuchaytirdilar.

Bu davrga kelib rus hukumati ham Xitoyda o'z rejalarini amalga oshira boshladi va boshqa davlatlarning Rossiya chegaralari yaqinida o'rmasishlariga halaqit berishga harakat qildi. Tsin hukumati, rus hukumatining talabi bilan, Lyaodun orolini Xitoyga qaytarilib berilganligi munosabati bilan Rossiya bilan munosabatlarni yaxshilashga harakat qildi. Li Xunchjan 1896 yilda Nikolay II ning toj kiyish tantanalarida qatnashish uchun Rossiyaga keldi. Moskvada rus-xitoy ittifoqi to'g'risida va Xitoy-Sharqiy temir yo'lini (XSHTY) qurish to'g'risida bitimlar imzolandi.

Rus hukumati Xitoy hukumatidan Shimoli-Sharqiy Xitoy orqali o'tib, Vladivostokni Sibir bilan bog'lovchi magistral temir yo'lini qurish uchun kontsessiya oldi. Temir yo'lining Xitoydan o'tgan hududlarida va Xarbinda eksterritoriallik tartiboti o'rnatildi. Bu hududlar rus hokimiyati nazorati ostiga o'tdi.

Shandunda ikkita nemis missionerlarining o'ldirilishi munosabati bilan Germaniya 1897 yil noyabrda Xitoyga o'z eskadrasini yubordi va Tszyaochjou ko'rfaziga qo'shin tushirdi. Germaniya 1899 yil martida Xitoyni Tszyaochjou viloyatini Tszyaochjouvan (Tsindao) harbiy porti bilan birgalikda 99 yilga "ijaraga" berilishi to'g'risidagi shartnomani imzolashga majbur qildi. Germaniya bundan

tashqari SHandun provinsiyasida temir yo'llar qurish va uning tog'-kon boyliklarini qayta ishlash huquqini qo'lga kiritdi.

Deyarli shu davrda Rossiya ham Lyuyshun (Port-Artur) va Dalyan (Dalniy) portlarini 25 yilga "ijaraga" olish haqida Xitoy bilan konventsiya tuzdi. Undan tashqari Rossiya SHXTYni Port-Artur bog'lovchi temir yo'l liniyasini qurish huquqiga ega bo'ldi.

Fransiya 1898 yil aprelida Guanchjouvan (Kanszyan) harbiy portini 99 yilga "ijaraga" oldi. 1898 yil mayida Angliya Veyxayvey portini bosib olib, uni "ijara" shartnomasi asosida "qonunlashtirib qo'ydi".

"Buyuk" davlatlar Xitoyni o'z ta'sir zonalariga bo'lib oldilar. Yantszi havzasida joylashgan 10 ta provinsiya Angliyaning ta'sir hududiga, YUNnan, Guandun va Guansi provinsiyalari Fransiya va qisman Angliya ta'sir zonasiga, SHandun Germaniya, Futszyan Yaponiya ta'sir zonasiga aylandi. Buyuk Xitoy devoridan shimoldagi hududlar chor Rossiyasining ta'sir zonasi bo'ldi.

AQSH Gavay orollari, Filippin, Guam orollarini bosib olib, Tinch okeanida Xitoy yo'nalishida o'z bazalari tizmasini tashkil qildi. Amerika diplomatiyasi Xitoy hududini boshqa davlatlar o'z ta'sir zonalariga taqsimlab olganini hisobga olib, 1899 yilda Xitoyga nisbatan "ochiq eshiklar" va "teng imkoniyatlar" deb nomlangan doktrinani e'lon qildi. Amerika monopoliyalari o'zlarining iqtisodiy qudratidan kelib chiqib, butun Xitoy hududini o'zlarining ta'siriga bo'ysundirishni ko'zlagan edilar.

XIX asr oxiriga kelib Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirish jarayoni o'z yakuniga etdi. Chet elliklar Xitoy bojxonasi va tashqi savdosi, muhim aloqa kommunikatsiyalari ustidan nazorat o'rnatdilar. XIX asr oxirida foydali temir yo'l kontsessiyalarini qo'lga kiritish uchun o'zaro kurash kuchaydi.

1895 yildan 1899 yilgacha bo'lgan 5 yil davomida Xitoyga umumiy miqdori 370 mln. iyan (o'sha davr kursi bo'yicha 500 mln. oltin so'm) bo'lgan ettita zayom qabul qildirildi. XIX asr oxiriga kelib davlat qarzi byudjet daromadlaridan 4 baravar oshib ketgan edi.

1897 yilga kelib Xitoyda 600 dan ortiq chet el firmalari va 10 mingga yaqin chet el fuqarolari bor edi. Mamlakat qishloq xo'jaligi ham chet elliklar manfaatlariga bo'ysundirilgan edi.

XIX asr oxiri -- XX asr boshlarida xitoy millatining shakllanishi ancha tezlashdi. XIX asr oxiridagi islohotchilik harakati yuzaga keldi.

Xitoy ziyolilari ichida shakllanib kelayotgan milliy savdo-sanoat va moliyaviy guruhlarining manfaatlarini ifodalovchi qatlam tashkil topdi. Ular ichidan mamlakatni chet elliklar zulmidan qutqarish uchun va islohotlar o'tkazishga da'vat etuvchilar etishib chiqdi.

Islohotlar o'tkazishga da'vat etish 1884-1885 yillardagi fransuz-xitoy urushidan keyin tobora ko'proq eshitila boshlandi. Mamlakatda iqtisodiy va siyosiy yangilanishlar o'tkazishni talab qiluvchi mualliflarning kitoblari, risolalari ko'paydi. Xitoyni konstitutsion monarxiyaga aylantirish va parlament chaqirish to'g'risidagi g'oyalar keng tarqala boshladi. Bu vaqtga kelib Kan Yuvey (1858-1927) islohotlar tarafdorlarining ko'zga ko'ringan vakillaridan biriga aylandi. Kan Yuvey qadimgi Xitoy tarixi, adabiyoti va falsafasini chuqur o'rgangan olim edi. U G'arb davlatlari va

Yaponiya tarixini hamda siyosiy nazariyalarini yaxshi o'rgangan bo'lib, konfutsiylik ta'limotining ba'zi tomonlarini G'arbning g'oyalari bilan birlashtirishga harakat qildi. Kan Yuvey islohotlar dasturini oldinga surib, uning fikricha bu islohotlar Xitoyni asoratga solinishidan xalos qilishi kerak edi.

Kan Yuvey 1888 yilda davlat mansabini egallash uchun imtihon topshirish vaqtida "Imperatorga maktub" nomli imtihon ishini tayyorladi, unda imperatorga murojaat qilib, Xitoyga tahdid solayotgan xavf-xatardan ogohlantirib, "mamlakatdagi mavjud tartibni o'zgartirishga, xalq ommasining qalbiga quloq solishga" chaqirdi. Lekin saroy amaldorlari bu maktubni imperatorga etkazmadilar. Shunga qaramasdan Kan Yuvey ilgari surgan g'oyalar Xitoy ziyolilarining ilg'or vakillari o'rtasida ommaviylashib ketdi.

1894-1895 yillardagi yapon-xitoy urushi islohotchilik harakatiga kuchli turtki berdi.

1895 yilning aprelida imtihon topshirish uchun Pekinga kelgan 1200 dan ko'proq olimlar Kan Yuvey tomonidan yozilgan "Kollektiv memorandum"ni ma'qulladilar va uni imperatorga topshirishga harakat qildilar. Bu memorandumda Simonoseki sulhini imzolashdan bosh tortish, Yaponiya bilan urushni davom ettirish va darhol islohotlar o'tkazishga da'vat qilingandi. "Kollektiv memorandum" g'oyalari mamlakatda keng yoyildi va jamoatchilik tomonidan qo'llab quvvatlandi. Islohotchilar faoliyati umumxitoy siyosiy harakati xarakteriga ega bo'la boshladi. Pekindagi islohotlar tarafdorlari o'zlarining "Davlatni kuchaytirish assotsiatsiyasi" nomli siyosiy klub tashkil qilib, gazeta chiqara boshladilar.

Kan Yuvey 1896-1897 yillarda Szyansu, Chjetszyan, Guandun, Guansida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bordi. Provinsiyalarda islohotlar tarafdorlari guruhleri va jamiyatlari tashkil topib, ular o'z maktablarini tashkil qilardilar va gazetalar chiqarardilar. Yirik tarixchi va adabiyotshunos Lyan Si Chao Kan Yuveyning yaqin maslakdoshiga aylandi. Xunan provinsiyasida islohotchilik harakatiga o'zining radikal qarashlari bilan ajralib turuvchi Tan Situn rahbarlik qilardi.

Islohotchilar mamlakatda jiddiy siyosiy kuchga aylanib bormoqda edilar. 1897 yilda boshlangan "ijara hududlari"ni bosib olish islohotchilar faoliyatini yanada kuchaytirdi. Kan Yuvey 1898 yilda markazlari Pekin va Shanxayda bo'lgan "Davlatni himoya qilish Ittifoqi"ni tuzdi. Bu Xitoyda zamonaviy shakldagi siyosiy partiyani tuzish uchun bo'lgan dastlabki urinish edi.

Islohotlar harakati manjurlar hukmron guruhleri lagerida imperator Guansuy bilan malika Tsi Si guruhleri o'rtasidagi kurashning kuchaygan davriga to'g'ri keldi. Imperator tarafdorlari islohotchilar bilan yaqinlashish va shu yo'l bilan Tsi Si guruhini chetga surib, o'z hokimiyatlarini mustahkamlashga intildilar.

Guansuy 1898 yilning boshida Kan Yuveyning dasturi bilan tanishib, uni ma'qulladi. 11 iyunda imperatorning islohotlar siyosatini e'lon qilgan "Davlat rejaları haqida"gi farmoni chiqarildi. Islohotlar loyihasi Kan Yuvey, Lyan Si-CHao, Tan Situn tomonidan ishlab chiqilgan edi. Islohotchilar 1898 yilning 11 iyunidan 21 sentyabrigacha bo'lgan 103 kun davomida Guansuy yordamiga tayangan holda o'z

rejalarini amalga oshirishga harakat qildilar, bu davr Xitoy tarixiga "Islohotlarning 100 kuni" nomi bilan kirdi.

Bu vaqt davomida davlat apparatini qayta tashkil etish va qo'shin sonini qisqartirish to'g'risida farmonlar chiqarildi, davlat mansablariga xalq ichidan chiqqan iste'dodli kishilar kelishi e'lon qilindi. Farmonlarda milliy sanoatni rivojlantirish, temir yo'llar qurish, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Maorif va madaniyat sohasida maktablarni qayta tashkil etish, maxsus texnika bilim yurtlarini ochish, matbuot va ilmiy jamiyatlar faoliyatini erkinlashtirish, gazetalarni soliqlardan ozod qilish kabi tadbirlar ko'zda tutilgan edi. Pekin universitetini ochishga tayyorgarlik ko'ridi.

Lekin islohotchilar Tsi Si atrofiga birlashgan kuchlarining qattiq qarshiligiga duch keldilar. Markazda va joylarda ko'pchilik amaldorlar imperatorning islohotlar to'g'risidagi farmonlarini bajarilishiga zimdan qarshilik qildilar. Bu davrda islohotchilar tashkilotlarining oshkora faoliyat ko'rsatishi va islohotlar g'oyalarning oshkora targ'ib qilinishi islohotchilarning yagona amaliy yutug'i bo'ldi. Lekin o'z qo'lida armiya va davlat apparatini mujassam etgan kuchlar tez orada qarshi hujumga o'tdi. Bir qator provinsiyalarda islohotchilar jamiyatlarining binolari va gazetalari redaksiyalari vayron qilindi. Poytaxtda Tsi Si va poytaxt general gubernatori Jun Lu boshchiligidagi islohotlar dushmanlari to'ntarish o'tkazishga tayyorlandilar.

Bunday qiyin vaziyatda islohotchilar Yuan Shikay boshchiligidagi "yangi armiya"ni o'z tarafiga tortishga va uning yordamida Tsi Si guruhining hokimiyat tepasiga kelishini oldini olishga harakat qildilar. Lekin islohotchilarning zaifligini ko'rgan Yuan Shikay ularning rejasini Tsi Siga etkazadi. Tsi Si guruhi 21 sentyabrda saroy to'ntarishini amalga oshirdi. Guansuy hokimiyatdan chetlashtirildi va uy qamog'iga olindi. Tan Situn va islohotchilarning yana bir necha ko'zga ko'ringan rahbarlari qatl qilindi, Kan Yuvey va Lyan Sichao Yaponiyaga qochdi. Tsi Si hukumati bir oy davomida islohotlar bo'yicha chiqarilgan barcha farmonlarni bekor qildi.

XIX asr oxiridagi islohotchilik harakati mag'lubiyatga uchasada, u muhim ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Islohotchilik harakatida vatanparvarlik kayfiyati yaqqol namoyon bo'ldi.

Xitoyni xorijiy davlatlar tomonidan taqsimlanib olinishi natijasida xalq ommasining ahvoli yanada yomonlashdi. Chet el kompaniyalari tomonidan temir yo'llarning qurilishi, Xitoy qirg'oqlari bo'yab paroxod qatnovining yo'lga qo'yilishi yuz minglab yukchilar, dengizchilarning ishsiz va och qolishiga olib keldi. Xorijiy davlatlar tomonidan sanoat mollarining ommaviy tarzda keltirilishi hunarmandlarning kasod bo'lishiga olib keldi. Dehqonlar va shahar kambag'allarining ahvoli tabiiy ofatlar tufayli yanada yomonlashdi. Deyarli har yili yuz beradigan daryo toshqinlari ahvolni yanada yomonlashishiga olib ketardi.

Xitoy dehqonlari ichida avvalgidek maxfiy tashkilotlar katta ta'sir kuchiga ega edi. Ayniqsa "Ixtuan" ("Tinchlik va adolat otryadlari") jamiyati katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, uni ba'zan "Iksyuan" ("Tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan mush") deb ham atardilar. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi turli-tuman bo'lib, unda dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilardilar, lekin jamiyatda kasodga uchragan

hunarmandlar, askarlar, amaldorlar, shenshilar ham ko'pchilikni tashkil qilardi. Bu jamiyat a'zolari qadimiy gimnastika va qo'l jangi sirlarini yaxshi egallaganlar, shuning uchun Evropa matbuoti bu qo'zg'olonni "Boksyorlar qo'zg'oloni" deb atagan edi.

Ixtuanlar qo'zg'oloni (1899-1900) "Tsinni himoya qilamiz, chet elliklarni yo'q qilamiz" shiori ostida bo'lib o'tganligi uchun dastlabki davrda Xitoy hukumati bu qo'zg'olonni ancha qo'llab-quvvatladi. Xorijiy davlatlar qo'zg'olonga qarshi faol harakat qildilar. Qisqa vaqt ichida 8 davlat 20 ming kishilik armiya tuzdi. Ular 1900 yil 3 avgustda Pekinga yurish qilib, 14 avgustda uni egalladilar. Sianga qochib ketgan malika Tsi Si hamma aybni ixtuanlarga yukladi. Xitoy armiyasi bosqinchilar armiyasiga qo'shilib, qo'zg'olonni bostirishga kirishdi. 1900 yilning sentyabrda qo'zg'olon bostirildi. Xitoy hukumati 1901 yil 7 sentyabrda qo'zg'olonni bostirgan davlatlar bilan Yakunlovchi protokolni imzolashga majbur bo'ldi. Bu protokolga ko'ra Xitoy bu davlatlarga bir qator yangi imtiyozlar va huquqlar berish, 450 mln. lyan kumush (750 mln. oltin so'm) tovon to'lash va chet elliklarga qarshi chiqqanlarga nisbatan o'lim jazosi qo'llash majburiyatini oldi.

Xitoy hukumati islohotlar o'tkazishga harakat qildi. Yangi siyosatning maqsadi o'zgarigan vaziyatga moslashish, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, ma'muriy boshqaruv apparatini tartibga solishga qaratilgan edi. Sud tizimida, armiyada islohotlar o'tkazildi, savdo ishlari bo'yicha vazirlik tashkil etildi. 1905 yilda davlat mansablarini egallash uchun belgilangan davlat imtihonlari tizimi bekor qilinib, unga muqobil sifatida o'rta va oliy o'quv yurtlari tarmog'i tashkil etildi.

Rus-yapon urushidan (1904-1905) keyin Yaponiyaning Xitoyga tazyiqi yanada kuchaydi, Lyaodun yarim oroli Yaponiyaga o'tdi. 1909-1910 yillarda Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSH banklarining konsorsiumi tashkil etildi.

Xitoyda va xitoylik muhojir talabalar yashaydigan qo'shni davlatlarda turli xil ittifoq va tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Ular o'z harakat dasturlari e'lon qilingan gazeta-jurnallar chiqarardilar, varaqalar, xitobnomalar tarqatardilar.

Xitoy inqilobchilari ichida Sun Yatsen (1866-1925) alohida rol o'ynadi. U yoshligidanoq inqilobiy faoliyat bilan shug'ullana boshladi va Gonkongda meditsina institutida o'qiyotgan vaqtda inqilobiy tashviqot yuritdi. Uning rahbarligida 1895 yilda Guanchjouda qo'zg'olon ko'tarish rejalashtirildi. Lekin uning inqilobchi tashkiloti fosh qilinib, uning bir necha safdoshlari qatl qilindi, Sun Yatsen chet elga chiqib ketishga muvaffaq bo'ldi. U chet elda 1894 yilda "Xitoy uyg'onish jamiyati"ni tuzdi, jamiyatning maqsadi Tsinn sulolasini ag'darib tashlash, mamlakatda demokratik hukumat tashkil etish va radikal islohotlarni amalga oshirish edi. Sun Yatsen 1902-1903 yillarda o'z faoliyatini kuchaytirib, ittifoqning bir qator yangi filiallarini ochdi. Bu vaqtga kelib Sun Yatsenning "Xalqning 3 tamoyili"dan iborat ta'limoti to'la shakllangan bo'lib, u quyidagilardan iborat edi:

1. Millatchilik – manchjurlar sulolasini ag'darish va mustaqil davlat barpo etish uchun xitoy millatini birlashtirish;
2. Xalq hokimiyati – demokratik respublika o'rnatish, xalq hokimiyatini qaror toptirish;

3. Xalq farovonligi – mehnatkash xalq moddiy ahvolini yaxshilash, agrar islohotni amalga oshirish, dehqonlarga er berish;

Sun Yatsen tashabbusi bilan Tokioda 1905 yil sentyabrda turli inqilobiy tashkilotlar vakillaridan iborat Ta'sis s'ezdi (yig'ini) o'tkazilib, birlashgan inqilobiy partiya – "Xitoy inqilobiy birlashgan ittifoq" ("Tunminxoy") tuzildi. Unga Xitoydagi 18 provinsiyadan 17 tasida faoliyat ko'rsatayotgan manjurlarga qarshi bo'lgan turli xil tashkilotlar kirdi. Sun Yatsen "Tunminxoy"ning prezidenti qilib, Xuan Tsin vitse prezidenti qilib saylandilar.

Tunminxoyning siyosiy dasturida manjurlar sulolasini ag'darish, Xitoyning shon-shuhrati va qudratini qayta tiklash, respublika o'rnatish va erga bo'lgan huquqni tenglashtirish kabilar o'rin olgan edi. "Birlashgan ittifoq" "Minbao" ("Xalq") gazetasini chiqara boshladi.

Tsin hukumati mamlakatda o'ziga qarshi harakatning kuchayib borayotganini ko'rib, halokatan qutulish maqsadida parlament tizimiga asoslangan konstitutsion monarxiya o'rnatish masalasini o'rta qo'ydi. Lekin 1908 yilda malika Tsi Si va imperator Guansuyning o'limi voqealarning borishini tezlashtirib yubordi.

"Birlashgan ittifoq" qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1910 yilda dehqonlarning 80 ta ochlik isyonlari bo'lib o'tdi. Askarlar ichida ham norozilik kuchaydi.

1911 yil 10 oktyabrda Uchanda qo'zg'olon boshlandi va u butun mamlakat uchun signal bo'ldi. Bu kun Xitoy tarixiga Sinxay inqilobining boshlangan kuni bo'lib kirdi (o'sha davrdagi Xitoy yil hisobi bo'yicha 1911 yil 30 yanvardan 1912 yil 17 fevralgacha bo'lgan davr Sinxay yili deb atalgan).

Inqilob boshlanib ketgach bir necha kun ichida Uchan va unga yondoshgan Xankou va Xanyan shaharlarida ham tsinlar hukumatining hukmronligi tugatildi. Keyinchalik boshqa shahar va provinsiyalar ham inqilobchilar tomoniga o'tdi. Oktyabr-noyabr oylari davomida Xunan, Szyansi, SHensi, SHansi, YUNnan, Anxoy, Szyansu, Guandun, CHjetszyan, Shanxay va boshqa provinsiyalarda inqilob g'alaba qozondi. 15 provinsiya Tsinlar hukumatiga bo'ysunishdan bosh tortdi. Manjurlar sulolasi ag'darib tashlandi.

Mamlakatda hokimiyat joylardagi rahbarlar qo'liga o'tdi. Mamlakat shimolida hokimiyat katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan general Yuan Shikay qo'lida to'plana bordi, u Bosh vazir bo'ldi. 1912 yil 12 fevralda monarxiya rasmiy ravishda bekor qilindi. Xitoyga qaytib kelgan Sun Yatsen mamlakat janubida Xitoy Respublikasining muvaqqat prezidenti qilib saylandi. U Xitoyda monarxiya ag'darilgach, mamlakat birligini saqlab qolish maqsadida Yuan Shikay foydasiga prezidentlikdan voz kechishga rozi bo'ldi.

Milliy majlis hukumat qarorgohi Nankinda bo'lishini belgiladi, bunday sharoitda Yuan Shikay inqilobiy kuchlar tomonidan nazorat qilib turilardi. Lekin Yuan Shikay turli bahonalar bilan Pekinni tashlab ketishni istamadi, bu bilan u parlamentsiz ish yuritishni va o'z diktaturasini o'rnatishni boshladi.

Sun Yatsen bunday holatga javoban "Birlashgan ittifoq" asosida 1912 yilda yangi siyosiy partiya – "Gomindan" (Milliy partiya) tuzdi va parlament saylovlarida qatnashishni mo'ljalladi. Lekin Yuan SHikay 1913 yil noyabrda parlamentni tarqatib

yubordi. 1914 yil may oyida yangi konstitutsiya loyihasi e'lon qilindi, unda prezidentga deyarli cheklanmagan vakolatlar berilgan edi, shu bilan birga ag'darib tashlangan monarxiyaning ko'pgina mansab, unvon va darajalari qayta tiklandi.

1915 yilda Yaponiya Germaniyaning 1898 yilda Shandunda egallagan hududlarini bosib oldi va Xitoyni qaram davlatga aylantiruvchi "21 talab"ni qo'ydi (Shhandun provinsiyasini Yaponiyaga berish, Janubiy Manjuriya va Ichki Mo'g'ulistonda Yaponiyaga alohida huquqlar berish, Xitoyning eng muhim sanoat korxonalarini ustidan yapon nazoratini o'rnatish, unga temir yo'l kontsessiyalarini berish, yapon siyosiy, moliyaviy va harbiy maslahatchilarini Xitoyga taklif etish, Xitoyning eng muhim hududlarida yapon zobitlari rahbarligida birlashgan yapon-xitoy politijasini tashkil etish va sh.k.). Yuan Shikay 1916 yilda vafot etgach Xitoyda markaziy hokimiyat zaiflashdi va Xitoy provinsiyalaridagi hokimiyat generallar qo'lida to'plana bordi. Xitoy tarixida bir necha marta yuz bergan inqirozlar davridagi kabi mamlakat siyosiy hayotida harbiylar yana uzoq muddatga birinchi o'ringa chiqib oldilar. Parlament goh chaqirilar, goh tarqatib yuborilar, uning siyosiy hayotdagi roli pasayib ketgan edi. Xitoy inqilobining etakchisi Sun Yatsen ham shunday ahvolga tushib qolgan edi: uni ham goh prezident qilib saylashar, goh mansabidan tushirilardi edi, amalda hamma narsa u yoki bu hududlarda hukmronlik qilayotgan harbiylar hohish-irodasiga bog'liq bo'lib qolgan edi.

Birinchi jahon urushi boshlanib ketgach, Xitoy dastlabki davrda betaraf davlat bo'lib qoldi. Lekin Antanta davlatlari, ayniqsa Fransiya Xitoyning ulkan inson resurslaridan foydalanish uchun uni urushga tortishga harakat qildilar. Bundan tashqari Xitoyning Antanta tarafida turib urushga kirishi bu erda yashayotgan ko'p sonli nemislarning qo'poruvchilik faoliyatini to'xtatishga ham imkon berardi. Antanta davlatlarining sa'y-harakatlari natijasida Xitoy hukumati 1917 yil avgustida Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Bir necha yuz ming xitoylik yuk tashuvchilar front va front orqasidagi ishlarda ishlatisht uchun Evropaga olib ketildi.

3 mavzu. Hindiston XVII asr o'rtalari-XX boshida.

XVII asr o'rtalarida Boburiylar (Buyuk Mogollilar) davlatiga Shimoliy Hindiston va Markaziy Hindistonning bir qismi, afg'on erlari (Peshavor, Qobul, Qandag'or (1653 yilgacha) kirardi. Janubdan Boburiylar davlati Bijapur, Golkonda, Shimolda Nepal, Tibet va Assam bilan chegaradosh edi.

Aurangzeb (1658-1707) podshohlik qilgan davrda davlat 19 viloyatga (subalarga) bo'linardi edi, ularni podshoh tomonidan tayinlangan subadorlar boshqarardi edi. Subadorlar o'zlariga ajratilgan viloyatlarda to'liq ma'muriy, harbiy va sud to'liq hokimiyatiga ega edi.

Podshoh barcha erlarni oliy mulkdori hisoblanardi. Erlarning ko'p qismi djag'irdorlar, zamindorlar in'omdorlar qo'lida edi. Vaqf erlari ham mavjud edi. Harbiy qumondonlarga xizmatlari uchun ba'zi erlarning solig'ini o'zlariga olish huquqi-jag'irlar berilgandi. Jag'irdorlar o'z foydalarining ma'lum bir qismini o'z

harbiy martabasiga mos bo'lgan yollanma qo'shinni saqlashga ishlatishi lozim edi. Jag'irdorlik merosiy emasdi. Zamindorlarning jag'irdorlardan farqi shunda ediki, ular yonlanma qo'shinlarni saqlashlari shart emas edi. Ular podshoh uchun dehqonlardan er solig'i yig'ishar edi, davlat solig'ini yig'ishdagi xizmatlari uchun o'zlariga yig'ilgan solig'ni 10% qoldirar edilar.

Zamindorlar asosan hind zodagon er egalariidan kelib chiqqan, jag'irdorlarning ko'p qismi esa musulmonlar edi. Biror shaxsning qilgan xizmatlari yoki unga nisbatan moyillik belgisi sifatida berilgan erlar in'om erlar deyilardi.

Bu mulkdan olinadigan soliq to'liq in'omdorga ketar edi. Odatga ko'ra in'omdorning o'limidan keyin hukmdorlar uning bolalarini merosxo'r deb tasdiqlar edilar. Podshohlar in'omini asosan musulmon ruhoniylariga sovg'a qilishar edi. Vaqf deb nomlangan erlardan olinadigan machit, diniy maktab (madrasalar) va boshqalar uchun sarf qilinardi.

O'z tarkibi ko'ra hind jamoalari bir-biriga o'xshamas edi. Davlat mulki hisoblangan er amalda qishloq jamoasiga foydalanishga berilardi. Har bir jamoadan renta soliq olinardi. Jamoa ichida ekin maydonlari dehqonlarga meros mulk sifatida taqsimlanardi. Har bir qishloq jamoasi birgalikda 10-12 hunarmandni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashi kerak edi, bu hunarmandlar qishloq jamoasini kerakli ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlardilar. Bundan tashqari qishloq jamoasi qishloq oqsoqoli, mirzasi, soliqlar yig'uvchi, braxman va boshqa mansabdor kishilarni ham ta'minlashi kerak edi.

Qishloq jamoasi a'zolarining mansab va majburiyatlari avloddan avlodga meros bo'lib o'tardi, shu yo'l bilan dehqonlar va qishloq hunarmandlari erga qattiq biriktirib qo'yilgan bo'lib, ular jamoadan chiqib ketsalar o'z kasb hunarlari bilan shug'ullanishdan maxrum bo'lib, "kelgindi" odamlarga aylanardilar.

Podshoh mamlakat hududidagi barcha erlarning egasi xisoblanardi. Lekin podshohning bevosita tasarrufida barcha ekiladigan erlarning 1/8 qismi bo'lib, ulardan olingan soliq qo'shinni va podshoh saroyini ta'minlashga ketardi.

XVII asrda imperiya hukmdorlari soliq yig'ishni aholidan biror turdagi yig'im yoki soliq undirish huquqini hukumatdan sotib olish negizida faoliyat olib borgan soliq undiruvchilar qo'lga topshira boshladilar. Boyib ketgan soliq yig'uvchilar bu vazifani o'z avlodlariga meros qilib o'tkaza boshladilar.

Hindistonni Boburiylar davlati qo'l ostida birlashtirilishi bu erdagi o'zaro urushlarning kamayishiga, savdo va hunarmandchilikning rivojlanishiga yordam berdi. Mamlakatning ba'zi hududlarida qishloq ho'jaligining ixtisoslashuvi boshlandi. Natural soliq pul solig'iga aylantirildi. Qishloq jamoalarining iqtisodiy ajralib qolishi (alohidalashuvi) yo'qola bordi. Qishloq hunarmanchiligining mollari bozorlarda tobora ko'proq sotila boshladi. Shu bilan birga shaharlarning iqtisodiy roli o'sdi, shahar hunarmandlari va savdogarlarining soni ko'paydi, shahar bilan qishloq o'rtasida mahsulot ayirboshlash o'sdi, dastlabki manufakturalar paydo bo'ldi.

XVI asrda va XVII asrning 1-yarmida Boburiylar davlatida iqtisodiy yuksalish ro'y berdi, ammo bu yuksalish jamiyatdagi ziddiyatlar bilan birga bordi.

XVII asr 2-yarmidan ijtimoiy munosabatlarning inqirozi kuchaya boshlaydi. Jamoachi dehqonlar o'z xo'jaligini yuritishga tobora qiynala boshladilar. Dehqonlarning ko'pchiligi o'z erlarini tashlab, qishloqdan qochib keta boshladilar.

Iqtisodiy tushkinlik ijtimoiy kurashning kuchayishiga olib keladi. Xalq ommasining mahalliy hukmdorlarga va zodagon er egalariiga qarshi chiqishlari imperiyaning zaiflashuvi va qulashining asosiy omillaridan biri bo'ldi. Bu kurash Hindistondagi ayrim xalqlarning diniy harakatlari va markaziy hokimiyatga qarshi kurash bilan qo'shilib ketdi.

Panjobdagi qo'zg'olon sikklar ta'limoti bayrog'i ostida keng yoyildi. XVI asr boshidayoq Panjob shaharlarida sikklarning diniy mazhabi tashkil topgan edi. Sikx so'zi "o'quvchi", "shogird" ma'nosini bildirgan. Uning asoschisi va birinchi gursi (sikklar boshlig'ining unvoni, "ustoz, o'qituvchi" ma'nosini bildirgan) Nanak (1469-1538) o'z ta'limotida kasta-tabaqa imtiyozlariga qarshi chiqib, barcha odamlarning xudo oldida tengligini e'lon qilgan. Sikklar o'zlarining asosiy vazifalaridan biri bu – hindlar bilan musulmonlarni murosaga keltirish deb bilganlar.

Dastlabki sikxchilik Panjobdagi o'ziga to'q shahar aholisining zodagon er egalariiga qarshi muxolifatini ifoda etgan. Lekin XVII asr II-yarmidan boshlab sikx mazhablari o'zgarib boshlagan. Iqtisodiyotning inqirozi natijasida mazhab saflariga aziyat chekkan minglab dehqonlar va hunarmandlar qo'shila boshlagan. Mazhabning faoliyati jangovar tus ola boshladi. Sikklarning o'ninchi gursi Govind Singx (1675-1708) o'zining cheklanmagan hokimiyatidan voz kechdi va hokimiyatni sikklar jamoasiga – xalsega berdi. U butun erlar sikklarga tegishli bo'ladigan "haqiqiy podshohlik" qurish uchun hal qiluvchi qurolli qo'zg'olonga chaqirdi.

Govind Singx davrida musulmon va hindu dehqonlari va hunarmandlari ham sikklarga qo'shildilar. Sikxchilik induizm dini mazhabidan mustaqil dinga aylandi. Sikklar sochlari va soqolini o'stirib yurardilar, ular yonida doimo 3 ta metall buyum – xanjar, taroq va qo'lida zanjir (braset) bo'lishi kerak edi. Sikklar ismiga "Singx" ("Sher") so'zi qo'shib aytilardi.

Govind Singx vafotidan keyin mazhabga dehqon Banda rahbarlik qildi. Uning rahbarligidagi qo'zg'olon Panjobning katta qismini qamrab oldi. Podshoh hukumati barcha qo'shinlarni qo'zg'olonchilarga qarshi tashlab, uni bostirdi, Banda qatl qilindi. Sikklarning bir qismi tog'larga chiqib ketib, partizanlik urushlarini davom ettirdi.

Sikklar qo'zg'oloni vaqtinchalik mag'lubiyatiga uchrashiga qaramay, Shimoliy Hindistonda Boburiylar davlati kuchlariga katta zarar etkazdilar. Sikklar keyinchalik bir necha marta qo'llariga qurol olib kurashdilar. Ular uzoq davom etgan kurashdan keyin 1765 yilda Panjobda o'z hokimiyatini o'rnatdilar va mustaqil davlat tuzilganligini e'lon qildilar. Er sikklar jamoasining mulki deb e'lon qilindi.

Agar sikklar harakati dehqonlarning zodagon er egalariiga qarshi kurashi va panjobliklarning Boburiylar hokimiyatidan ozod bo'lishi hamda o'z davlatlarini barpo etish uchun kurashi bilan qo'shilib ketgan bo'lsa, yana bir halq harakati - jatlar qo'zg'oloni esa eng avvalo zodagon er egalariiga qarshi yo'naltirilgan edi.

Jatlar shimoli-g'arbiy Hindistondagi dehqonchilik kastasi edi. XVII asrning so'nggi choragi va XVIII asr boshlarida Agra-Dehli hududidagi jatlar o'z qishloq

qo'soqollari boshchiligidagi Boburiylar hukumatiga qarshi bir necha marta qo'zg'olon ko'tardilar. Eng yirik qo'zg'olon 1672 yilda bo'lib, qo'zg'olonchilar bir qator joylarda zodagon er egalarini va soliq yig'uvchilarni haydab yuborib, Dehliga yurish qildilar, lekin bu qo'zg'olon bostirildi.

O'sha vaqtdagi tarixiy sharoitlarga ko'ra sikxlar va jatlar qo'zg'oloni Boburiylar davlatiga sezilarli darajada zarba berdi.

Maratxlarda dehqonlarning zodagon er egalariga qarshi kurashi maratxlarning imperiya hokimiyatidan ozod bo'lish uchun olib borgan kurashi bilan qo'shib ketdi.

Maratxlarning mamlakati Maxarashtra Boburiylar davlatiga qo'shib olingach, u bir qancha yirik jag'irlarga ajratilib, musulmon zodagonlariga berilgan edi. XVII asr o'rtalarida boshlangan dehqonlar qo'zg'olonida Boburiylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlat tuzish tarafdorlari bo'lgan mayda va o'rta zamindorlar ham ishtirok qildilar. Qo'zg'olonning atoqli rahbari er egalari vakili Shivadji Bxonsle (1627-1680) edi.

Maxarashtra mustaqilligi uchun kurashda dehqonlarning ommaviy ishtirok qilishi Shivadjiga kuchli armiya tuzish imkonini berdi. Har bir qishloq jamoasi ma'lum miqdorda qurollangan askar etkazib berardi. Bir millatga mansub bo'lgan, harakatchan va jang bo'ladigan joylarni yaxshi biladigan maratx otliq askarlari guruhlari podshohning yollanma armiyasidan ustun kelardi.

1674 yilga kelib maratxlarning erining katta qismi ozod qilindi va Shivadji mustaqil Maxarashtra davlatining boshlig'i bo'ldi.

Shivadji va maratx zodagon er egalari o'z siyosatlarida qurollangan dehqonlar bilan hisoblashishiga majbur edilar. Musulmon jag'irdorlar quvib yuborilgach, renta solig'i hosilning 50-60 % dan 30-40 % ga tushirildi. Lekin Maxarashtrada asta sekin yirik er egaligi shakllanib bordi. Bu esa Shivadji vafotidan keyin maratx zodagon er egalari o'rtasida urush, nizolarning avj olishiga olib keldi, natijada Podshoh hukumati qo'shinlarining harakatlari muvaffaqiyatga erisha boshladi. 1689 yilda Shivadjining o'g'li va vorisi asir olinib, qatl etildi, uning kichik yoshli merosxo'ri Shaxu Dehliga olib ketildi.

Boburiylar davlatining zafilashishi natijasida XVIII asr boshida maratxlarning o'z davlatini qayta tikladilar. 1707 yilda SHaxu o'z vataniga yuborildi va maratxlarning davlatining hukmdori bo'ldi. Amalda esa hokimiyat peshvo (bosh vazir) unvonini olgan qudratli maratx zodagon er egalaridan birining qo'lida edi. Keyinchalik esa taxtda o'tirgan Shaxu vorislarini o'z qo'g'irchoqlariga aylantirgan peshvolar sulolasi mamlakatni boshqardi. 1725 yildan boshlab Puna shahri peshvolarining poytaxtiga aylandi.

XVIII asrning dastlabki 1/3 qismida maratxlarning Markaziy Hindistonning Gujarotdan Bengal qo'ltig'igacha bo'lgan katta qismini bosib oldilar. Bosib olingan hududlarda peshvolar mustaqil bo'lgan yangi davlat birlashmalari tashkil topdi. Shu tariqa o'rta yirik knyazlik - Nakpur, Gvalior, Indaur va Baroda tashkil topdi. Bu knyazliklar Maxarashtra atrofiga birlashib, peshvo boshchiligidagi konfederatsiya tashkil etdilar. Maratxlarning butun Hindistonni o'ziga bo'ysindirishni istagan kuchga aylandi.

To'xtovsiz davom etayotgan o'zaro urushlar va qo'zg'olonlar natijasida savdoti qisqarib ketdi, iqtisodiy va siyosiy inqiroz kuchaydi, shaharlar tushkunlikka yuz tutdi. Markaziy hukumatning hokimiyati zaiflashib, siyosiy tarqoqlikka intilish kuchaydi.

XVIII asr boshida imperiyaning yirik viloyatlarining subador va navob unvoniga ega bo'lgan hokimlari mustaqil hukmdorlarga aylandilar. XVIII asrning birinchi choragida Panjob va maratxlarning mulklaridan tashqari Bengaliya, Haydarobod, Aud ham amalda mustaqil davlatlarga aylandilar. Radjaston knyazligi ham mustaqillikka erishdi. Dehli atrofida ham bir nechta mustaqil knyazliklar tashkil topdi. Boburiylar podshohlari mamlakatning oliy hukmdorlari hisoblanarlarda ularning hokimiyati Dehli va uning yaqin atrofi bilan cheklanib qolgan edi.

Hindistonning zaiflashganidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1739 yilda Panjobni bosib oldi va Mo'g'ullar qo'shinini mag'lubiyatga uchratib, Dehliga kirib bordi. Bu erda u katta o'ljalarni qo'lga kiritdi hamda podshohni Sind, Peshavor va Qobulni o'ziga berishga majbur qilib, vataniga qaytdi. Nodirshohning bosqini Boburiylar davlatining harbiy jihatdan kuchsizligini butun Hindistonga ko'rsatdi.

Boshqa qo'shni davlatlarning ham Boburiylar davlatiga hujumi kuchaydi. 1747 yilda Nodirshoh o'lgach, uning davlati parchalanib ketdi va Ahmadshoh Durroniy boshchiligidagi mustaqil afg'on davlati tashkil topdi, bu davlat qo'shni davlatlarga nisbatan harbiy yurishlarini avj oldirib yubordi. Afg'onlar qisqa vaqt ichida Panjob, Kashmir va Dehli ustidan o'z hukmronligini o'rnatdilar.

Lekin afg'onlar shimoli-g'arbiy Hindiston ustidan o'z hukmronliklarini saqlab qola olmadilar. Sikxlar afg'onlarga qarshi kurashga o'tlanib, Panjobdagi afg'on garnizonlarini qirib tashladilar.

Maratxlarning konfederatsiyasi Hindistonda hukmronlikni qo'lga olish va mamlakatni birlashtirish uchun faol kurash olib bordi. Maratxlarning armiyasi Shimoliy Hindistonga kirib borib, Dehlini qo'lga kiritdi va afg'onlarni Hind daryosidan narigi tomonga uloqtirib tashladi. Bundan norozi bo'lgan Ahmadshoh 1759 yilda 40 ming kishilik qo'shin bilan Hindistonga yurish qildi. Maratxlarning 100 ming kishilik qo'shin to'pladi, lekin ular asosan yollanma askarlardan iborat edi. Maratx qo'shinlari o'zlarining avvalgi jangovarlik qobiliyatini yo'qotgan edilar. Afg'onlar Hindistondagi maratxlarning va musulmonlarning o'rtasidagi ziddiyatlardan ham foydalandilar. 1761 yil boshida Panipat tekisligida hal qiluvchi jang bo'lib, maratxlarning batamom mag'lubiyatga uchradi.

Ahmadshoh maratxlarni mag'lubiyatga uchratgan bo'lsa ham Hindiston ustidan o'z hukmronligini o'rnatolmadi va tez orada o'z qo'shinlari bilan Afg'onistonga qaytib ketdi.

Maratxlarning konfederatsiyasi ichidagi o'zaro urushlar, bir qator mustaqil knyazliklarning tashkil topishi maratxlarning Hindistonni o'z hokimiyati ostida birlashtirishga bo'lgan harakatlarini yo'qqa chiqardi va evropaliklarning Hindistonga kirib kelishini osonlashtirdi.

Evropaliklar XVI asrdan boshlab Hindistonga kirib kela boshladilar. Portugallar Hindistonga boradigan yo'lni kashf etishgach, ular Malabar qirg'og'idagi

bir qator bazalarni qo'lga kiritdilar. Lekin etarli kuchga ega bo'lmaganliklari sababli mamlakat ichkarisiga kira olmadilar.

Portugaliyaliklarning Hindiston bilan savdo sohasidagi ustunliklari gollandlar tomonidan yo'qqa chiqarildi. XVII asrning 2-yarmida Gollandiya Portugaliyaning Hindistondagi bir qator bazalarini egallab oldi.

Inglizlar 1612 yilda Boburiylar hukumatidan Suratda vaqtinchalik faktoriya qurish huquqini oldilar va bu faktoriya 1668 yilda Bombeyga ko'chirildi. Bundan tashqari ular 1640 yilda Madrasda o'rnatib oldilar. 1690 yilda esa podshoh tomonidan berilgan erda istehkomli Kalkutta shahrini qurdilar. Natijada 3 ta prezidentlik: Madras, Bombey va Bengal prezidentligi tashkil topdi.

XVII asrning oxirgi choragida fransuzlar ham Hindistonga kirib kela boshladilar. Ularning faoliyat markazi asosan Pondisherida bo'lib, Bengaliyada CHandernahor istehkomli faktoriyalari bor edi.

Evropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati ular tomonidan tashkil etilgan Ost-Indiya kompaniyalari orqali olib borilgan. Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasidan keyin XVII asr boshida ingliz, XVII asrning 2-yarmida fransuz Ost-Indiya kompaniyalari tashkil etildi, bu kompaniyalar o'z mamlakatlarida Sharq savdosida monopol huquqqa ega edilar. Ular Hindistonda savdo faktoriyalari barpo etib, bu erda sotib olingan hind mollarini Evropada monopol yuqori baholarda sotardilar.

XVIII asr o'rtalarida evropaliklarning Hindistondagi faoliyati yangi xususiyatlarga ega bo'ldi. Dastlab fransuzlar, keyinchalik inglizlar Hindistondagi ichki kurashdan o'zlarining manfaatlari uchun foydalana boshladilar.

Fransiyaning Hindistondagi mulklari general-gubernatori Dyupleks mustamlakalar bosib olish va inglizlarga qarshi kurashish uchun fransuz zobitlari rahbarligidagi hind yollanma qo'shinlari –sipohiyardan iborat harbiy qismlar tashkil etib, ularga evropacha jang qilish usullarini o'rgatish va evropacha qurollantirishni amalga oshirdi.

Fransuzlar turli hind davlatlari va knyazliklari o'rtasidagi kurashdan foydalanib, ba'zi knyazlarga ularning knyazliklarini himoya qilishni o'z zimmlariga olishni taklif etdilar, buning uchun bu knyazliklar hududiga fransuzlarning "yordamchi qo'shinlari" kiritilishi kerak edi. Knyaz esa bu qo'shinni mablag' bilan ta'minlab turishi va o'z tashqi siyosatini fransuz Ost-Indiya kompaniyasi bilan muvofiqlashtirishi kerak edi. XVIII asrning 40 yillarida fransuzlar ana shunday "subsidiar shartnomalar" tuzish asosida yirik Haydarobod knyazligini va unga qo'shni bo'lgan Karnatakni o'zlariga bo'ysundirib oldilar.

Fransuzlarning Hindistonda kuchayishini istamagan inglizlar ham sipohiy qismlar tuzib, hind hukmdorlarining kurashiga faol aralasha boshladilar.

"Avstriya merosi uchun" bo'lgan urushda (1740-1748) Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi urush harakatlari Hindistonda ham avj olib, 1754 yilgacha davom etdi. Bu urush natijasida fransuzlarning Hindistondagi ta'sir doirasi ancha cheklandi. 7 yillik urush esa (1756-1763) Hindistondagi ingliz-fransuz raqobat kurashiga yakun yasadi. Fransiya qo'lida faqat Pondisher va Hind okeani sohillaridagi 4 ta shahar qoldi. Angliya esa bu vaqtda katta hududlarni bosib olgan edi.

Kalkutta, Madras va Bombey ingliz Ost-Indiya kompaniyasining asosiy bazalari va markazlari hisoblanardi. Tamillar yashovchi Karnatak knyazligi ham bu kompaniyaning vassaliga aylangan edi, kompaniya Bengaliyada ham o'z faoliyatini avj oldirgan bo'lib, bu erda u 150 ta ombor va 15 ta yirik faktoriyaga ega edi.

1756 yilda taxtga o'tirgan yosh navob Siroj-ud-Daula ingliz mustamlakachilariga qarshi urush harakatlarini boshlab yubordi va Kalkuttani qo'lga kiritdi. Lekin inglizlar Madrasdan etib kelgan harbiy dengiz ekspeditsiyasi yordamida Kalkuttani qaytarib oldilar.

Ingliz desant qo'shinlari ko'mondoni Robert Klayv bu yutuqni mustaxkamlashga intildi. U Siroj-ud-Daula bilan dushman bo'lgan zodagon er egalari guruhi bilan til birlashtirdi. Bu guruhga kirgan navob qo'shinlari ko'mondoni Mir Jafar bilan rasmiy shartnoma tuzildi, unga ko'ra Jafar inglizlar hujumi boshlanganda ularga yordam berishni va'da berdi, inglizlar esa Jafarga Bengaliya navobi bo'lishiga yordam berishlarini va'da qildilar.

800 evropalik va 2200 sipohiydan iborat Klayv qo'shini 1757 yil iyunida Plessi yonida 70 ming kishilik Bengal armiyasi bilan hal qiluvchi jangga kirishdi. Ingliz artileriyasining va navob asosiy qo'shinining qo'mondoni Mir Jafarning xoinligi jang taqdirini hal qildi. Bengaliya armiyasi mag'lubiyatga uchradi. Inglizlar Siroj-ud-Daulani asir olib, qatl qildilar. Mir Jafar Bengaliya navobi bo'ldi, ingliz Ost-Indiya kompaniyasi Bengaliyaning haqiqiy ho'jayini bo'lib qoldi. Bengaliya poytaxti Murshidobod talandi, davlat xazinasi inglizlar qo'lga o'tdi. Bu talonchilik operatsiyasi kompaniyaga 37 mln. funt sterling foyda keltirdi. Bengaliya navobi kompaniyaning qo'g'irchog'iga aylandi.

Bir qancha vaqtdan keyin inglizlar Mir Jafarni taxtdan chetlashtirib, taxtni katta pul evaziga Mir Qosimga sotdilar. Yangi navob soliqlarni oshirib, kompaniya oldidagi qarzlarni to'lagach, inglizlarning Bengaliya ustidan o'rnatilgan nazoratini cheklashga intildi, bu esa 1763 yilda harbiy to'qnashuvga olib keldi. Bengaliya va Aud navoblari inglizlarga qarshi kurashish uchun ittifoq tuzdilar. Ularga Panipat jangidan keyin bu erga kelgan podshoh Shoh A'lam II ham qo'shildi. Lekin 1764 yilda Buksar yonida bo'lgan hal qiluvchi jangda inglizlarga qarshi ittifoq qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Mustamlakachilar Ganganing quyi oqimidagi katta hududda o'z hokimiyatlarini uzil-kesil o'rnatdilar.

Buksar yonidagi jangdan keyin Bengaliya va Aud Britaniyaning mustamlakasiga aylandi. Yirik Haydarobod knyazligi ham vassal bo'lib qoldi.

Bu vaqtga kelib maratxlar konfederatsiyasi va Maysur davlati mustamlakachilarning asosiy dushmani bo'lib qoldi.

Maysur hukmdori Haydar Ali (1761-1782) kannar xalqiga tayanib fransuz zobitlari yordamida kuchli jangovar armiya tashkil etdi. Dastlabki davrlarda Haydar Ali inglizlarning mustamlakachilik siyosatiga etarli e'tibor bermagan edi va birinchi ingliz-maysur urushidan (1767-1769) keyin Maysur bilan Ost-Indiya kompaniyasi o'rtasida mudofaa tusdagi ittifoq tuzildi. Keyinchalik Haydar Ali Maysurning asosiy dushmani inglizlar ekanligini tushunib etib, Hindistondagi davlatlarni umumiy dushmanga qarshi birlashtirishga harakat qildi. Bu vaqtda inglizlarning maratxlar ichki ishiga aralashuvi kuchaydi. Inglizlar Bombeyda peshvo taxtiga o'z vakillarini

qo'yishga harakat qildilar, lekin qattiq qarshilikka duch keldilar. Ingliz-maratx urushi boshlanib ketdi. Haydar Ali maratxlar bilan yaqinlashdi. Ikkinchi ingliz-maysur urushi (1780-1784) boshida, Maysur, maratxalar va Haydaroboddan iborat bo'lgan, inglizlarga qarshi ittifoq tuzildi.

Inglizlar qiyin axvolga tushib qoldilar, lekin ular hind zodagonlari o'rtasidagi ziddiyatlardan samarali foydalandilar. Inglizlar eng kuchli maratx knyazliklaridan bo'lgan Gvalior knyazligini o'zlariga og'dirib oldilar va uning vositachiligida maratx konfederatsiyasi bilan separat sulh tuzdilar. 1782 yildagi shartnomaga ko'ra Ost-Indiya kompaniyasi o'zining Bombay hududidagi mulklarini ancha kengaytirishga erishdi.

Maysur davlati yakka o'zi 2 yil inglizlarga qarshi kurash olib bordi va keyinchalik inglizlar bilan bitim tuzishga majbur bo'ldi. 1784 yildagi ingliz-maysur shartnomasi ikki tomonning urushdan oldingi mulklarini o'zgarishsiz qolganini e'tirof qildi. Bu esa Ost-Indiya kompaniyasining mavqei mustahkamlanganligini va Maysurning Janubiy Hindistonda ustivorlik uchun kurashdan voz kechganligini bildirardi. Agar bungacha Maysurning asosiy maqsadi inglizlarni Janubiy Hindistondan haydab chiqarish bo'lgan bo'lsa, endilikda esa Maysurning yaxlitligi va mustaqilligini saqlab qolish asosiy vazifa bo'lib qoldi.

Urush vaqtida Xaydar Ali vafot etgach, Maysur taxtiga uning o'g'li, ingliz mustamlakachilarining murosasiz dushmani bo'lgan Tipu Sulton o'tirdi. U ingliz mustamlakachilariga qarshi "Muqaddas urush" g'oyasi bilan chiqib, podshohga va ko'pgina hind knyazliklariga o'z vakillarini yuborib, ularni o'z kuchlarini birlashtirishga chaqirdi. Inglizlar Tipu siyomosida o'zlari uchun xavfli bo'lgan dushmani ko'rib, Maysur davlatini boshqa hind davlatlaridan ajratib qo'yishga xarakat qildilar. Inglizlar maratx knyazliklarining va vassal Haydarobodning qo'llab-quvvatlashdan foydalanib, 1790 yilda Maysurga qarshi uchinchi urushni boshladilar. Dushmanning son jihatidan ustun bo'lishiga qaramay, Tipu Sulton boshliq Maysur armiyasi qattiq qarshilik ko'rsatdi. Lekin 1792 yilda Tipu Sulton inglizlarning sulh shartlarini qabul qilishga majbur bo'ldi, unga ko'ra Maysur hududining yarmi Ost-Indiya kompaniyasiga va uning ittifoqchilariga o'tdi.

1799 yilda inglizlar katta kuch bilan yana Maysurga hujum boshladilar. Kuchli artileriya bombardimonidan keyin uning poytaxti Seringapatam bosib olindi, Tipu Sulton jangda halok bo'ldi. Maysur hududining bir qismi Haydarobodga berilib, qolgan qismida vassal knyazlik tashkil etildi. Kannar xalqi o'z mustaqilligini yo'qotdi va Ost-Indiya kompaniyasi mulklari, Haydarobod va Maysur vassal knyazliklariga bo'lib tashlandi.

Shunday qilib, XVIII asrning 2-yarmidagi mustamlaka urushlari natijasida Hindistonning eng boy viloyatlari – Bengaliya va unga qo'shni bo'lgan Bixar, Oris, Aud va butun Janubiy Hindiston ingliz mustamlakalariga aylandi.

XVIII asrda Hindiston xalqlari dastlabki sarmoya jamg'arish davriga xos usullar bilan asoratga solingan edi. Yirik ingliz savdogarlari tomonidan tashkil etilgan va Angliyaning Sharq bilan bo'ladigan savdosida monopol huquqqa ega bo'lgan Ost-Indiya kompaniyasi ingliz mustamlakachilik siyosatini amalga oshirar edi.

Hindistonni bosib olish Ost-Indiya kompaniyasining savdo ma'muriy apparati va qurolli kuchlari yordamida ham amalga oshirilardi. Kompaniya orqasida esa Angliyaning hukmron doiralari va Angliya hukumati turardi.

1773 yilda ingliz parlamenti Hindistonni boshqarish to'g'risida qonun qabul qildi, unga ko'ra kompaniyaning Kalkuttadagi gubernatori Hindistondagi barcha ingliz mulklarining general-gubernatori qilib tayinlandi, Madras va Bombay gubernatorlari ham unga bo'ysunardilar. Hindistonda ingliz oliy sudi ta'sis etildi. 1784 yildagi qonunga binoan Londonda qirol xuzurida Hindiston ishlari bo'yicha nazorat kengashi tashkil etildi. Bu kengash Ost-Indiya kompaniyasining faoliyatini nazorat qilishi va Angliyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatini belgilab berishi kerak edi.

Hindiston halqlarini talashning asosiy vositasi soliqlar hisoblanardi. Bosib olingan hududlardagi renta soliqlari kompaniya hisobiga kelib tushardi. Vassal knyazliklarda undiriladigan soliqlarning ancha qismi turli yo'llar bilan inglizlarga o'tardi. Ost-Indiya kompaniyasining eng muhim daromad manbalaridan biri uning tuz qazib olish va sotishga bo'lgan monopol huquqi edi. Tuz juda qimmat baholarda sotilar, kambag'allarning tuz sotib olishga qurbi etmasdi. Kompaniya teng bo'lmagan savdo munosabatlari va spekulyasiya asosida ham katta boyliklarni qo'lga kiritardi.

Hindistonning inglizlarning mustamlakasiga aylanishi natijasida dehqonlarni talash keskin kuchaydi, soliqlar miqdori ancha oshdi. Agar Bengaliyada kompaniya hukmronligining dastlabki yillarida soliq miqdori 1,5 mln funtga teng bo'lsa, 10 yildan keyin uning miqdori 2,8 mln. funtga, 1793 yilda esa 3,4 mln. funtga etdi. Dehqonlar va hunarmandlar xonavayron bo'lib, ekin maydonlari qisqardi. Ocharchilik boshlanib, Bengaliya aholisining deyarli yarmi – 10 mln. odam o'ldi.

XIX asr boshiga kelib Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi Hindistondagi hukmron kuchga aylangan edi. Endilikda ingliz savdo-sanoat doiralari Hindistonni mustamlakaga aylantirishni oxiriga etkazishni vazifa qilib qo'ygan edi. Buning uchun inglizlar eng avvalo maratx knyazliklarining qarshiligini sindirishlari kerak edi.

XIX asr boshida maratx knyazliklari jiddiy inqirozni boshdan kechirayotgan edilar. Maratx knyazlarining konfederatsiyasi amalda tarqalib ketgan bo'lib, knyazlar peshvo hokimiyati bilan hisoblashmas edilar. Knyazliklar ichida ham ayrimchilik kuchaydi. Yirik er egalari knyazga faqat nomigagina bo'ysunardilar. Soliqlarning o'sib borishi, o'zaro urushlar dehqonlarni xonavayron qilgan edi. Bir qator joylarda maratxlar bu erda yashovchi boshqa xalqlarga nisbatan imtiyozli tabaqani tashkil etardi. Bularning hammasi maratxlarning qarshilik ko'rsatishini zaiflashtirar edi.

Peshvoning Gvalior knyazi bilan Indurga qarshi navbatdagi urushi inglizlarga yangi bosqinchilik urushini boshlab yuborish uchun bahona bo'ldi. Indur knyazi o'zining dushmanlarini tor-mor etib, Peshvoning Punu shahridagi qarorgohini egallagach, 16 yoshli Peshvo Badji II inglizlar tomoniga qochib ketdi. Badji Rao inglizlar va'da qilgan yordam evaziga inglizlardan tuzilgan harbiy otryadni o'z xizmatiga olish va uni mablag' bilan ta'minlash, maratx konfederatsiyasining tashqi siyosati ustidan inglizlar nazorati o'rnatilishi ko'zda tutilgan shartnomani imzolashga

majbur bo'ldi. Maratx knyazlari va peshvoning sobiq ittifoqchisi Gvalior knyazi bu shartnomani tan olmadilar. Natijada 1803 yilda inglizlar urushni boshlab yubordilar.

Maratxlar va Markaziy Hindistonning boshqa xalqlari mustamlakachilarga qarshi qattiq kurash olib bordilar. Indurning otliq partizan guruhlariga ingliz qo'shinlariga katta zarar etkazdi. Inglizlarga qarshi Bxaratpur va Shimoliy Hindistonning boshqa bir qancha knyazliklari ham kurash olib bordilar. Bxaratpur qal'asi yonida inglizlar 2 mingdan ortiq askar yo'qotdilar.

Lekin maratx zodagonlari inglizlarga qarshi kurashga rahbarlik qila olmadilar. Knyazlar o'z sulolaviy manfaatlaridan kelib chiqib, o'zaro birlashmay kurash olib bordilar. Urush boshida inglizlar Gvaliorga qarshi jang qilayotganda, Indur knyazi janga kirmay kutib turdi. Gvalior va Nagpur inglizlardan sulh tuzishni so'rashgach, Indur knyazi urushga kirdi.

1803-1805 yillardagi urush natijasida ingliz mustamlakachilari maratx knyazliklari hududining ancha qismini va Boburiylar poytaxti Dehlini bosib oldilar. Markaziy Hindiston knyazliklari Ost-Indiya kompaniyasining vassallariga aylandilar.

1817 yildagi urush natijasida inglizlar maratx knyazliklarini batamom o'zlariga bo'ysundirib oldilar. Peshvoning mulklari tortib olindi, boshqa knyazliklarning mulklari qisqartirilib u erlarda ingliz garnizonlari joylashtirildi. Mustamlakachilarga qarshilik ko'rsatgan Gvalior va Nagpur knyazlarining o'miga inglizlarning odamlari o'tirdi.

Radjaston knyazlari ham inglizlar hokimiyatini tan oldi.

Keyingi yillarda ham inglizlar o'z mulklarini kengaytira bordilar. 1826 yilda Birmaga qarshi olib borilgan bosqinchilik urushi natijasida Assam Ost-Indiya kompaniyasi mulklariga qo'shib olindi. 1843 yilda Sindni bosib olish tugallandi. Endilikda Hindistonda birgina mustaqil davlat – Panjob qolgan edi.

XIX asr boshlarida iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlari va ingliz mustamlakachilarining bosib olish xavfi Panjobda markazlashgan davlat tuzishga intilishni kuchaytirdi. Ranjit Singx, Panjobdagi ichki urushlarda g'alaba qozonib, maxaroja unvonini oldi. Ranjit Singx alohida knyazliklarni tugatdi. Er mulklari sikk sardorlarga armiyada harbiy xizmat qilgan davri uchun jag'ir shaklida berilardi. Ranjit Singxning siyosatini mayda va o'rta sikk er egalari qo'llab quvvatladilar. Shu bilan birga Ranjit Singx sikk dehqonlarini o'z tomoniga og'dirish uchun soliqlarni ancha kamaytirdi.

Panjobda yaxshi artileriyaga ega bo'lgan 40 ming kishilik armiya tashkil etilgan edi. Bundan tashqari maxaroja ixtiyorida sardorlar va vassallarining 30 ming kishilik askari ham bor edi. Ranjit Singx Kashmir, Multon va Peshavorni ham o'z hokimiyatiga bo'ysundirgan edi. Panjobning kuchiga etarli baho bergan inglizlar muayyan vaqtgacha u bilan tinch munosabatlar o'rnatdilar.

Lekin 30 yillardan boshlab sikk davlatini zaiflashtirgan ziddiyatlar yuzaga kela boshladi. Panjobning yirik zodagon er egalari dehqon jamoalariga tazyiqni kuchaytirdi, soliqlarni oshirdi. Diniy va milliy ziddiyatlar ham keskinlashdi.

Ranjit Singx vafot etgach (1839) Panjobda o'zaro urushlari boshlanib ketdi. Turli guruhlar tomonidan taxtga chiqarilgan maxarajalar tez-tez almashib turardi. Ba'zi zodagon er egalari o'zlarini mustaqil hukmdor deb e'lon qildilar.

Lekin bunday harakatlarga qarshi armiya bosh ko'tardi. Panjob armiyasining askarlari, mayda zamindorlar manfaatini ifodalovchi zobitlarning bir qismi, dehqonlar va savdogarlar, shahar hunarmandlari Panjobning butunligi va mustaqilligini himoya qilishga otlandilar. Har bir harbiy qismda 5 kishidan iborat saylab qo'yiladigan qo'mitalar – panchayatlar tuzildi. Ular garnizon panchayatlari bilan birlashdilar. Poytaxt Lahor panchayati hukumat faoliyati ustidan o'z nazoratini o'rnatdi.

Panjob zamindorlari armiya panchayatlarini o'zlarining hokimiyatlari va er mulklariga qarshi qaratilgan xavf deb hisoblardilar. Ikkinchi tomondan esa inglizlar Panjobdagi voqealarning Hindistonning boshqa qismiga ta'sir o'tkazishlaridan qo'rquydilar. Shu asosda ingliz mustamlakachilari va Panjobning yirik zodagon er egalari o'zaro til biriktirdilar. Natijada 1845 yil dekabrda inglizlar Panjobga qarshi urush harakatlarini boshladilar. Fitnachilarning xoinlik qilib barcha harbiy rejalarini inglizlarga ochib berganligiga va ular bilan qo'shib ketishlariga qaramay, sikk qahramonlarcha jang qildilar. Lekin xoinlarning harakati tufayli inglizlar armiyasi Firuzshahar yonida tor-mor qilinishdan qutilib qoldilar. Faqat 1846 yil fevralidagina sotqinlarning yordamida ingliz qo'shinlari sikk larni mag'lubiyatga uchrata oldi.

Birinchi ingliz-panjob urushi natijasida sikk davlati hududining bir qismi Ost-Indiya kompaniyasi mulklariga qo'shib olindi. Fitnaning faol ishtirokchilaridan biri uncha katta bo'lmagan Jammu knyazligining hukmdori inglizlarga qaram bo'lgan Jammu va Kashmir birlashgan knyazligining maxarajasi deb e'lon qilindi. Amalda Panjob ham Ost-Indiya kompaniyasining vassaliga aylandi uning poytaxti Lahorda ingliz garnizoni joylashtirildi.

1848 yilda Panjobda mustaqillik uchun qo'zg'olon boshlandi. Minglab sikk dehqonlari qo'zg'olonida ishtirok etdilar, qo'zg'olonga ba'zi zodagonlar ham qo'shildi. Afg'on amiri qo'zg'olonchilarga yordam berish uchun otliq askar yubordi. Yangidan urush boshlandi. 1849 yil yanvarda Chilianvala yonidagi birinchi yirik jangda ingliz qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Lekin keyingi janglarda ingliz qurollarining, eng avvalo artileriyaning ustunligi o'z natijasini ko'rsatdi. Isyonchilar armiyasi batamom yanchib tashlandi. Ikkinchi ingliz-panjob urushidan keyin Panjob batamom bosib olindi. Shunday qilib inglizlar 1849 yilda Hindistonni mustamlakaga aylantirishni yakuniga etkazdilar.

XIX asr o'rtalaridan Hindistonda Angliyaga xom ashyo olib ketish ko'paydi. Dalxuzi Hindiston general-gubernatori bo'lgan 1848-1856-yillar mobaynida paxta xom ashyosini olib ketish 2 marta, don eksporti 3 marta oshdi, Hindistondan Angliyaga olib ketiladigan mahsulotlar hajmi esa 80 foizga ko'paydi.

Dalxuzi tomonidan zodagon er egalari va ruhoniylar bir qismining erlarini musodara qilinishi bunga yordam berdi. Dalxuzi turli bahonalar ostida bir qator knyazliklarni Ost-Indiya kompaniyasi mulklariga qo'shib yubordi. 1853-yilda inglizlar Haydarobod hukmdorini "qarzlari uchun" Berar viloyatini va paxta ekiladigan boshqa tumanlarni berishga majbur qildilar. 1856 yilda "yomon boshqarilganligi" uchun 5 millionli Aud knyazligini ham Ost-Indiya kompaniyasi mulklariga qo'shib oldilar. Dalxuzi general-gubernatorligi davrida hind knyazliklarining hududlari 1/3 qismga qisqardi. Ingliz amaldorlari avvalgi yillarda

undirilmay qolgan soliqlarni ham undirib olardilar. Erlarning yangidan tuzilishi, soliqlarning ko'payishi inglizlar bilan yaqindan bog'langan yangi er-mulk egalari – zamindorlarning kuchayishi bilan birga bordi.

Angliya hukumati Hindistonning asosiy markazlarini telegraf liniyasi bilan bog'lagan edi. Dastlabki temir yo'llar qurila boshlandi. Hindiston ham jahon bozoriga tortildi. 1854 yilda Kalkutta atrofida birinchi kanop fabrikasi, 2 yildan keyin esa Bombayda ip-yigiruv fabrikasi qurildi.

XIX asming 50-yillariga kelib Hindistondagi ziddiyatlar keskinlashib ketdi. Hindiston ustidan Angliya hukmronligining o'rnatilishi xalq ommasi qashshoqligi va azob-uqubatini yanada kuchaytirdi, ommaning noroziligi o'sdi.

Mamlakatda xristian missionerlari faoliyatining kuchayishi hindlar va musulmonlarni zo'rlik bilan xristian diniga o'tkazilishi haqidagi mish-mishlarning ko'payishiga va xalq ommasining xavotirlanishining kuchayishiga olib keldi.

Mustamlaka hokimiyatning agrar-soliq siyosatidan, ayniqsa Dalxuzining er-mulkarni musodara qilish siyosatidan norozi bo'lgan zamindor zodagonlarning bir qismi, mayda er egalari va jamoa oqsoqollari ichida ham norozilik kuchaydi.

Umumiy norozilikning o'sib borishi hind askarlari va zobitlari kayfiyatida ham o'z aksini topdi. Sipohiyar garnizonlari ana shunday norozilik markazlariga aylandi.

Bengaliya, Madras va Bombaydagi 3 ta sipohiyar armiyalari ichida eng kattasi bo'lgan Bengaliya armiyasida inglizlarga qarshi kayfiyat juda kuchaygan edi. Bu armiyaning askar va zobitlari asosan hindlarning ikkita yuqori tabaqasi – braxmanlar va rajputlardan yollangan bo'lib, ularning ko'pchiligi jamoa oqsoqollari, mayda er egalari oilalaridan chiqqan edi. Ular orasida Audda tug'ilganlar ham ko'pchilik edi.

Ingliz-hind armiyasidagi ba'zi bir holatlar ham sipohiyar ichida norozilikni kuchaytirdi. Inglizlar butun Hindistonni egallab olishgach, sipohiyar bilan uncha hisoblashmaydigan bo'lishdi. Sipohiyarning maoshlari, nafaqalari qisqartirildi, ularning ko'pgina imtiyozlari bekor qilindi. Sipohiyar polklari Afg'oniston, Eron, Birma, Xitoyga urushga yuborila boshlandi. Ingliz zobitlari tomonidan irqiy, milliy jihatdan kamsitish kuchaydi.

1857 yilda armiyada sigir terisidan qilingan himoya qatlami bilan o'ralgan va cho'chqa moyi bilan moylangan patronlarning (o'qlarning) qo'llanila boshlanishi sipohiyarning g'azabini yanada kuchaytirdi. Patronlarni qo'llashdan oldin ular ustidagi himoya qatlamini tish bilan olib tashlash kerak edi. Bu esa sigir go'shtini eyish taqiqlangan hind sipohiyalarining va cho'chqa go'shtini eyish taqiqlangan musulmon sipohiyalarining diniy e'tiqodlarini oyoq osti qilar edi.

1856 yil bahorida Bengaliya armiyasidagi sipohiy polklarida, shahar va qishloqlarda inglizlarga qarshi tashviqot kuchaydi. Inglizlar tomonidan imtiyozlari cheklangan zodagon er egalari ham sipohiyar bilan aloqa o'rnatdilar. Qo'zg'olonni tayyorlashda vahhobiylarning yashirin tashkilotlari ham katta rol o'ynadi. Taniqli musulmon ma'rifatparvari Fozilhaqning faoliyati qo'zg'olonni mafkuraviy jihatdan tayyorlashga yordam berdi.

1857 yil 10 mayda Mirutda sipohiyalarining qurolli qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Sipohiyar ingliz komandirlarini yo'q qilishib, Dehliga qarab yurish qildilar. Ularga

shahar aholisi va yaqin atrofdagi qishloqlar dehqonlari ham qo'shildi. 11 mayda Dehli qo'zg'olonchilar qo'lga o'tdi.

Qo'zg'olonchilar Boburiylarning so'nggi vakili bo'lgan Bahodirshoh saroyiga kelib, undan qo'zg'olonga qo'shilishni talab qildilar. Bahodirshoh bu talabni bajarishga majbur bo'ldi va Hindistonning oliy hukmdori deb e'lon qilindi. Xalq ommasi Boburiylar davlatining qayta tiklanishini mustaqillikning qayta tiklanishi sifatida kutib oldi.

Qo'zg'olonda hindlar va musulmonlar birgalikda harakat qildilar. Bahodirshoh hukumati o'zining hindlarga hayrihohligini ta'kidlab, ularning muqaddas hayvoni sigirni so'yishni taqiqlab qo'ydi. O'z navbatida qo'zg'olonning hind rahbarlari musulmonlarning diniy ramzlarini qo'llab-quvvatladilar.

Dehlining qo'zg'olonchilar qo'lga o'tishi mamlakatning boshqa qismlarida xalq chiqishlarining boshlanishi uchun signal bo'ldi. Markaziy Hindiston hududi qo'zg'olonning asosiy o'choqlari bo'ldi.

Kanpurda qo'zg'olonni tayyorlashda so'nggi peshvoning asrandi o'g'li, inglizlar tomonidan o'z huquq va nafaqasidan mahrum qilingan Nana Sohib katta rol o'ynadi. U Kanpurdagi sipohiy polklarning yashirin tashkilotlari bilan aloqa o'rnatgan edi. U qo'zg'olonning eng mashhur arboblardan biri bo'lib qoldi.

1857 yil 4 iyunda Kanpurda sipohiyar qo'zg'oloni boshlandi, ularga dehqonlar va hunarmandlar ham qo'shildi. Bu erdagi ingliz garnizoni taslim bo'ldi. Nana Sohib o'zini peshvo deb e'lon qildi va ozod qilingan hududlarni Dehli hukmdorining vassali sifatida boshqara boshladi.

Maratx knyazliklaridan Indur va Gvaliorda ham sipohiyar qo'zg'olon ko'tarib, ular ingliz zobitlarini qirib tashladilar.

Aud ham qo'zg'olonning eng muhim o'chog'i bo'lib qoldi. Bu erda 1856 yildan boshlaboq mayda er egasi Mavlaviy Ahmadshoh boshchiligida inglizlarga qarshi qo'zg'olonga tayyorgarlik boshlanib ketgan edi. Qo'zg'olon arafasida Ahmadshoh inglizlar tomonidan qo'lga olinib, qamoqda o'lim jazosini kutib o'tirgan edi, uni qo'zg'olon ko'targan sipohiyar ozod qildilar.

Aud knyazligi poytaxti Lakxnauda sipohiyar va xalq ommasi qo'zg'olon ko'tarib, ingliz mustamlakachilarini haydab yubordilar. Mustaqillik tiklanganligi e'lon qilinib, sobiq hukmdorning kichik yoshli o'g'li maxaroja deb e'lon qilindi, uning onasi regentlar kengashiga rahbarlik qildi, sipohiyar talabiga binoan Ahmadshoh ham bu kengashga a'zo sifatida qabul qilindi.

Xalq qo'zg'oloni inglizlar kutmagan bir vaqtda yuz berib, ularni sarosimaga solib qo'ydi. Dehlidan Kalkutttagacha bo'lgan ulkan hududda ingliz askarlarining bir nechagina polklari bor edi. Hindistonning aholi zich yashaydigan katta hududlarida qo'zg'olon ko'targan xalq inglizlar tartibotini ag'darib tashladi.

Boshlanib ketgan bu qo'zg'olon Hindiston xalqlarining ingliz mustamlakachilariga qarshi buyuk ozodlik qo'zg'oloni edi. Sipohiyar inglizlarga qarshi birinchi zarbani berdilar va qo'zg'olonning harbiy markaziga aylandilar. Inglizlarga qarshi kurashda aholining turli ijtimoiy qatlamlari qatnashdi.

Lekin qo'zg'olon kuchayib borgani sayin ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ziddiyat kuchaydi.

Tez orada qo'zg'olonning boshqa kuchsiz tomonlari ham ko'rinib qoldi. Hindistonning janubi qo'zg'olonni qo'llab-quvvatlamadi. Shimoli-g'arbda, Panjobda sipohiyarning afohida qo'zg'olonlari bo'lib, ular Panjob zodagon er egalari yordamida inglizlar tomonidan shafqatsizlik bilan bostirildi. Inglizlar sikxlar bilan musulmonlar o'rtasidagi diniy adovatlaridan, sikxlarning Boburiylar davlatiga nisbatan doimiy dushmanliklaridan samarali foydalandi.

Bombey va Madras armiyalari Bengal armiyasining qo'zg'olon ko'targan sipohiyalarini qo'llab-quvvatlamadi. Qo'zg'olonning harbiy asosini tashkil qiluvchi Bengal armiyasining sipohiy qismlarining harakatiga umumiy rahbarlik yo'q edi.

Qo'zg'olon boshidanoq zodagon er egalarning ancha qismi inglizlar tomoniga o'tdi, bu esa inglizlar ahvolini ancha engillashtirdi. Ba'zi knyazliklarning qo'shinlari inglizlar bilan birgalikda qo'zg'olonni bostirishda ishtirok etdi.

Dastlabki oylarida Dehli qo'zg'olonning asosiy markazi bo'ldi. Iyunda inglizlar bu erga Panjobdan katta kuch tashlab, shaharni qamal qila boshladilar. Qo'zg'olonchilar o'z poytaxtlarini qahramonlarcha himoya qildilar.

Bahodirshoh va uning atrofida gilarining xalq urushini avj oldirishga qobilyati va hohish-irodasi yo'qligi ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi.

Sipohiyar Baxtxon qo'zg'olonning eng atoqli harbiy va siyosiy rahbariga aylandi. Dehli'dagi polklar komandirlari kengashida Baxtxon bosh qo'mondon qilib saylandi. Qo'zg'olonchilar Kengashi tuzilib, unga sipohiyarlardan 6 vakil, aholidan 4 vakil saylandi. Bu Kengashga rasman Bahodirshoh rahbar hisoblansada amalda rahbarlik Baxtxon qo'lida edi.

Kengash xalq manfaatidan kelib chiqqan holda bir qator tadbirlarni amalga oshirishga harakat qildi. Tuz va shakarga soliqlar bekor qilindi. Halok bo'lgan jangchilar oilalariga soliqdan ozod qilingan chek erlari berildi. Yirik savdogarlarga qo'zg'olonchilar armiyasi uchun maxsus yig'imlar tashkil etildi. Baxtxon shaharliklarni yoppasiga qurollantirish to'g'risida farmon chiqardi. Baxtxon va Kengashning ba'zi a'zolari shoh va uning atrofida gilarining hokimiyatini cheklashga intildilar.

Inglizlarning Panjobdagi armiyasi Dehlini qamal qilayotgan bir vaqtda Kalkuttadan chiqqan ingliz qo'shinlari Gang vodiysi bo'ylab yuqoriga qarab harakat qildilar. Inglizlar Ollohobod va Banorasdagi qo'zg'olonni bostirib, Kanpur hududiga kirib keldilar. Qattiq janglardan keyin inglizlar Kanpurni qo'lga kiritdilar.

Inglizlar tomonidan Dehlining uzoq vaqt qamal qilinishi qo'zg'olonchilarni qiyin ahvolga solib qo'ydi. 1857 yil sentyabr boshida Dehliga Panjobdan inglizlarning yangi qo'shimcha kuchlari etib keldi va inglizlar 14 sentyabrda shaharga hujum boshlab, 6 kunlik janglardan keyin shaharni egalladilar. Qolgan qutgan jangchilar bilan shahardan chekinayotgan Baxtxon Bahodirxonga armiya bilan birga chekinib, kurashni davom ettirishni taklif etdi, lekin Bahodirxon inglizlarga taslim bo'lishni afzal ko'rdi.

Dehlini egallagan inglizlar aholini juda shafqatsizlik bilan jazoladilar, tinch aholining ko'pchiligi shaharni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Dehlining qahramonona himoya qilinishi Hindiston xalqlari tarixida muhim o'rin egallaydi. Butun mamlakatning diqqat-e'tibori 4 oy davomida Dehli hududidagi

kurashga qaratilgan bo'lib, mamlakatning boshqa joylaridagi qo'zg'olonchilar undan o'rnak va ilhom oldilar.

Dehlining qo'ldan ketishi natijasida qo'zg'olonning eng yirik markazlaridan biri yo'q qilingan bo'lsada kurash davom etaverdi.

Kuzda Kanpurni tashlab chiqqan Nana Sohib qo'shinlari bilan Gvalior knyazligining qo'shinlari, shuningdek Dehli'dan kelgan ayrim sipohiy qismlari birlashdilar. Mahalliy aholi avvalgidek qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatlardi va Kanpur hududi qo'zg'olonning muhim markazlaridan biri bo'lib qolaverdi. Lekin Dehli qulaganidan keyin Aud qo'zg'olonning asosiy markaziga aylandi.

Auddagi qo'zg'olon boshlanish davridanoq ommaviy tus olib, uning butun hududi qo'zg'olonchilar qo'lga o'tgan edi. Faqat Lakxnau markazidagi qal'ada inglizlarning kichik garnizoni saqlanib qolgan edi. 1857 yil noyabrda inglizlar Lakxnauga yorib o'tib, u erdagi garnizonni qutqarib olishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin ular Lakxnauda o'rmashib qola olmadilar va Kanpurga chekindilar.

Inglizlar Hindistonga yangi qo'shin olib kela boshladilar. Dekabrda inglizlarning Nana Sohib qo'shinlari bilan janglari bo'lib o'tdi. Inglizlar Gang daryosi chizig'i bo'yiga mustahkam o'rmashib oldilar va Markaziy Hindiston qo'zg'olonchilarini Auddan ajratib qo'yidilar.

Bu davrda xalq ommasi bilan zodagonlar o'rtasidagi ziddiyat yanada keskinlashdi. Ahmadshoh inglizlarga qarshi qat'iy harakat qilishni va bu kurashda ikkilanib turuvchi, qat'iysiz boshliqlarni mansabdan chetlatishni talab qildi. 1858 yil yanvarida Ahmadshoh otryadlari bilan Aud zodagonlari tarafdorlari o'rtasida qurolli to'qnashuv bo'lib o'tdi va Ahmadshoh qamoqqa tashlandi. Lekin xalq va armiyaning talabi bilan u ozod qilinib, yana isyonchilarning obro'li rahbarlaridan biri bo'lib qoldi.

Ingliz qo'mondonligi 1858 yil bahorida Lakxnauga hujum qilish uchun katta qo'shin to'pladi. Mart boshida 70 ming kishilik ingliz qo'shini Lakxnauni o'rab oldi. Qattiq janglardan keyin 14 martda inglizlar shaharni qo'lga kiritdilar. Ular ikki hafta davomida shaharni talab, aholini shafqatsizlik bilan qirdilar.

Lekin inglizlar isyonchilar armiyasini yo'q qilib tashlay olmadilar. Bu armiya Lakxnaudan chekinib, Ahmadshoh rahbarligida kurashni davom ettirdi.

Lakxnauni inglizlar bosib olgach, partizanlar urushi inglizlarga qarshi kurashning asosiy shakli bo'lib qoldi. Partizanlar urushi Aud va Markaziy Hindistonda keng yoyildi, Nana Sohibning qo'zg'olonchi armiyasining qoldiqlari va unga qo'shilgan Dehli askarlari partizanlarning asosiy kuchlarini tashkil qilardi. Nana Sohib va Baxtxonning otryadlari shimol tomon harakat qilib, keyin Nepalga chekindilar. Shundan keyin Markaziy Hindistondagi kurashga iste'dodli sarkarda Tantiya Topi rahbarlik qildi.

Jxonsi knyazligi Markaziy Hindistondagi qarshilik markazlaridan biri edi. Bu erda inglizlarga qarshi mudofaaga knyaginya Lakshmi Bay rahbarlik qildi. U erkakcha kiyinib, qo'lida qurol bilan eng qiyin joylarda jang qilardi. 1858 yil aprelda Jxonsi inglizlar qo'lga o'tgach Lakshmi Bay Tantiya Topi otryadiga qo'shilib jang qildi va janglardan birida halok bo'ldi.

Tantiya Topi qo'shinlari jang bilan deyarli butun Markaziy Hindistonni bosib o'tdi. Aud va boshqa joylarda ham jangovar harakatlar davom etdi. Lekin inglizlarning knyazlar va zodagonlar moi-mulkini to'la daxlsizligi haqidagi va'dalaridan keyin zamindor elementlar ochiqdan-ochiq inglizlar tomoniga o'tib keta boshladilar. Knyazlardan biri xoinlik qilib Ahmadshohni ushlab oldi va 50 ming rupiy evaziga uning boshini inglizlarga keltirib berdi. 1859 yil aprelda esa boshqa bir roja Tantiya Topini ushlab, inglizlarga topshirdi va u ham halok bo'ldi. Isonchilarning ayrim otryadlari 1859 yilning oxirigacha qarshilik ko'rsatdi.

Hindiston xalqlarining buyuk qo'zg'oloni juda mudhishlik bilan bostirildi. Inglizlar sipohiyarlarni zambarak og'ziga bog'lab otib, parchalab tashladilar.

1857-1859-yillardagi qo'zg'olon Hindistonda hali inglizlarni haydab chiqarishga qodir qudratli ijtimoiy kuch vujudga kelmaganligini ko'rsatdi. Ko'pgina vassal knyazliklar, zodagon er egalari qo'zg'olon boshidanoq inglizlar tomoniga o'tib ketdilar. Qo'zg'olonga qo'shilgan va undagi rahbarlikni o'z qo'llariga olgan zodagonlarning bir qismi tarqoq holda harakat qilishar, ko'pincha o'zlarining ijtimoiy va sulolaviy manfaatlarini ko'zlab harakat qilardilar.

Dehqonlar va hunarmandlar qo'zg'olon davomida o'z dasturlarini va rahbarlarini ilgari sura olmadilar. Qo'zg'olonning ayrim rahbarlari (Ahmadshoh, Baxtxon va boshqalar) xalq ommasini talablarini hisobga olsalar ham, lekin ular umumiy vaziyatga etarli darajada ta'sir o'tkaza olmadilar.

Sipohiyar polklari va dehqonlar otryadlari o'zaro birlashmasdan, ayrim-ayrim holda harakat qildilar. Shuningdek Hindiston aholisi o'rtasidagi milliy, diniy va tabaqaviy farqlar ham qo'zg'olonga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Ana shunday sharoitda inglizlar tomonidan yirik qo'shinlarning keltirilishi, harbiy-texnikaviy jihatdan ustunlik kurash taqdirini hal qildi.

1857-1859-yillardagi qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lsa ham u Hindiston xalqlari tarixida muhim o'rin tutdi. Bu qo'zg'olon inglizlarga qattiq zarba berdi. Ular o'zlarining Hindistondagi siyosatini endilikda ancha ehtiyotkorlik bilan olib borishga e'tiborini kuchaytirdilar.

Britaniya parlamenti 1858 yilda Ost-Indiya kompaniyasining tugatilganligini e'lon qildi. Hindiston Britaniya tojining mulkiga aylandi. Kompaniyaning 3ta prezidentligi provinsiyalarga aylandi. Qirolicha Viktoriyaning 1858 yil noyabrda Hindistonga qilgan murojaatida "mahalliy knyazlarning huquqlari, shon-sharafi va mavqelarini hurmat qilishga", zodagonlarning mol-mulkulari daxlsizligini ta'minlashga va'da berdi.

XIX asrning 70-yillariga kelib Hindiston inglizlar tomonidan to'la bo'ysundirilgan va huquqsiz mustamlakaga aylantirilgan edi.

Hindiston Angliyaning sanoat mollari sotiladigan katta bozorga aylandi. Hindistonning Angliyaga xom ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari etkazib berishdagi roli bir necha marta o'sdi. 1873 yildan 1883 yilgacha bo'lgan davrda Angliyaning Fransiya va Germaniya bilan bo'ladigan savdosi faqat 7% o'sgan bo'lsa, uning Hindiston bilan bo'lgan savdosi 60%ga ko'paydi. Eng muhimi Hindiston britan savdo-sanoat va moliya doiralari tomonidan sarmoya qo'yiladigan eng muhim hududga aylandi.

Hindistondagi mustamlaka hukumatining ingliz bankirlaridan oladigan qarzlari Angliyadan chetga sarmoya chiqarishning dastlabki shakli bo'ldi. Uning miqdori 1856 yildagi 4 mln. funt sterlingdan 1900 yilda 133 mln. funt sterlingga etdi. Bu qarzlar asosan Hindistondagi ingliz mustamlaka apparatini va armiyani mablag' bilan ta'minlashga, Sharqdagi boshqa mamlakatlarga qarshi urushlar olib borishga sarflanardi. Bu qarzlarni esa og'ir soliqlar ostida ezilgan hind dehqonlari to'lashga majbur edi.

Aholisining ko'pchiligi dehqonlardan iborat bo'lgan Hindiston o'zini-o'zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay olmasdi. Millionlab odamlar kasallik va ochlikdan qirilib ketardi.

Hom-ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ko'plab olib ketilishi alohida hududlarning ma'lum bir mahsulotlarning etishtirishga ixtisoslashishga olib keldi. Bengaliya kanop etishtirishga, Bombay, Panjob va Markaziy Hindiston paxta etishtirishga, Assam choy, Madras yog'li ekinlar etishtirishga ixtisoslashdi.

Dehqonlarning olib sotarlari va sudxo'rlardan qarzi keskin kuchaydi. Natijada millionlab dehqonlar honavayron bo'lib, o'zlarining bir parcha erlaridan ajraldilar. Dehqonlarning katta ko'pchiligi erni ijaraga olib, hosilning 60 foizi va undan ko'prog'ini ijara haqi sifatida to'lashga majbur edilar.

70 va 80-yillarda Hindistonning bir qator tumanlarida dehqonlarning g'alayon va qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Panjobda sikh dehqonlarining harakati "namdxarlar" mazhabchilik harakati sifatida yuzaga chiqdi.

70-yillar boshida "namdxarlar" mazhabi saflarida 50-100 ming kishi bo'lgan. Mazhabning o'sha vaqtdagi rahbari Ram Singx mazhabni butun Panjobda o'z vakillari bo'lgan markazlashgan tashkilotga aylantirdi. 1872 yilda "namdxarlar" otryadi qo'zg'olon ko'tarishga urinib ko'rdi, lekin mag'lubiyatga uchradi. Inglizlar qo'zg'olonchilardan 65 kishini zambarak og'ziga bog'lab otishdi. Ram Singx va qo'zg'olonning boshqa rahbarlari surgun qilindi.

O'sha yili ingliz askarlari Bengaliyaning ikki okrugida ko'tarilgan dehqonlar qo'zg'olonini ham shafqatsizlik bilan bostirdilar.

1873-1875 yillarda Maxarashtra Kengliya rahbarligida dehqonlarning qurolli qo'zg'oloni bo'ldi, inglizlar 600 ortiq qo'zg'olonchini qamoqqa oldilar.

1879 yil boshida Maxarashtra yangi qo'zg'olon boshlandi, unga maratxiik ziyoli Vasudeva Balvant Pxadke rahbarlik qildi. Qo'zg'olonchilar yirik er egalari va sudxo'rlar uylariga hujum qilib, ularning mol-mulkularini tortib oldilar, dehqonlarning qarzi tilxatlarini yo'q qilib tashladilar.

Vaziyatning qaltisligidan qattiq tashvishga tushib qolgan inglizlar qo'zg'olonchilarga qarshi katta kuch to'pladilar. 1879 yil iyulida bir xoin Pxadkeni inglizlarga tutib berdi. Tez orada qo'zg'olon bostirildi, Pxadke umrbod surgunga yuborildi.

Maxarashtradagi qo'zg'olon bilan bir vaqtda Hindiston janubidagi Rampada ham CHendriya rahbarligida dehqonlar qo'zg'oloni ko'tarildi. Bu qo'zg'olon inglizlarga, soliq yig'uvchilarga va sudxo'rlarga qarshi qaratilgan edi. 1880-yilga kelib bu qo'zg'olon bostirildi.

Hindistonning boshqa viloyatlarida ham dehqonlarning chiqishlari bo'ldi.

XIX asrning so'nggi choragida Hindistonda kapitalistik munosabatlar rivojlanishi boshlandi. 1877 yilda mamlakatda 51 ta to'qimachilik fabrikasi bor edi. Lekin mamlakatda sanoat rivojlanishi juda sekinlik bilan bordi. Sanoatning asosan engil sanoat tarmog'i rivojlana bordi. Iqtisodiyotda Britaniya sarmoyasi hukmron mavqega ega edi.

Hindistonda kapitalistik munosabatlarning zaif rivojlanganligiga qaramay bu erda milliy burjuaziya hamda ishchilar qatlami shakllandi.

Kapitalizmning rivojlanishi, mamlakat ichida iqtisodiy aloqalarning kuchayishi zamin yaratdi.

Milliy burjuaziya vujudga kelishi bilan burjua-millatchilik mafkurasi ham yoyila boshladi. 70-yillarda mamlakatda yoki chet ellarda evropacha ta'lim olgan uncha ko'p bo'lmagan ziyolilar qatlami vujudga keldi. Ular orasidan burjua-millatchilik g'oyalari targ'ib qilgan ma'rifaparvarlar va islohotchilar etishib chiqdi. Ular jumlasiga Said Ahmadxon, iqtisodchi Dadabxay Naoraji, iqtisodchi va tarixchi Maxadev Govind Ranade, Surendranatx Bannerji, yozuvchi Bonkimchondro Chatterji va boshqalar kiradi.

1877 yilda Dehlida ingliz qirolichasi Viktoriya Hindiston imperatritsasi deb e'lon qilindi. Hindistonning barcha erlaridan etib kelgan knyazlar qirolicha Viktoriyaga sodiqlik to'g'risida qasamyod qildilar.

Hindistondagi ingliz ma'muriyati 1878 yilda mamlakatda milliy tillarda chiqadigan matbuot to'g'risida qonun qabul qildi va matbuot ustidan qattiq nazorat o'rnatdi. 1879 yilda o'q otar qurollar to'g'risida qonun qabul qilinib, unga ko'ra dehqonlarga hatto ov miltig'ini saqlash ham taqiqlab qo'yildi.

Shu bilan birga Hindistondagi ingliz ma'muriyati ba'zi bir tadbirlarni amalga oshirdi. 80-yillar boshida mahalliy o'z-o'zini boshqarish to'g'risida qonun qabul qilinib, unga binoan shahar munitsipalitetlari o'ziga to'q shaharliklar tomonidan saylanadigan bo'lsada, amalda hokimiyat avvalgidek inglizlardan bo'lgan shahar hokimi qo'lida edi. 1892 yilda hind qonun chiqaruvchi kengashlari to'g'risida qonun qabul qilindi. Avval bunday kengashlar faqat inglizlardan tashkil topgan bo'lsa, endilikda unga hindlar ham kiritiladigan bo'ldi.

Burjua-millatchilik harakati paydo bo'lganligini va umumhindiston milliy tashkilotining muqarrar ravishda tashkil topishini hisobga olgan inglizlar Hindiston mulkdor qatlamlarning siyosiy faoliyatini o'zlari uchun foydali bo'lgan tomonga burishga va ularni o'zlari tomonga og'dirib olishga harakat qildilar.

1884-1888-yillarda Hindistonni boshqargan ingliz vitse-qiroli Dafferin yirik hind jamoat arboblari bilan aloqa o'rnatib, umumhindiston legal siyosiy tashkilot tuzilishiga halaqit bermasligini bildirdi.

1885 yil 28 dekabrda Bombeyda tantanali holda Hindiston Milliy Kongressiga asos solgan ta'sis s'ezdi ochildi. Delegatlarning deyarli yarmini ziyolilar yuqori qatlamining vakillari tashkil etardi, qolgan yarmi esa sanoatchilar, savdogarlar, er egalardan iborat edi. Delegatlar nutqlarida ingliz mustamlaka hokimiyatiga hayrihohlik aks etib turardi.

Milliy Kongressning o'sha vaqtdagi nizomida Hindistondagi inglizlar va hindlarning teng huquqliligi va o'z-o'zini boshqarish huquqini berish talabi o'rin

olgan edi. Bu maqsadlarga tinchlik va konstitutsion vositalar orqali, islohotlar yo'li bilan erishish ko'zda tutilgan edi.

Milliy Kongressdagi oddiy a'zolarning roli har yili bo'ladigan s'ezdga delegatlar saylashdan iborat edi. Milliy Kongress o'z faoliyatining dastlabki yillarida matbuotda tashviqot olib borish, Britaniya parlamentiga petitsiyalar yuborish, mustamlakachilik hokimiyatining haddan tashqari o'zboshimchaliklariga qarshi norozilik kampaniyalari o'tkazish ishlari bilan shug'ullandi.

Shu bilan birga Hindiston Milliy Kongressining tashkil topishi hind milliy savdo-sanoat doiralarning siyosiy kurash maydoniga chiqqanidan guvohlik berardi. U mustamlaka tartiblariga qarshi ijtimoiy qatlamning muxolifatini ifodalardi. Shu bilan birga bu kurash mantig'i Kongressni mustamlakachilikka qarshi turuvchi Hindistonning milliy birligi ramziga aylantirdi. Irqiy kamsitishlar va o'zboshimchaliklarga qarshi Milliy Kongressning chiqishlari hindlarning milliy ongining uyg'onishiga yordam berdi. Hindiston Milliy Kongressi yirik ma'lum ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalardi, lekin uning faoliyatida vatanparvarlik, umumdemokratik g'oyalar ham o'rin olgan edi.

Milliy ongning o'sishi Hindistonda radikal demokratik g'oyalarni targ'ib etuvchi qanotning tashkil topishiga olib keldi. 90-yillarga kelib shakllangan bu yangi oqim vakillarining ko'pchiligi mayda tadbirkorlar va mayda er egalardan iborat edi. Ular Milliy Kongress rahbarlarining mo'tadil islohotchilik dasturi va taktikasini etarli emas deb hisoblardilar.

Bal Gangadhar Tilak (1856-1920) Hindistondagi ushbu qanotning taniqli rahbariga aylandi. Maxarashtradagi kambag'allashgan braxman oilasida tug'ilgan Tilak Punada filologiya va tarixdan oliy ma'lumot olib, taniqli tarixchi olimga aylandi. U kolleжда o'qib yurgan vaqtlaridayoq vatanini ozod qilishga qasamyod qilgan edi.

Tilak o'z do'stlari bilan Punada o'rta maktab tashkil qildi. 1880-yilda esa "Maxratta" haftaligini va "Kesari" ("Sher") gazetasi tashkil etdi. Milliy Kongress tashkil topgach, Tilak uning faoliyatida faol ishtirok etdi. Lekin 90-yillar boshidayoq Tilak tarafdorlari bilan Milliy Kongress rahbarlari o'rtasida kelishmovchiliklar borligi ma'lum bo'ldi. Kongressda asta-sekin ikki oqim - o'ng ("mo'tadillar") va Tilak boshchiligidagi so'l, demokratik ("ashaddiyalar") oqim shakllandi.

Tilak o'z vatani Maxarashtrada faoliyatini kuchaytirib yubordi. U yoshlar o'rtasida milliy sport tashkilotlari tuzib, vatanparvarlik tashviqotini olib bordi, maratlarning milliy qahramoni Shivadji xotirasiga bag'ishlab bayramlar o'tkazdi va inglizlarga qarshi qat'iy kurashga chaqirdi.

Tilakning maqola va chiqishlari Hindistondagi vatanparvarlar va demokratlarda katta taasurot qoldirdi. Tilak va uning tarafdorlari keng xalq ommasini kurashga tortish yo'li bilangina Kongress o'z maqsadiga erisha oladi deb hisoblardilar, lekin Tilak qurolli kurashni rad qilardi. Ingliz hukumati Tilakni o'zi uchun xavfli dushman deb bilib, uni 1897 yilda qamoqqa oldi va 6 yil qamoqqa hukm qildi.

Hindistonda fabrika sanoati paydo bo'lishi bilan sanoat ishchilari qatlami ham shakllana boshladi. XIX asr boshiga kelib bu erda 700-800 ming sanoat ishchisi bor edi. Ishchilar kambag'allashgan dehqonlar va singan hunarmandlardan tashkil topdi.

70-yillarning oxiri – 80-yillarning boshlarida hind ishchilarining dastlabki ish tashlashlari boshlandi. Lekin bunday harakatlar uyushmagan bo'lib, ishchilar hali o'z kasbiy va siyosiy tashkilotlariga ega emas edi.

Ish tashlash harakati boshlanganligini hisobga olgan Angliya hukumati Hindistonda fabrika qonunchiligini joriy qildi. 1881 yildagi qonunga binoan yirik fabrikalarda 7 yoshdan kichik bolalarni ishlatish taqiqlandi. 1891 yilda majburiy dam olish kuni joriy qilinib, 9 yoshdan kichik bolalarni ishlatish taqiqlandi.

XIX va XX asrlar chegarasida Hindistonning iqtisodiy va siyosiy hayotida bir qator muhim o'zgarishlar yuz berdi. Angliya sanoati uchun muhim xom ashyo manbai va sotish bozori bo'lgan Hindiston endilikda Britaniya sarmoyasi ko'yiladigan muhim sohaga aylandi.

XX asr boshida Hindiston Sharqdagi qaram va mustamlaka mamlakatlar ichida sanoat jihatidan eng rivojlangan mamlakat edi. Ingliz monopoliyalarining Hindistonga sarmoya kiritishlari tez o'sib bordi. 1893-1907 yillar davomida inglizlarning temir yo'llar va sug'orish inshootlariga kiritgan sarmoyalari 56 % ga ko'paydi. 1905 yilda Hindistonda 105 ta chet el hissadorlik kompaniyalari faoliyat ko'rsatardi.

Hindiston iqtisodiyoti ustidan ingliz monopoliyalari nazoratining kuchayishi hind dehqonlari ahvolining yomonlashuvi bilan birga bordi. Mamlakatda ochlik va kasallik hukm surardi. O'n yil davomida (1896-1906) ochlikdan o'n milliondan ko'proq aholi o'lib ketdi. 1896 yilda o'lat tarqalib, keyingi yillarda ham davom etdi. Faqat 1904 yilning o'zida o'latdan 1 mln. hindistonlik o'ldi.

Mamlakatdagi vaziyat tobora keskinlashib bordi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Hindistonning bir qator hududlarida dehqonlarning er mulkdorlariga va sudxo'rlarga qarshi g'alayonlari, qo'zg'olonlari bo'lib turdi. Shimoli-G'arbiy Hindistonning chegara hududlarida pushtun qabilalari inglizlarga qarshi qurolli kurash olib bordilar. Shaharlarda Tilak tarafdorlarining faoliyati kuchaydi.

Britaniya hukumati xalq ommasi noroziligini bostirishga harakat qildi. Hindiston vitse-qirol Kerzon (1899-1905) hind amaldorlari o'rniga ingliz amaldorlarini tayinladi. Kerzon mahalliy aholi vakillarining oliy ma'lumot olishiga qarshi chiqib, 1904 yilda universitetlarda o'qish uchun to'lanadigan pulni 2 martadan ko'proq oshirish to'g'risida qonun chiqardi. Universitet kengashlari tarkibiga ingliz amaldorlari kiritildi, oliy ta'lim ustidan politsiya nazorati o'rnatildi.

Ancha rivojlangan va aholi zich joylashgan Bengaliyada milliy harakatning kuchayib borishi Kerzonni qattiq xavotirga solayotgan edi. U Bengaliyani ikkiga ajratib tashlash yo'li bilan bu harakatga zarba berishga intildi. Agar shunday qilinganda G'arbiy Bengaliyada bengalliklar ozchilikni tashkil qilar, bixarliklar va orislar ko'pchilikni tashkil qilardi. Sharqiy Bengaliyada esa dehqonlarning asosiy ommasi islomga e'tiqod qilishsa, zamindorlar, sudxo'rlar, yirik savdogarlar induizm diniga e'tiqod qilardilar. G'arbiy Bengaliyada induizm tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qilardi. Inglizlar Bengaliyani ikkiga ajratib tashlash orqali musulmon bengallarni hindu bengallarga qarshi qo'yishga intildilar.

1905 yil iyulda ingliz mustamlaka hukumatining Bengaliyani ikkiga ajratish to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Milliy burjuaziyaning turli qatlamlari, shuningdek

bengal er egalari ham bunga qarshi chiqdilar. Keng xalq ommasi ham bu kurashga tortildi. Avgust oyida Kalkuttada norozilik mitinglari va namoyishlari boshlanib ketdi. Ingliz mollari boykot qilish to'g'risidagi rezolyusiyalar qabul qilindi. Hindiston Milliy Kongressining taklifi bilan Bengaliyani ikkiga bo'lish to'g'risidagi qonun kuchga kirgan kun - 1905 yilning 16 oktyabri milliy motam kuni deb e'lon qilindi. Butun Bengaliyada o'choqlarga o't yoqilmadi, bolalar va kasallardan tashqari hamma ro'za tutdi. Fabrikalar, bozorlar, do'konlar yopildi. Minglab odamlar diniy urf-odatlarini ado etish uchun daryo bo'yiga yo'l oldilar.

Ingliz mollari boykot qilish ommaviy tus oldi va u svadeshi (aynan tarjimasi "o'z erimiz, o'z ishlab chiqarishimiz") vatanparvarlik shiori ostida o'tdi va shu nomdagi harakatga aylandi. Svadeshi harakatining asosiy maqsadi hind milliy ishlab chiqarishini rivojlantirish edi.

Svadeshi harakati tashabbuskorlari milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mablag' to'plashga da'vat etardilar, hind mollari ko'rgazmalarini tashkil qilardilar. Svadeshchilik kooperativlari tashkil qilindi. Vatanparvarlar ingliz mollari boykot qilardilar.

Tez orada svadeshi shiori svaraj ("o'z boshqaruvimiz") shiori bilan to'ldirildi. Miting va namoyishlarda "Hindiston hindlar uchun" degan chaqiriqlar yangray boshladi.

Bengaliyaning parchalanishiga qarshi norozilik shiorlari bilan boshlangan bu harakat umumhind harakatiga aylanib bordi. Bu harakat Bombay va Panjob provinsiyalarida ommaviy harakatga aylanib, mamlakatning boshqa hududlariga yoyildi. Hindiston xalqlarining milliy-ozodlik harakatlari birinchi marta ongli demokratik xarakterga ega bo'ldi. Bularning barchasi Hindistonning uyg'onishidan darak berardi.

Hindistonda boshlanib ketgan inqilobiy yuksalish davrida yagona umumhind siyosiy tashkiloti bo'lgan Hindiston Milliy Kongressining (HMK) obro'si va ta'siri kuchayib bordi. Tashkilot rahbarligida "mo'tadillar"ning ta'siri kuchli edi. Ular harakatning tinch va oshkora (legal) tusga ega bo'lishini istardilar. "Mo'tadillar" Svaraj shiorini Britaniya imperiyasi tarkibida Hindistonni juda cheklangan muxtoriyatga ega bo'lishi deb talqin qilardilar. Ular svadeshi harakatini hind yirik sarmoyasi mavqeining kuchayishiga, hind fabrika sanoatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga, proteksionistik bojxona siyosatiga intilish deb tushunardilar.

Xalq ommasi ichida inqilobiy harakat keng yoyilgan sari "ashaddiylar" va ularning etakchisi Tilakning ham omma orasidagi obro'-e'tibori o'sib bordi. Ular svaraj va svadeshi shiorlarini Hindiston mustaqilligi uchun kurash shiori deb qarardilar. Tilak tarafdorlari Hindistonni mustaqil davlatga aylantirish uchun kurashardilar.

"Ashaddiylar" yagona siyosiy tashkilotga ega emas edilar. Bir qator mayda guruhlari mavjud bo'lib, ulardan ba'zilar yashirin tashkilotlar tuzgan edilar. Ba'zi tashkilotlar qurolli qo'zg'olon tarafdorlari bo'lib, hatto yakka terror taktikasini amalga oshirish tarafdorlari edilar.

Tilak ham mustamlakachilarga qarshi qat'iy kurash olib borish tarafdori bo'lsada, Hindistonda qurolli kurash olib borish uchun zarur shart-sharoitlar yo'q deb

hisoblardi. Uning taktikasi ingliz mollari boykot qilishni kengaytirib borish va zo'rvonlik ishlatmasdan turib ingliz qonunlarini namoyishkorona buzish orqali mustamlaka ma'muriyatiga qarshi ommaviy qarshilik ko'rsatish kompaniyasini tashkil qilishdan iborat edi. U buni "passiv qarshilik ko'rsatish" deb hisoblardi. Uning bunday yondashuvi ma'lum ma'noda keyinchalik Gandhi tomonidan ilgari surilgan g'oyalarga o'xshash edi.

Tilak va uning tarafdorlari HMK ichida ozchilikni tashkil qilgan bo'lsalarda, inglizlarga qarshi ko'tarilgan xalq ommasi Tilakni o'z etakchisi sifatida ulug'lardi.

Svadeshi harakati kengayib va jangovar tusga ega bo'lib bordi. Bengaliyada 1906 yildan boshlab mahalliy vatanparvarlik ittifoqlari ko'paydi, ularning a'zolarini milliy ko'ngillilar deb atardilar. Ko'ngillilar ingliz do'konlarini piket qilishar, svadeshi uchun targ'ibot ishlarini olib borardilar.

1905 yil oxiridan temir yo'l va boshqa soha ishchilarning ish tashlashlari boshlandi.

1907 yil bahorida Sharqiy Bengaliyada dehqonlarning zamindorlar va sudxo'rlarga qarshi katta chiqishlari bo'lib o'tdi.

Panjob ham inqilobiy harakatning muhim o'choqlaridan biriga aylandi. 1906 yil oxirida ingliz mustamlaka hukumati tomonidan er va suv soliqlarining oshirilishi bir qator hududlarda dehqonlarning noroziligini kuchaytirib yubordi. "Ashaddiylar"ning ko'zga ko'ringan vakillari Lodjpat Ray va Ajit Singx boshchiligidagi Panjob millatchilari er va suv solig'ini kamaytirish talabini ilgari surdilar. Panjob shaharlaridagi ko'p sonli mitinglarda ishchilar, hunarmandlar, savdogarlar bilan bir qatorda atrof-tevarakdagi qishloqlar dehqonlari ham ishtirok etdilar.

Inglizlar Ravalpindada bir guruh vatanparvarlar ustidan sudlov o'tkazmoqchi bo'lganlarida shaharda inglizlarga qarshi oshkora kurash boshlandi. Temir yo'l ustaxonalari ishchilari siyosiy ish tashlash e'lon qildilar. 1907 yil 1 mayda ishchilar va dehqonlarning ko'p ming sonli olomoni sud binosini o'rab oldi. Inglizlar shaharga katta qo'shin kiritish orqali bu harkatni bostirishga erishdilar.

Panjob poytaxti Laxorda va hindularning diniy markazi Amritsarda ham g'alayonlar bo'lib o'tdi. Mustamlakachilar harbiy holat e'lon qildilar. Hukumat Ladjpat Ray va Ajit Singxni qamoqqa olib surgun qildi. Inglizlar kuch yordamida Panjobliklarning chiqishlarini bostira oldilar.

1905 yil oxirida Hindiston vitse-qiroli Kerzon o'miga Minto tayinlandi, Morli Hindiston ishlari bo'yicha vazir bo'ldi. Ingliz ma'murlari Hindiston xalqlariga qarshi kuch ishlatish bilan birga turli tadbirlardan ham foydalandilar. Angliya hukumati 1906 yilda kelgusida islohotlarni, xususan provinsiyalardagi qonunchilik kengashlariga saylovlarda islohotlarni amalga oshirishga va'da berdi.

Shu bilan birga hindular bilan musulmonlar o'rtasida nizo keltirib chiqarishga va shu yo'l bilan milliy-ozodlik harakatini parokanda etishga harakat qildilar. Shu maqsadda inglizlar tashabbusi bilan yirik er egasi, ismoiliylar mazhabning boshlig'i Og'axon boshchiligidagi 1906 yil oxirida Musulmonlar ligasi tashkil etildi.

Musulmon ligasi bilan bir vaqtda inglizlarning yordamida 1906 yilda hindularning "Shri Bxarat dxarma mandal" ("Oliyjanob Hindiston dxarma doirasi")

va keyinchalik "Hindu Maxasabxa" ("Hindularning buyuk majlisi") nomli diniy tashkilotlari tuzildi.

Bir tomondan, xalq ommasi faolligining oshishi va ijtimoiy kurashning kuchayishi ta'siri ostida, ikkinchidan, inglizlar tomonidan hind zamindorlari va tadbirkorlariga ba'zi yon berishlar haqidagi va'dalarning berilishi tufayli milliy-ozodlik harakatidagi kuchlar orasida ajralish yuz berishiga olib keldi. Svadeshi harakatida va Bengaliyaning bo'linishiga qarshi bo'lgan harakatda ishtirok etayotgan Bengal zamindorlari 1907 yil o'rtalaridan o'zlarini ingliz ma'murlariga sodiq ekanliklarini e'lon qildilar. Yirik milliy savdo-sanoat doiralari ham ikkilanib qoldi, ular endilikda hukumatga qarshi chiqishlarni va boykotni to'xtatishini ochiq talab qila boshladilar. "Mo'tadillar"ning rahbarlari islohotlar to'g'risida qonun loyihasini ishlab chiqish borasida inglizlar bilan hamkorlik qila boshladilar.

Hindiston Milliy Kongressining 1907 yil dekabrda Suratda bo'lib o'tgan kongressida "mo'tadillar" bilan "ashaddiylar" o'rtasida o'tkir ziddiyatlar borligi ma'lum bo'ldi. Liberallar boykotni zudlik bilan to'xtatishni talab qildilar, ular kurashning kuch ishlatuvchi uslublarini qoralovchi rezolyusiya qabul qildilar. "Ashaddiylar" bunga qarshi chiqdilar. Natijada HMKda ajralish yuz berdi.

Kongress endilikda "Mo'tadillar" tomonidan juda cheklangan holatga keltirilgan svadeshi harakatini yoyish bilan cheklandi.

Tilak va uning tarfdorlari millatchilar partiyasini tuzishga harakat qildilar, lekin bu partiya darhol qonundan tashqarida deb e'lon qilindi.

Kongressdagi parchalanish milliy harakatdagi kuchlarni zaiflashtirgan bo'lsada mamlakatdagi kurash davom etdi. 1908 yilning birinchi yarmida ish tashlash harakati sezilarli darajada kuchaydi. Bir qator joylarda xalqning politsiya va qo'shin bilan to'qnashuvi yuz berdi.

Mustamlaka hukumati butun mamlakat bo'ylab qatag'on qilishlarni kuchaytirdi. Vatanparvarlar qamoqqa tashlandi, demokratik matbuot organlari yopildi. Inglizlar 1908 yil iyunida Tilakni qamoqqa oldilar.

Iyul oyida ingliz hukumati Tilak ustidan sud jarayonini tashkil etdi. Milliy-ozodlik harakati rahbarini jazolash uchun 2 ta hind va 7 ta ingliz hakamlaridan iborat sud tashkil etildi. Sud Tilakni 6 yil surgunga (keyinchalik qamoq muddati bilan almashtirilgan) hukm qildi.

Tilakning qamoqqa olinishi va sudga tortilishi to'g'risidagi xabar mamlakatda norozilikni kuchaytirib yubordi. Bombay ishchilarining noroziligi ayniqsa kuchli bo'ldi. Sud jaaryoni bo'lib o'tayotgan kunlarda ommaviy norozilik namoyishlari va mitinglari bo'lib o'tdi. "Ashaddiylar"ning da'vati bilan siyosiy ish tashlashlar boshlandi. Bombay aholisi Tilakni qamoqqa hukm qilish haqida sud qarori chiqqan 22 iyulda "Tilakni qamoqqa hukm qilingan har bir yili uchun bir kun umumiy ish tashlash o'tkazamiz", -degan shior bilan chiqdi.

Ertasi, 23 iyulda Bombay ishchilarining ish tashlashlari umumiy tusga aylandi. Unda 100 mingdan ortiq kishi qatnashdi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan choralarga qaramasdan ish tashlash 6 kun davom etdi. 29 iyulga kelib ishchilar ishga kirishdilar.

Hindistonda 1905-1908 yillardagi harakatining yuksalishi xalq ommasini mustamlakachilik tartibotidan xalos qila olmadi.

Hindiston xalqlari bu vaqtda ongli ommaviy siyosiy kurash yo'lida dastlabki qadamlarni tashlayotgan edi.

Ingliz mustamlakachi ma'murlari 1905-1908 yillardagi voqealar saboqlarini ham hisobga olishga majbur bo'ldilar. Britaniya parlamenti 1909 yilda Butunhindiston qonunchilik kengashi a'zolarini yarmini saylab qo'yish to'g'risida qonun qabul qildi. Lekin bu yon berish faqat tashqi ko'rinishdan iborat edi. Aslida qonunchilik kengashlari Hindiston vitse-qirol va provinsiyalar gubernatorlari huzurida maslahat muassasalari sifatida ish olib borardilar. Saylovlar ham 2 va 3 bosqichli bo'lib, 300 million aholidan faqat bir necha ming aholi saylov huquqiga ega edi. Musulmonlar uchun alohida kuriya tashkil etilgan edi.

Britaniya hukumati 1911 yilda Bengaliyani ajratish to'g'risidagi qonunni qaytadan ko'rib chiqdi. Qirol deklaratsiyasi bo'yicha Bengaliyaning G'arbiy va Sharqiy qismlari birlashtirildi. Bixar va Orissa alohida provinsiyaga aylandi, Assam ham mustaqil provinsiya bo'ldi. Shu bilan birga 1911 yilda Hindiston poytaxti norozilik harakat markazi bo'lgan Kalkuttadan ancha tinch hisoblangan Dehliga ko'chirildi.

Birinchi jahon urushi davrida harbiy harakatlar bevosita Hindiston hududlarida bo'lib o'tmagan bo'lsada, bu urush mamlakat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Urush davrida Hindiston Britaniyaning front orqasidagi asosiy tayanchiga aylandi.

Inglizlarning harbiy siyosatini hind zamindorlari va savdo-sanoat doiralari qo'llab-quvvatladi. Bu urush ularga katta daromad keltiruvchi manba bo'ldi. Bundan tashqari, ular urush davrida inglizlarni qo'llab-quvvatlash evaziga o'zi uchun bir qator iqtisodiy va siyosiy yon berishlarga ega bo'lishni ko'zlar edi.

Birinchi jahon urushi yillarida 1 160 mingdan ortiq hindistonliklar inglizlarning Eron, Fransiya, Turkiyadagi harbiy qismlarida xizmat qildilar.

Urush yillarida Hindiston qishloq xo'jaligining mahsulotdorlik darajasi o'sdi. Lekin urush qishloq xo'jalik aloqalarining uzilishiga olib keldi va dehqonlar yangicha sharoitlarga moslashishga majbur bo'ldilar. Hind dehqonlari o'z mahsulotlarini majburiy ravishda inglizlarga topshirdilar. Dehqonlar zimmasidagi soliqlar oshirildi. Osiyo va Afrikadagi ingliz armiyalari Hindiston tomonidan oziq-ovqat bilan ta'minlanardi. Frontlardagi barcha hind qo'shinlari Hindiston aholisi hisobidan qurollantirilar va moliyalashtirildilar.

Urush yillarida ingliz mustamlaka ma'muriyati siyosiy ta'qibni kuchaytirdi. 1915 yilda "Hindiston mudofaasi to'g'risida Qonun" kuchga kirib, hokimiyat cheklanmagan politsiya vakolatlariga ega bo'ldi. Minglab odamlar sudsiz, tergovsiz qamoqqa tashlandi.

Urush hind sanoatining rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Inglizlarning harbiy buyurtmalari Hindistonda milliy sanoatning rivojlanishiga va milliy tadbirkorlarning boyib ketishiga yordam berdi. Kompaniyalar soni ko'paydi. Ingliz mustamlaka ma'muriyati bir qator yon berishlarni amalga oshirdi. 1915 yilda Hindistonga keltirilayotgan barcha mollarga 5 foizli boj joriy qilindi, 1917 yilda esa paxtadan tayyorlangan gazlamalarga boj 7,5 foizga ko'tarildi.

Urush yillarida Hindistonda to'qimachilik sanoati ayniqsa tez rivojlandi. Engil sanoat va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ko'paydi. Shuningdek, og'ir sanoatning ba'zi sohalarini ham rivojlandi. Metall ishlovchi zavodlar yirik buyurtmalar va davlat subsidiyalari olish hisobiga ancha kengaydi. Bengaliyaning temir va po'lat ishlab chiqaruvchi zavodlari ham kengaydi, yangi metallurgiya korxonalari paydo bo'ldi.

Lekin shunga qaramasdan Hindiston sanoat jihatidan qoloq mamlakat sifatida qolaverdi. U o'z mashinasozlik sanoatiga va og'ir sanoatning boshqa eng muhim tarmoqlariga ega emas edi. Ingliz sarmoyasi avvalgidek Hindiston iqtisodiyotida hukmron mavqega ega edi va urush yillarida bu sarmoya miqdori yanada ko'paydi.

Shu bilan birga hind milliy moliya va savdo-sanoat doiralari iqtisodiy jihatdan o'sib, mustahkamlandi. Urush yillarida hind hissadorlik kompaniyalari tomonidan to'plangan sarmoya miqdori 500 million rupiydan 1,06 mlrd rupiyga ko'paydi.

Ingliz monopoliyalari urush davomida juda katta daromadga ega bo'ldilar. Tata kompaniyalarining daromadi to'rt baravardan ko'proq o'sdi.

Hind sanoatining rivojlanishi natijasida ishchilar ham ko'paydi. Sanoat ishchilarining soni urush oxiriga kelib 2,5 - 2,6 million kishiga etdi.

Harbiy davr qonunlariga qaramasdan 1915-1916 yillardayoq xalq ommasining bir qator chiqishlari bo'lib o'tdi. Mayda terrorchi tashkilotlar qurolli qo'zg'olon ko'tarishga urinib ko'rdilar. Mamlakatda va undan tashqarida hind askarlarining isyonlari ko'paydi. 1916 yilda Singapurda hind qo'shinlari brigadasining isyoni bo'ldi. Panjobda sikklar harbiy qismlarida g'alayonlar sodir bo'ldi.

Iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib olgan milliy savdo-sanoat doiralari o'z kuchlarini birlashtirishga harakat qildi. Ular o'z siyosiy partiyasi - Hindiston Milliy Kongressini mustahkamlashdi. Tilak hind gomruli Ligasini tashkil qildi va xalq ommasi ichida Hindiston milliy mustaqilligi talabini targ'ib qilishni kuchaytirdi.

1916 yilda Lakxnauda bir vaqtning o'zida Hindiston Milliy Kongressi va Musulmon Ligasining yig'inlari bo'lib o'tdi. Bir-biridan alohida o'tgan bu ikki yig'inda bir xil talablar - Hindistonga tezda o'z-o'zini boshqarish huquqini berish, hindlarni armiyadagi ma'sul lavozimlarga qo'yish, bojxona muxtoriyatini joriy qilish, moliya ustidan nazorat o'rnatish kabi talablar ilgari surildi.

Urush yillarida mashhur hind siyosiy arbobi Moxandas Karamchand Gandi o'zining kuch ishlatmasdan qarshilik ko'rsatish orqali Hindiston mustaqilligiga erishish to'g'risidagi ta'limoti bilan xalq ommasi ichida juda katta tashviqot ishlarini olib bordi.

Angliya hukumati Hindistonni eski usullar bilan boshqarish tobora qiyin bo'layotganini hisobga olib, 1917 yil aprelida Hindiston ishlari bo'yicha stats-sekretar(davlat kotibi) deklaratsiyasini e'lon qildi. Unda Hindistonga Britaniya dominionlari namunasidagi konstitutsiya berishga va'da qilindi. Bayonotda Angliya parlamenti tomonidan belgilanishi kerak bo'lgan muddatlarda islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilishi ko'rsatildi.

Urushning so'nggi davrida Hindistondagi vaziyat keskinlashdi. Mamlakatda ocharchilik avj oldi. Urush yillarida ochlik va kasallikdan 11 mln.ga yaqin kishi o'ldi. Mamlakatda dehqonlarning katta chiqishlari, ochlik isyonlari bo'ldi. Lekin qo'zg'olonlar inglizlar tomonidan bilan bostirildi.

4 mavzu. Eron XVII asr o'rtalari - XX asr boshida.

XVII asrning ikkinchi yarmida Eron xo'jaligi tushkunlikga yuz tutdi. Afg'onlar va turklarning yurishlari Eronning bir qator viloyatlarini vayronaga aylantirdi. Eron zodagon er egalari XVIII asr 30-40-yillaridagi yurushlari va XVIII asr ikkinchi yarmidagi o'zaro urushlari Eronni yanada zaiflashtirdi.

Eron aholisining asosiy qismini er mulkdorlariga qaram bo'lgan o'troq dehqonlar raiyat tashkil etardi. Ko'chmanchilar (ilyatlar) o'troq dehqonlarga nisbatan ancha erkin yashardilar. Ularda patriarxal tartiblar va an'analar saqlanib qolgan bo'lib, xonlar hokimiyati ma'lum darajada cheklanib qo'yilgan edi. Ko'chmanchilar uncha katta bo'lmagan soliq to'lardilar, harbiy xizmatni o'tagan taqdirda esa soliqdan ham ozod qilinardilar.

Ko'rib o'tilayotgan davrda Eron har birida o'n mingtagacha aholi yashaydigan 20 ga yaqin katta shaharlar va 2-5 ming aholi yashaydigan 40 ga yaqin kichik shaharlar mavjud edi. Isfahon, Sheroz, Tabriz, Karmon, Hamadon kabi yirik shaharlar muhim savdo-hunarmandchilik markazlari edi. Kichik shaharlar qishloqlardan deyarli farq qilmas edi, ularning aholisi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanardi. Ularda hunarmandlarning soni oz edi.

Shahar aholisi turli xil soliqlarni to'lar va majburiyatlarni bajarar edilar.

Shoh Abbas I davrida o'zining eng gullagan davriga erishgan Safaviylar davlati uning vorislari Safo I (1629-1642) va Abbas II (1642-1666) davrida hali ham kuchli bo'lsada lekin shu davrda tushkunlik alomatlari ko'rina boshlagan edi. Eron davlatining o'zidagi qo'zg'olonlar va unga qaram bo'lgan xalqlarning milliy-ozodlik harakatlari Eron davlatini emira boshlamoqda edi. Shoh erlari zodagon er mulkdorlariga berilishi orqasida qisqarib bormoqda, yirik er-mulk egalari ajralib chiqishga bo'lgan harakatlari kuchayib, amaldorlarning o'zboshimchaligi oshib bormoqda edi.

Shoh Sulton Xusayn davrida (1694-1722) Safaviylar davlatining inqirozi yanada kuchaydi.

Dehqonlarning xonavayron bo'lishi va tez-tez sodir bo'lib turgan isyonlar xon xazinasini bo'shab qolishiga olib keldi, hatto askarlarga maosh to'lashga ham pul yo'q edi.

1701 yilda eski soliqlar oshirildi va yangilari joriy qilindi hamda oldingi uch yil uchun soliqlar undirib olish buyurildi. Bu tadbirlar halq ommasini yanada qashshoqlashishiga olib keldi, lekin xazinaga tushayotgan mablag' ko'paymadi.

Safaviylarning ijtimoiy tayanchi ham yo'qola bordi, ularni qabilalarning harbiy zamindorlar qatlami ham qo'llab-quvvatlashdan chetlana boshladi, qabila xonlari esa markaziy hokimiyat zaiflashganidan foydalanib, qabilaga qarashli erlarni o'z mulkiga aylantirishga intildilar.

Ichki va tashqi savdoning qisqarib ketishidan zarar ko'rgan savdogarlar ham Safaviylarga muxolifatda edilar. Armaniston va Gruziyaning xristian ruhoniylari ham, Ozarbayjon, Dog'iston va Afg'onistonning sunniy ruhoniylari ham xristianlarga va shia bo'lmagan musulmonlarga nisbatan tazyiq siyosatini o'tkazib kelayotgan shoh hokimiyatiga muxolifatda edilar. Yangi soliq qonunchiligi natijasida

masjidlarning daromadlari kamayib ketganligi sababli shia ruhoniylarining o'zlar ham shoh siyosatidan norozi edilar.

Safaviylarga qarshi qo'zg'olonlar kuchaydi. 1709 yilda Qandahor gilzailarining kalantar (shahar boshlig'i) Mir Vays boshchiligidagi qo'zg'oloni boshlandi. Ular shahardagi eronliklar garnizonini qirib tashlab, hokimni o'ldirib, viloyatni egalladilar. Sulton Husaynning qo'zg'oloni bostirishga bo'lgan unishi natijasiz tugadi. Qandahor Safaviylar davlatidan ajralib chiqdi.

Hokimiyat tepasiga kelgan afg'onlarning yuqori qatlami bosqinchilik urushlarini boshlab yubordi. Mir Vaysning o'g'li Mir Mahmud afg'on o'liqlariga bosh bo'lib, 1722 yil yanvarda Karmanani egalladi. Keyin Yazd shahrini qo'lga kiritolmagach, Safaviylar poytaxti Isfahonga yurish qilib, uni qamal qildi. Qamal bir necha oy davom etdi va oktyabrda Isfahon taslim bo'ldi. Mir Mahmud Isfahonga g'olib sifatida kirib keldi va o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Shundan keyin Kashon, Kum va boshqa shaharlar unga taslim bo'ldi.

Shoh Sulton Husayn ag'darib tashlandi, uning o'g'li Toxmasp Eronning Kaspiy bo'yidagi erlariga qochib ketdi, uni bu erda qonuniy shoh deb tan oldilar. Turklar 1723 yil bahorida Gruziyaga hujum qilib, Tbilisini egallashdi. Toxmasp yordam so'rab, rus podshosi Pyotr I ga murojaat qildi. 1723 yildagi Peterburg traktatiga (bitimiga) binoan Toxmasp II Rossiya tomonidan ilgari bosib olingan Darband va Bokuni, shuningdek G'ilyon, Mozandaron va Arstrobodni Rossiyaga berishga rozi bo'ldi. Rossiya hukumati, o'z navbatida, Toxmaspga uning dushmanlariga qarshi kurashda yordam berish majburiyatini oldi. Rus qo'shinlari Reshtni egallab oldilar, lekin shohga va'da qilingan yordamni bermadilar. 1724 yilda Turkiya 1723 yilgi rus-eron bitimini tan oldi. Rossiya ham, o'z navbatida, Turkiyaning Armaniston, Janubiy Ozarbayjon va Kurdiston ustidan hukmronligini tan oldi. Turklar 1725 yilda mahalliy aholining qarshiligini bartaraf etib, Qazvin, Ardabel, Hamadon va boshqa shaharlarni egalladilar.

Bu vaqtda Erondagi afg'onlarning turli guruhlari o'rtasida kurash borardi va bu kurash 1725 yilda Mir Vaysning qarindoshi - Ashrafning Eron shohi deb e'lon qilinishi bilan yakunlandi. Ashraf o'z ajdodlariga nisbatan ancha ustalik bilan siyosat olib bordi. U Eron zodagonlarini o'z tarafiga torta oldi, mamlakat xo'jaligini va savdoni jonlantirish uchun ancha ishlar qildi. Ashraf 1726 yilda turklarga qarshi chiqdi, ba'zi bir g'alabalarga erishgan bo'lsa ham Ozarbayjon, Kurdiston, Markaziy Eronning bir qismi ustidan Turkiya xukmronligini o'matilganligini tasdiqlovchi 1727 yilgi shartnomani tan olishga majbur bo'ldi.

Afg'on xonlarining Erondagi 7 yillik hukmronligi aholini talash, shafqatsiz jazolash bilan birga bordi. Eron dehqonlari va shahar kambag'allari afg'on va turk bosqinchilariga qarshi kurashni to'xtatmadilar.

XVIII asr 20-yillarining ikkinchi yarmida halq kurashi ayniqsa keskin tus oldi. Eron xalqining qattiq kurashi natijasida afg'on qo'shini Qoshon, Kum, Qazvin, Tehron, Yazd shaharlarini tashlab, Isfixonga qarab qochdi.

Ozodlik harakati natijasida qizilbosh afshar qabilasidan bo'lgan Nodir oldingi o'ringa chiqdi. Nodir XVIII asrning 20-yillari boshida Xurosonda bosqinchi to'da boshlig'i sifatida turli yirik er egalari harbiy xizmatida bo'lgan edi. U 1725 yilda